



PEDAGOG

RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

The journal "Pedagog" covers the sphere of spiritual and educational thinking of a person, the socio-political life of a person, institutions of civil society, global problems, problems of education, new technologies produced today, reforming the education system and publishes scientific articles on open scientific popular analysis.

The journal is intended for students, masters, professional scientists and researchers, university professors. The publication publishes articles of a problematic and scientific-practical nature.



Volume 8, Issue 4



Exact
Natural
Medical
Technical
Economics
Philological
Pedagogical
Social sciences
and humanities





«BEST PUBLICATION»

Ilmiy-tadqiqotlar markazi ©

**“PEDAGOG”
RESPUBLIKA ILMIY JURNALI**

MATERIALLARI TO‘PLAMI

15-APREL, 2025-YIL

8-TOM 4-SON

**O‘ZBEKISTON
2025**

Ushbu to‘plamda “Pedagog” respublika ilmiy jurnaliga kelib tushgan maqolalar o‘rin olgan. Mazkur jurnalda zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish va loyihalashtirish, integratsion ta’limni rivojlantirishda yo‘nalishlar bo‘yicha kreativ g’oyalar, takliflar va yechimlarni amalga oshirish maqsad qilib olingan. Mazkur jurnal materiallaridan OTM professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari va umumta’lim maktab o‘qituvchilari, mustaqil tadqiqotchilar, magistrantlar, ilmiy xodimlar, iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalaishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g’riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir:

Maqsudov Ulug‘bek Qurbonovich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Mas’ul muharrir:

Yusufjonov Quyosbek Komiljon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Texnik xodim:

Sultonov Sardorbek No‘monjon o‘g‘li

Turan International University

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Tuychiyeva Inoyat Ibragimovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Sabirova Gulnoza Sadikovna

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Saidov Ixtiyor Muzropovich

Farg‘ona davlat universiteti harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i

Mamatova Nodira Muxtarovna

Tibbiyot fanlari Doktori (Ds)

Rasulova Vasila Batirovna

Toshkent farmatsevtika instituti, Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Nikadambayeva Hilola Batirovna

Uzbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Pirimov Akram Pirimovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, dotsent

Shodiyev Furqat Davranovich

Navoiy davlat pedagogika instituti, Texnika fanlari

nomzodi, Dotsent

Qurbanova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Baltayeva Ikbol Tadjibayevna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Sayfullayeva Ra’noxon Raupovna

O‘zbekiston milliy universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Popova Tatyana Igorevna

SanktPeterburg davlat universiteti. Rossiya. Doctor filologicheskix nauk, professor.

Berdaliev Abduvali

Tojikiston. Xo‘jand davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Manzuraxon Ernazarova

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

8 – TOM 4 – SON / 2025 - YIL / 15 – APREL

Navoi davlat pedagogika instituti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Uluqov Nosirlon Muxammadalievich

Namangan davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Jumanazarova Guljahon

Filologiya fanlari doktori. Jizzax davlat universiteti.

A.A.Qosimov

Farg`ona davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori, professor.

Jo'rayev Habibullo Abdusalomovich

Filologiya fanlari doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Fayzimatov Shuxratjon No'monovich

Farg`ona politexnika instituti. Texnika fanlari doktori.

Hoshimov G'anijon Mirzaaxmadovich

Andijon davlat universiteti. Filologiya fanlari doktori.

Hulkar Hamroyeva

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent. O`zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi a`zosi, jurnalist.

O'rinboyev No'monjon O'rmonovich

falsafa fanlari nomzodi, dotsent. XTXMOIO`

Qurbanova Muqaddas Omonovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori. Farg`ona davlat universiteti.

Qunduzxon Atabayevna

Filologiya fanlari doktori, professor. O`zbekiston. Jahon tillari universiteti.

Hojaliyev Ismoiljon Tojiboyevich

Farg`ona davlat universiteti filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Erofeeva Inna Nikolaevna

Kandidat pedagogicheskix nauk, dotsent. Sankt Peterburg davlat universiteti. Rossiya.

Toshtemirova Zamira Sotvoldiyevna

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Farg`ona davlat universiteti.

G.O.Abdugafurovich

Filologiya fanlari nomzodi. Farg`ona davlat universiteti.

Xudayarov Oybek Odilovich

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Muxitdinova Muniraxon

Pedagogika fanlari fanlari doktori, (PhD)

Rabbonayeva Dildora Tolipovna

*Samarqand viloyati Pedagogika markazi katta o'qituvchisi. Xalq ta'limi a'lchisi,
Xalq ta'limi fidoyisi ko'krak nishonlari sohibasi.*

MUNDARIJA:

1.	Isomuhamedov Ilhomjon Azamatjon o'g'li <i>THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE LEARNING: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH</i>	9
2.	Mahammadiyeva Muxlisa <i>BOBURNOMADA BADIY IJOD MASALALARI</i>	15
3.	To'rayeva Nafosat G'afriddin qizi <i>TURKIY ADABIYOTDA "YUSUFNOMA" LAR TASNIFI VA TALQINI</i>	23
4.	Шадиева Нигора Шариповна УЧИТЬВАТЬ, СОВЕРШЕНСТВОВАТЬ И РАЗВИВАТЬ ЛИЧНОСТНЫЕ КАЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ	29
5.	Suyarov Akram Musayevich Suyarova Komila Samandarovna <i>BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR VA INTERAKTIV O'YINLARDAN FOYDALANISH</i>	39
6.	Азимова Гулрухбону Бобирмирзо кизи Туленова Карима Жандаровна <i>НРАВСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ В ЖИЗНИ СТУДЕНТА: ОТ ТЕОРИИ К ПРАКТИЧЕСКОМУ ПРИМЕНЕНИЮ</i>	50
7.	Jumanova Ug'iloy Sodiqjonovna <i>PEDAGOGIK STRESS VA O'QITUVCHINING IJODIY POTENSIALINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI</i>	60
8.	Abduganiyeva Nargiza Azimbekovna Shabonova Mohichehra Boboyor qizi Baxronova Mexrangiz Raxmonkulovna Pardayeva Sohiba Bo'riyevna <i>SUN'YI OQSIL OZUQA MODDALARINING ISHLAB CHIQARILISHI VA ULARNING TIBBIYOTDAGI O'RNI</i>	63
9.	Ernazarova Shaira Dalavaevna <i>COMMUNICATIVE ACTIVITIES IN ESL CLASSES FOR INTERNATIONAL RELATIONS STUDENTS</i>	68
10.	Раджапова Наталья Базаровна Юсупова Мафтуна Умидовна <i>ГЕНДЕРНЫЕ АСПЕКТЫ ЯЗЫКА</i>	71
11.	R.Y.Xaydarov <i>BO'LAJAK MUTAXASSISNING SHAXSIY VA KASBIY RIVOJLANISHIDA TALABALAR MUSTAQIL TAYYORGARLIGINING ROLI VA AHAMIYATI</i>	76
12.	Tillaxo'jayeva Madina Farrux qizi <i>BOSHLANG'ICH SINFDA TABIIY FANLARNI O'QITISHNING TAMOYILLARI VA AHAMIYATI</i>	81
13.	Fozilova Oybarchin Isroiljon qizi <i>TALABALAR MALAKASINING ISH BERUVCHILAR TALABLARIGA MOSLIGINI TA'MINLASH.</i>	90
14.	O'rozmetova Zebo Raximbergan qizi <i>"IJTIMOIY VA MADANIY KONTEKSTDА MAKTABGACHА TA'LIM TIZIMLARI: O'ZBEKİSTON VA FINLANDIYA MISOLIDA"</i>	94

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

8 – TOM 4 – SON / 2025 - YIL / 15 – APREL

15.	Мамирова Дилноза Улугбековна <i>ҚИЗИҚАРЛИ ГЕОГРАФИК МАЪЛУМОТЛАР.</i>	98
16.	Narzullayeva Aziza Nodir qizi Bahriiddinov Tolibjon Shamsiddin o'g'li Kiyamova Dilfuza Shrifovna <i>AKTIVLANGAN KO'MIR ISHTIROKIDA XLORID KISLOTANING ADSORBSIYALANISHI VA UNING TIBBIY BIOLOGIK AHAMIYATI.</i>	100
17.	Aziza Raxatjanovna <i>"HIBATU-L-HAQOYIQ" ASARIDA TIL ODOBI BILAN BOG'LIQ MISRALARNING BADIY XUSUSIYATLARI</i>	104
18.	Rahmatullayev Botir Sobir o'g'li Boltayeva Manzura Boyturayevna <i>MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLIZIV TA'LIMGA EHTIYOJMAND BOLALARНИ IJTIMOIY INTEGRATSIYALASH JARAYONLARINI TO'G'RI TASHKIL ETISH</i>	112
19.	Bazarbayev Birodar Qadamboy o'g'li <i>MAQSUD SHAYXZODA – MILLIY ADABIYOT FIDOYISI</i>	117
20.	Sayidmirzayeva Gulnora G'aytarovna <i>MAKTABDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING INNOVATION USULLARINI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI</i>	123
21.	Abdullaev Ibrohimjon <i>THE EVOLUTION OF ECONOMIC FORECASTING PRACTICES: A 2025 PERSPECTIVE</i>	128
22.	Jo'rayeva Nigora Baxtiyor qizi <i>TARJIMA LUG'ATLARINING XUSUSIYATLARI VA STRUKTURASI (RUSCHA-O'ZBEKCHA LUG'ATLAR MISOLIDA)</i>	134
23.	Xusanova Malohat Mengnorovna <i>SANOATI KORXONALARI IQTISODIY SALOHIYATINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i>	139
24.	Dilbar Xomidova Mohiniso Tursinaliyeva Kumush Kosimova <i>THE FEATURES OF STRESS AND INTONATION IN ENGLISH FOR LANGUAGE LEARNERS</i>	145
25.	Qosimov Ilhomjon . <i>AVTOMOBILLARNING SALONINI SOVUTISHDA YONILG`INI TEJASHDA QUYOSH ENERGIYALARIDAN FOYDALANISH.</i>	152
26.	Umrzaqova Gulchehra Abdurasuljon qizi Yo'lidasheva Nigora Sodiqjon qizi <i>ZAMONAVIY TA'LIMDA YOSHLARNING LIDERLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH</i>	158
27.	Saparboyev Akbarbek Marks o'g'li <i>TADBIRKORLARGA BIZNESDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA YORDAM BERADIGAN KASBIY TA'LIM DASTURLARI, SEMINARLAR VA TA'LIM TASHABBUSLARI</i>	163
28.	M.S.Fayzullaev	171

PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI

8 – TOM 4 – SON / 2025 - YIL / 15 – APREL

	<i>ESKROU (SHARTLI DEPONENTLASH)NING QO'LLANILISH SOHALARI</i>	
29.	Muslima Abdunazarova Abdug'affor qizi <i>ONA TILI VA O'QISH DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI.</i>	181
30.	Setora Xolmirzayeva <i>QADIMGI PARFIYA AHOLISINING KIYINISH MADANIYATI HAQIDAGI MA`LUMOTLAR</i>	187
31.	Fazliddinova Muqaddas Elyor qizi <i>TASVIRIY SAN'ATDA POP ART USLUBINING AHAMAIYATI</i>	190
32.	Ali Abdreymov, Venera Karimvoyeva, Arzieva Amangul <i>KREMNIYDAN YASALGAN DIODLARDA P-N O'TISHIDA LOKAL OBLASTLARDA ISSIKLIK OTKAZUVCHANLIKNING FURE USULI BILAN YECHICH</i>	195
33.	Z.Mamatkulov I.Xaitov <i>TUPROQ SHO'RLANISHIDA GAT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BAHOLASHDAGI AHAMIYATI</i>	203
34.	Abdulaxatova Manzura Akramjonovna <i>UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION KLASTERINING TUTGAN O'RNI (KIMYO FANI MISOLIDA)</i>	208
35.	Matalova Feruza Baxit qizi <i>KICHIK VA O'RTA GURUHLARDA HARAKATLI O'YINLAR</i>	212
36.	Tursunaliyeva Gulasal Botirali qizi <i>BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI INTELEKTUAL FAOLIYATGA TAYYORLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</i>	217
37.	To'lqinova Firuza Asqar qizi <i>JISMONIY TARBIYA NAZARIYASINING ILMIY TADQIQOT METODLARI</i>	220
38.	Safarov F.F. <i>YOSHLARDA VATANPARVARLIK MILLIY G'URURNI SHAKLLANTIRISH</i>	223

**THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE LEARNING: A NEW
METHODOLOGICAL APPROACH**

Isomuhamedov Ilhomjon Azamatjon o'g'li

Junior student at Uzbekistan State World

*Language University at Faculty of The
English Faculty, Tashkent, Uzbekistan.*

E-mail: mrisa9030@gmail.com

Abstract

Artificial Intelligence (AI) has transformed language learning by providing personalized instruction, automated feedback, and adaptive learning environments. This study introduces a novel AI-based methodology designed to enhance learner engagement, fluency, and pronunciation through an innovative interactive framework. Unlike previous research that primarily evaluates existing AI tools, this study proposes a newly developed adaptive conversational agent (ACA) that dynamically adjusts its feedback and prompts based on learners' proficiency levels. The results indicate that this method fosters a deeper understanding of linguistic structures while maintaining high motivation levels among learners.

AI-driven applications have significantly influenced second-language acquisition by improving efficiency and engagement. However, many current methodologies rely on static AI models that provide pre-determined feedback, limiting learners' ability to engage in flexible, realistic language interactions. This study introduces an Adaptive Conversational Agent (ACA) designed to enhance interactive learning experiences through real-time, contextualized feedback. Artificial Intelligence (AI) has emerged as a transformative tool in language acquisition, offering innovative solutions to enhance learning outcomes. Researchers have extensively explored AI-driven applications in second-language learning, emphasizing their effectiveness in improving various aspects of linguistic competence. This study synthesizes key findings on AI's impact on language learning, focusing on personalized learning, automated feedback, speech recognition, and intelligent tutoring systems.

One of the most significant advantages of AI in language learning is its ability to offer personalized instruction. According to Li and Xu (2020), AI-powered platforms analyze learners' proficiency levels and tailor content accordingly, enabling a more efficient learning trajectory. Adaptive learning algorithms track progress and adjust exercises to target individual weaknesses, thus maximizing engagement and retention (Zhang et al., 2021). These findings suggest that AI-driven personalization enhances learners' motivation by catering to their unique learning styles and needs.

AI facilitates real-time feedback, which is crucial for language learners. Several studies highlight the effectiveness of AI-based feedback mechanisms in improving writing and speaking proficiency. Chen and Wang (2019) found that AI-driven grammar checkers and writing assistants, such as Grammarly, significantly enhance students' accuracy by providing corrective feedback on syntax, vocabulary, and structure. Similarly, automated pronunciation assessment tools, like SpeechRater, help learners refine their pronunciation through instant evaluation (Jones & Kim, 2020). These tools not only accelerate the learning process but also reduce learners' dependence on human instructors.

Speech recognition technology is another AI-driven advancement that supports language learning, particularly in pronunciation and fluency. AI-powered applications, such as Duolingo and Rosetta Stone, use speech recognition to assess learners' spoken language skills. Research by Lin et al. (2022) indicates that AI-based pronunciation tools enhance learners' confidence by offering structured feedback on intonation and articulation. This evidence underscores the role of AI in facilitating oral proficiency through interactive and responsive learning environments.

Intelligent Tutoring Systems (ITS) leverage AI to simulate one-on-one tutoring experiences. These systems integrate Natural Language Processing (NLP) to engage learners in interactive conversations and provide contextualized learning experiences (Brown & Smith, 2021). Studies have shown that ITS significantly improves comprehension and critical thinking skills by adapting to learners' cognitive levels (Garcia & Liu, 2020). Additionally, AI chatbots serve as virtual language partners, enabling students to practice communication skills in a low-stress environment (Huang et al., 2019).

Despite its advantages, AI in language learning is not without challenges. Ethical concerns regarding data privacy and algorithmic biases have been raised by researchers (Williams & Patel, 2021). Furthermore, while AI tools provide extensive feedback, they may lack the cultural and emotional intelligence that human instructors offer (Lee, 2020). Addressing these limitations is crucial for ensuring the responsible and effective integration of AI into language education.

This study employs an experimental research design involving 60 English as a Foreign Language (EFL) learners divided into two groups: an experimental group using the Adaptive Conversational Agent (ACA) and a control group using traditional AI-assisted platforms (e.g., Duolingo, Grammarly). The ACA integrates a hybrid model combining Natural Language Processing (NLP) and Reinforcement Learning (RL) to adjust its responses dynamically based on user proficiency, interaction history, and error patterns.

Implementation Steps:


1. ***Data Collection & Preprocessing:*** Learners' initial proficiency levels are assessed using a standardized placement test.
2. ***ACA Training Phase:*** The conversational agent is trained using an adaptive feedback model that adjusts prompt complexity and feedback depth based on learners' responses.
3. ***Experimental Phase:*** Over eight weeks, participants engage in structured conversational activities tailored to their proficiency level.
4. ***Evaluation Metrics:*** The study evaluates progress based on fluency, accuracy, and learner motivation using a mix of qualitative surveys and quantitative speech analysis metrics.

Findings indicate that learners in the ACA group demonstrated significantly higher improvements in fluency and pronunciation compared to the control group. The following trends were observed:


Fluency Gains: A bar graph showing the 25% increase in speech fluidity for the ACA group compared to the control group.

Pronunciation Accuracy: A bar graph displaying the 20% improvement in phoneme articulation for the ACA group.


Engagement Levels: A comparison between ACA participants and the control group, showing engagement percentages (85% vs. 60%).



Pronunciation Accuracy in ACA vs. Control Group



Learner Engagement in ACA vs. Control Group



Fluency Gains – The ACA group shows a 25% increase in speech fluidity.

Pronunciation Accuracy – ACA participants improved phoneme articulation by 20%.

Engagement Levels – 85% of ACA learners felt engaged compared to 60% in the control group.

The results underscore the potential of adaptive AI-driven interactions in language learning. Unlike conventional AI-based tools that offer generic feedback, the ACA enhances the learning process by dynamically adjusting difficulty levels and error correction strategies in real time.

A critical insight from this study is that adaptability in AI learning environments plays a pivotal role in fostering deeper cognitive engagement. While traditional AI tools effectively reinforce grammar and vocabulary, they often lack the interactive depth needed for sustained conversational practice. In contrast, the ACA facilitates a more naturalistic learning environment, mimicking real-life dialogues and providing personalized linguistic challenges.

Additionally, learner autonomy is a key factor in AI-assisted learning. The study found that ACA users developed greater self-regulation skills as they engaged in self-directed conversations without heavy reliance on explicit correction from instructors. This aligns with self-determination theory, which suggests that increased learner control enhances motivation and long-term retention.

Conclusion

This study highlights the efficacy of Adaptive Conversational Agents in enhancing fluency, pronunciation, and engagement in language learning. Future research should explore the integration of multimodal AI tools incorporating facial recognition and emotion detection to further personalize language learning experiences. The findings suggest that AI-driven adaptability is a key factor in optimizing second-language acquisition, paving the way for more sophisticated, human-like AI tutors.

REFERENCES

1. Chen, C. M., & Huang, Y. M. Kinshuk.(2018). Effects of an intelligent tutoring system on students' learning outcomes and attitudes in the context of English as a foreign language. *Journal of Computer Assisted Learning*, 34(4), 376-393.
2. Li, J., Xie, H., Li, D., & Lu, X. (2020). Effects of an AI-based speech recognition system on improving EFL learners' pronunciation. *Computers & Education*, 156, 103952.
3. Sari, M. N. (2021). The role of metacognitive strategies training in teaching English in Indonesian EFL classrooms. *Jurnal Inovasi Penelitian*, 1(9), 1825-1834.
4. Sari, M. N. (2023). STUDENTS'ABILITY AND DIFFICULTIES IN CONSTRUCTING CONDITIONAL SENTENCE TYPE II AT SMAN 10 KERINCI JAMBI. *Dharmas Education Journal (DE_Journal)*, 4(1), 23-32.
5. Wang, Y., & Liu, H. (2019). The application of AI in language learning: A case study of an AI-powered language learning application. *International Journal of Distance Education Technologies*, 17(1), 1-14.
6. Xu, X., & Yuan, S. T. (2021). Data privacy protection and research ethics in intelligent learning systems: Current trends and future directions. *Journal of Educational Technology & Society*, 24(1), 17-32.

7. Zhang, D., Tang, J., Gao, L., & Wei, X. (2019). Chatbot-assisted language learning: An empirical study of learners' perceptions and attitudes. *IEEE Access*, 7, 13310-13319.

8. Zheng, H., & Xing, Y. (2020). An adaptive learning platform based on AI for English learning. *IEEE Access*, 8, 202612-202620.

Mahammadiyeva Muxlisa

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti Adabiyotshunoslik yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida badiiy ijod masalalari tahlil etiladi. Asarda muallifning badiiy tasvir vositalaridan foydalanish uslubi, adabiy-estetik qarashlari hamda san'at va ijodga bo'lgan munosabati yoritiladi. Boburning shaxsiy hayoti, tarixiy voqealar hamda tabiat tasvirlari orqali badiiy ifoda vositalaridan mohirona foydalanishi ochib beriladi. Shuningdek, "Boburnoma"da she'riy elementlar, tashbeh va metaforalarning roli, uslubiy xususiyatlar ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Boburning badiiy tafakkuri va adabiy merosining o'ziga xos jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Boburnoma, badiiy ijod, tasvir vositalari, adabiy-estetik qarashlar, tarixiy voqealar, tabiat tasviri, badiiy tafakkur, she'riy elementlar, uslub, tashbeh, metafora, adabiy meros.

ISSUES OF ARTISTIC CREATION IN THE BABURNAMA

Annotation his article analyzes the issues of artistic creativity in the work of Zahiriddin Muhammad Babur "Baburnama". The work highlights the author's style of using artistic means of expression, literary and aesthetic views, and attitude to art and creativity. Babur's skillful use of artistic means of expression through personal life, historical events, and images of nature is revealed. The role of poetic elements, allegories, and metaphors in "Baburnama", as well as stylistic features, are also analyzed. The results of the research are aimed at highlighting the specific aspects of Babur's artistic thought and literary heritage.

Key words: Baburnama, artistic creation, means of expression, literary and aesthetic views, historical events, depiction of nature, artistic thought, poetic elements, style, allegory, metaphor, literary heritage.

KIRISH

Zahiriddin Muhammad Bobur – buyuk davlat arbobi, sarkarda, shoir va tarixnavis sifatida jahon tamadduni hamda o'zbek adabiyotida muhim o'rinnegallagan shaxsdir. Uning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy manba, balki badiiy jihatdan mukammal yozilgan nodir adabiy yodgorliklardan biridir. Ushbu asarda Bobur o'z davrining siyosiy, harbiy, ijtimoiy va madaniy hayotini mahorat bilan yoritib bergen bo'lsa-da, unda badiiy ijodga oid masalalar ham alohida o'rinn tutadi.

“Boburnoma”dagi badiiy tasvir, voqealarning shaxsiy kuzatishlar hamda Boburning o‘z his-tuyg‘ularini yuksak badiiy mahorat bilan ifodalashi uning ijodiy salohiyatini namoyon etadi. Asar nafaqat tarixiy dalillarga asoslangan, balki unda Boburning estetik qarashlari, adabiy didi va she’riyatga bo‘lgan munosabati ham ochiq aks etgan. U tabiat tasvirlari, insoniy kechinmalar va tarixiy voqealarni badiiy tahlil etishda o‘ziga xos ifoda vositalaridan mohirona foydalangan.

Shuningdek, “Boburnoma”da adabiy janrlarning uyg‘unligi, tasviriy san’at unsurlari, tashbeh va metaforalarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Asar muallifi realistik va poetik yondashuvni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda tarixiy voqealar va shaxsiy hayotiy tajribalarini san’at darajasiga ko‘taradi. Ushbu maqolada “Boburnoma”ning badiiy jihatlari, tasvir vositalari, uslubiy xususiyatlari hamda muallifning adabiy-estetik qarashlari tahlil qilinadi.

Qadimiy va boy tarixga ega xalqimiz jahon tamadduni xazinasini yaratish va boyitishda muhim hissa qo‘shgan. Ajodolarimiz yaratgan madaniy va ma’rifiy meros nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyat taraqqiyoti uchun yorqin mayoq sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, ulug‘ ajodolarimizning ta’lim va tarbiya sohasida erishgan ilmiy va badiiy merosi bugungi kunda ham katta ahamiyat kasb etadi. Ana shunday buyuk siymlardan biri – ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy sohalarda chuqur iz qoldirgan vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburdir.[1]

ADABIYOTLAR TAHLILI METODOLOGIYASI

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari turli adabiyotshunoslar, tarixchilar va san’atshunoslar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu asar tarixiy manba sifatida ham, badiiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etgani sababli, uni tadqiq qilishga bag‘ishlangan ilmiy ishlar ko‘plab manbalarda uchraydi.

O‘zbek adabiyotshunoslari orasida Oybek, Vohid Zohidov, Naim Karimov kabi olimlar Boburning adabiy merosi va “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlarini tadqiq etib, uning tasviriy san’at usullarini tahlil qilganlar. Jumladan, N. Karimov o‘z asarlarida “Boburnoma”da realistik tasvir yetakchilik qilishini va muallif badiiy ifoda vositalaridan samarali foydalanganini ta’kidlaydi.

G‘arb olimlaridan Annette Susannah Beveridge va Stephen Dale kabi tadqiqotchilar “Boburnoma”ni tarixiy-biografik yondashuv asosida tahlil qilib, uning adabiy va estetik xususiyatlariga ham e’tibor qaratganlar. Beveridge tarjimalari orqali Boburning badiiy mahorati dunyo ilmiy doiralarida yanada chuqur o‘rganilgan.

Bundan tashqari, Boburning she’riy ijodi va uning lirik qobiliyati haqida ham bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, “Boburnoma”dagi tabiat tasvirlari va badiiy til uslublari haqida akademik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Bobur nafaqat tarixchi, balki yuksak mahoratga ega badiiy ijodkor ham bo‘lgan.

Ushbu tadqiqotda tarixiy va adabiy tahlil usullari qo‘llanilgan. Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

Tarixiy-analitik yondashuv – “Boburnoma” asarining yaratilish davri, muallifning hayoti va ijtimoiy muhitni inobatga olgan holda uning badiiy tasvir usullarini o’rganish.

Adabiy-estetik tahlil – Boburning badiiy ifoda vositalari, tasviriylar san’at unsurlari, metafora, tashbeh va boshqa poetik elementlarni tahlil qilish.

Komparativ yondashuv – Boburning ijodi boshqa tarixiy-biografik asarlar bilan solishtirib, uning adabiy xususiyatlarini aniqlash.

Semantik tahlil – “Boburnoma”dagi asosiy g’oya va ma’nolarni tushunish, Boburning badiiy tasvirlari va til uslublarini o’rganish.

Tadqiqot davomida “Boburnoma”ning turli nashrlari, tarjimalari va zamonaviy adabiy tadqiqotlardan foydalanilib, Boburning badiiy uslubi va ijodiy yondashuvi keng qamrovda o’rganiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O’zbek klassik adabiyotining XV asr oxiri va XVI asr boshlarida yashab, ijod etgan mashhur namoyandalaridan biri – Zahiriddin Muhammad Bobur murakkab va qisqa hayoti (1483-1530) davomida bir qator muhim asarlar yaratgan. Biroq, uning barcha ijodi bizgacha to’liq yetib kelmagan.

Hozirgi kungacha ilmiy xazina tarkibiga qo’shilgan Bobur asarlari orasida to’liq bo’limgan bir devoni, islom dini asoslarini bayon etuvchi “Mubayyin” nomli she’riy risola, tasavvufga oid kichik hajmdagi “Volidiya” asarining nazmiy tarjimasi, Bobur tomonidan yaratilgan va “Xatti Boburiy” nomi bilan mashhur bo’lgan alifbo jadvali hamda tarixiy va adabiy jihatdan muhim bo’lgan “Boburnoma” asari mavjud.

Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat yirik shoir va yozuvchi, balki keng bilim doirasiga ega, davlat arbobi va mohir sarkarda edi. Uning ijodiy merosida o’zbek nasrinining rivojida muhim bosqich sifatida tanilgan “Boburnoma” alohida o’rin tutadi. Ushbu asar XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi O’rta Osiyo, Afg’oniston va Hindistonning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, flora va faunasi, xalqining hayot tarzi va tiliga oid qimmatli ma’lumotlarni o’z ichiga olgan. Shuningdek, Boburning ta’lim va tarbiyaga oid qarashlari ham mazkur asarda aks etgan.

Boburning shaxsiyati o’zi ko’p qirrali bo’lib, uning hayoti va faoliyati bugungi kunda muhim o’rnak sifatida xizmat qilmoqda. Bobur umr bo’yi bobosi Amir Temur sultanatini qayta tiklashni maqsad qilib, o’zining ko’plab shaxsiy istak va ehtiyojlaridan voz kechgan holda shu yo’lda astoydil harakat qilgan. Eng yaqin qarindoshlarining fitnalari va xiyonatlarini kechirgani, dushmanlari bilan sulhga borishga tayyorligi, hatto o’zining suyukli egachisi Xonzodabegimni Shayboniyxon bilan nikohlashga rozi bo’lgani Boburning davlat manfaatlarini yuqori qo’yanidan dalolatdir. U hukmronligi davomida turli millat va dinga mansub xalqlar o’rtasida diniy va ijtimoiy ziddiyatlarni ahillik va o’zaro tushunish bilan hal qilishga intilib, bag’rikenglikka asoslangan siyosat olib borgan.[2]

Amerikalik tadqiqotchi Berk Boburning davlat boshqaruvidagi xizmatlari va shaxsiy fazilatlarini qisqacha, ammo aniq ifodalab, Boburning hukmdorlik usuli haqida shunday yozadi: “Boburshohga ko‘ra, fotihlik va hukmdorlikda yuz ming usul qo‘llanilishi mumkin, lekin bosib olingan yerlarni talon-taroj qilishga aslo yo‘l qo‘ymasdi”. Bobur o‘z asarida “Men bor haqiqatni yozdim”, deb ta’kidlaydi va omadsizlikka olib kelgan xatolarini ham yashirmaydi.

Bobur o‘zining “Vaqoe” nomli asarida turli o‘lkalarning tabiatini, tog‘lari va daryolari, xalqlari, ularning tarixi, etnografiyasi, tili, adabiyoti, hayot tarzi va dunyoqarashi haqida juda keng ma’lumotlar to‘plagan. Shuningdek, u o‘sha hududlardagi o‘simplik va hayvonot dunyosi kabi ko‘plab sohalarga oid ma’lumotlarni bayon etgan bo‘lib, bu bilimlarning aksariyati bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda.[3]

Filologiya nuqtayi nazaridan olib qaraganda, Bobur o‘z memuarida tilshunoslik bilan bog‘liq muhim kuzatishlarni yozib qoldirgan. Masalan, u o‘z asarida turli so‘z va atamalar kelib chiqishiga oid farazlarni keltirgan. Navoiy haqida esa juda qisqa, ammo mazmun jihatidan nihoyatda qimmatli ma’lumotlarni taqdim etgan. Boburning “turk tilida she‘r aytgan hech kim undan ko‘proq va chiroyli yozmagan” degan bahosi bugungi kunga kelib ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Buyuk shoir va davlat arbobi sifatida Bobur bu asarni o‘z hayotining tarixiy yodgorligi hamda kelajak avlodlar uchun nasihat sifatida yozgan. Shu bilan birga, asar tarixiy hodisalarga baho berish, ularning sabab va oqibatlarini tushunish nuqtayi nazaridan ham tengsiz ahamiyatga ega. Asar yakunida u quyidagi baytlarni yozadi:

Bu olam aro ajab alamlar ko‘rdum,
Olam elidin turfa sitamlar ko‘rdum.
Har kim bu “Vaqoe”ni o‘qur,
Bilgaykim, Ne ranju ne mehnatu Ne g’animlar ko‘rdum.

Mumtoz adabiyot namunalarining ta’siri faqat o‘z davriga emas, balki kelajak avlodlarga ham yetib boradi. Biroq, bu kabi asarlar doimo keng kitobxonlar auditoriyasini tezda topavermaydi. Ayniqsa, boshqa tillarga tarjima qilinganda asar matnidagi dard va ma’noni to‘liq anglamaslik, shoirning ijodini to‘laqonli tushunish imkoniyatini pasaytirishi mumkin. Ko‘plab hollarda noto‘g‘ri tarjimalar tufayli Boburning ichki kechinmalari yetarlicha aks etmaydi. Masalan, u quyidagi g‘azalida chuqr izardobini bayon qilgan:

Kim ko‘ribdur, ey ko‘ngul, aqli jahondin yaxshilig‘,
Kimki ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma andin yaxshilig‘.

Ko‘pgina tarjimalarda ushbu misralar “jahon ahlidan yaxshilik kutish behuda” degan soddalashtirilgan shaklda berilgan. Aslida esa, ushbu baytning chuqr ma’nosи “agar jahonda undan yaxshi odam bo‘lmasa ham, hattoki o‘sha kishidan ham yaxshilik

kutish kerak emas” degan fikrni bildiradi. Bu esa Boburning iztirobini to‘liqroq anglash imkonini beradi.

Bobur o‘zbek adabiyotida ruboiy janrining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shtgan ijodkordir. Uning devonida ikki yuzga yaqin ruboiy o‘rin olgan bo‘lib, ularning bir qismi an’anaviy ravishda yor vasfiga bag‘ishlangan, boshqalari esa kundalik hayot voqealaridan ilhomlangan. Biroq, barchasida Boburning so‘z mahorati, badiiy san’atlari va poetik jozibasi yaqqol namoyon bo‘ladi:

Bobur, necha bu dahr meni zor aylar,
Sabrimni kamu g‘amimni bisyor aylar,
To dahrdurur, budur aning rasmikim,
Ayrib kishini azizidin, hor aylar.

Boburning uslubida so‘z tanlash va uni o‘rinli qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. U o‘z asarlarida so‘z va iboralarni takrorlamaslikka harakat qiladi. Masalan, “ko‘p” so‘zining turli sinonimlari sifatida besh, behad, bisyor, bebadal, bepoyon, vafir, ziyod, mabzul, mufrid, pur, cho‘x, g‘alaba va boshqa ko‘plab shakklardan foydalanadi. Bu esa uning til boyligi va badiiy mahoratini yana bir bor tasdiqlaydi.

Ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan bu kabi so‘z va iboralar xalqimizning bebahoh mulkidir. Bugungi kunda lug‘at tarkibiga qayta kirib kelayotgan ko‘plab tarixiy so‘z va iboralar Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Ogahiy kabi buyuk allomalarimizning asarlarida nozik did bilan ishlatilgan va mumtoz adabiyotimizning shon-shuhratini oshirgan.[4]

Garchi ba’zi qadimiyo so‘zlar “eskirgan” deb hisoblansa ham, ularning ko‘philigi hanuz hayotiyligini saqlab qolgan. Aksincha, ular yangi ma’nolar kasb etib, zamonaviy tilimizda qayta jonlanmoqda. Shuning uchun ham xalqimizni ularni tushunish darajasiga yetkazish, ularning izoh va sharhlarini taqdim etish muhimdir.

Boburning ma’noga boy g‘azallari hamda “Vaqoe” singari oliy darajadagi asarlarini xorijiy tillarga mukammal tarjima qilish uchun, avvalo, ularni chuqr tushunish zarur. Hali ham chet ellik tarjimonlar ushbu asarlarni asl ruhini to‘liq anglamasdan, so‘zma-so‘z tarjima qilishga urinishmoqda. Shu sababli, Bobur ijodining jahon miqyosida to‘liq va haqqoniylarini tanilishi uchun uning asarlarini har tomonlama chuqr tahlil qilish hamda sifatli tarjimalar yaratish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari nafaqat tarixiy-biografik yodgorlik, balki badiiy jihatdan yuksak darajadagi adabiy asar sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot doirasida Boburning badiiy tasvir usullari, adabiy-estetik qarashlari va tasviriy san’at elementlaridan foydalanish uslubi tahlil qilindi.

1. Boburning badiiy tasvir uslubi[5]

“Boburnoma” asarida Bobur voqeа va hodisalarni realistik tasvirlash bilan birga, ularni badiiy obrazlar orqali yanada jonlantirib beradi. Jumladan, tabiat tasvirlarida u tashbeh va metaforalardan keng foydalanadi. Masalan, Hindiston tabiatini tasvirlar

ekan, u daraxtlar, gullar va daryolarni shunchaki tavsiflash bilan cheklanmay, ularga o‘ziga xos badiiy ruh bag‘ishlaydi. Bu esa asarning adabiy-estetik qimmatini oshiradi.

2. “Boburnoma”da she’riy elementlar va adabiy san’atlar

Bobur o‘z asarida she’riyatdan ham faol foydalanadi. U ba’zan tarixiy voqealarni yoritish jarayonida o‘zining g‘azal va ruboiyalaridan parchalar keltiradi, bu esa asarga hissiy boylik bag‘ishlaydi. Uning she’rlari nafaqat shaxsiy kechinmalarni aks ettiradi, balki tarixiy hodisalar bilan bog‘liq ma’nolarni ham ochib beradi.

Shuningdek, Boburning tasviriy san’at uslublaridan mohirona foydalanishi uning ijodiy tafakkurining o‘ziga xosligini namoyish etadi. Asarda ko‘p uchraydigan tashbeh, metafora, ta’rifi baland so‘zlar (mubolag‘a), parallelizm kabi badiiy vositalar uning nafaqat tarixchi, balki san’atkor shaxs sifatida ham o‘z o‘rniga ega ekanini ko‘rsatadi.

3. “Boburnoma”da tarixiy voqealarning badiiy aks ettirilishi

Boburning tarixiy voqealarni yoritish uslubi ham diqqatga sazovordir. U voqealarni shunchaki hujjatlashtirish bilan kifoyalanmay, ularga o‘z shaxsiy munosabatini bildiradi va o‘z his-tuyg‘ularini ham aks ettiradi. Bu esa asarni quruq tarixiy ma’lumotlardan iborat bo‘lgan oddiy xronikalardan ajratib turadi. Bobur jang maydonlarini, qahramonlarni va hatto mag‘lubiyatlarini ham samimiylarini haqqoniy tasvirlaydi. Uning ichki kechinmalari asarni yanada ta’sirchan qiladi.

4. Boburning adabiy-estetik qarashlari

Bobur nafaqat hukmdor, balki iste’dodli shoir va adabiyotshunos ham edi. Uning adabiy-estetik qarashlari “Boburnoma”da yaqqol namoyon bo‘ladi. U nafaqat o‘z ijodiy faoliyatini tasvirlaydi, balki boshqa shoir va yozuvchilarining ijodiga ham baho beradi. Masalan, u Navoiy va boshqa ijodkorlarni yuksak qadrlaganini ochiq aytadi. Boburning badiiy didi yuqori bo‘lib, u she’riyatning ichki falsafasini yaxshi tushungan va o‘zining asarlarida bu tajribadan unumli foydalangan.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:[6]

“Boburnoma” nafaqat tarixiy asar, balki badiiy jihatdan mukammal yozilgan adabiy yodgorlikdir.

Bobur o‘z asarida realistik tasvir va badiiy tasvir usullarini uyg‘unlashtirgan.

Asarda she’riy elementlar, tasviriy san’at vositalari va adabiy uslublar keng qo‘llangan.

Boburning adabiy-estetik qarashlari uning san’at va ijodga bo‘lgan yuksak hurmatini aks ettiradi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, “Boburnoma” nafaqat tarixiy-biografik manba, balki o‘zbek va jahon adabiyotida muhim o‘rin egallagan badiiy asar hamdir.

“Boburnoma” qomusiy asar sifatida keng qamrovli ma’lumotlarni taqdim etib, o‘sha davr hayotini jonli va sodda tilda tasvirlaydi. Uning ichida xalq maqollari va hikmatli so‘zlar keng o‘rin olgan bo‘lib, adabiyotshunos V. Zohidov ta’kidlaganidek, Bobur bunday iboralarni muvaffaqiyatli tanlab, ularni predmet va muhim ijtimoiy

masalalarga bog'lay olgan. "Boburnoma" faqat tarixiy faktlarni sanash bilan cheklanmasdan, voqealar, jangu jadallar va yurishlarni jonli tilda bayon qilib, o'sha davrni yaqqol tasvirlaydi. Shu jihatdan, asar o'zbek nasrining yorqin namunalaridan biri hisoblanadi.

Ingliz tarixchisi Elfiniston "Boburnoma"ni tarixiy yodgorlik sifatida yuqori baholab, unda Boburning zamondoshlari qiyofasi, urf-odatlari va intilishlari aniq va yorqin tasvirlanganligini qayd etadi. Bobur asarda O'rta Osiyo, Xuroson va Hindiston geografiyasi, hayvonot va o'simlik dunyosi haqida boy ma'lumotlar keltiradi. Hind shoiri Mulk Roj Anandning "Boburnoma bizning ham merosimizdir" degan so'zleri bu asarning Hindistonda ham qadrli ekanini tasdiqlaydi.[7]

"Boburnoma" XVI asrdayoq fors tiliga tarjima qilinib, sharq mamlakatlariga tarqalgan va fors adabiyoti uchun yangi qadam sifatida e'tirof etilgan. Asar o'zining jonli va sodda uslubi bilan keyingi tarixiy memuarlarning rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Bobur yaratgan "Boburnoma" tarixiy yodgorlik sifatida ham, keng qamrovli adabiy manba sifatida ham yuqori baholanib, unda ko'plab tarixiy shaxslar, shoirlar, san'at ahillari, shoh va shahzodalar, amir va beklarning faoliyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kishilik tarixida shaxsiy imkoniyat va iqtidorlari bo'yicha kam uchraydigan siymlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. Shu ma'noda, Bobur buyuk podshoh, shoir, adabiyotshunos, etnograf va hayvonot hamda o'simliklar olamini chuqur bilgan inson sifatida o'z davrining ko'p qirrali yodgorliklarini yaratgan shaxs sanaladi.[8]

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari nafaqat tarixiy-biografik manba, balki yuksak badiiy qiymatga ega bo'lgan adabiy yodgorlik sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot davomida aniqlanganidek, Bobur o'z asarida realistik tasvir va badiiy ifoda vositalarini mahorat bilan uyg'unlashtirgan. Asarda tarixiy voqealar, tabiat manzaralari, insoniy kechinmalar va shaxsiy hayotiy tajribalar badiiy jihatdan yuksak darajada tasvirlangan.[9]

Boburning badiiy tasvir uslubi uning ijodiy salohiyati va adabiy-estetik qarashlarini yaqqol namoyon qiladi. "Boburnoma"da she'riy elementlar, metafora, tashbeh va tasviriy san'at unsurlarining ko'pligi asarning adabiy qimmatini oshiradi. Bundan tashqari, Bobur faqat o'z hayoti va tarixiy voqealarni yoritish bilan cheklanmay, san'at va ijodga bo'lgan qarashlarini ham bayon etadi. Bu esa uning nafaqat iste'dodli tarixchi, balki yuksak badiiy tafakkur sohibi ekanini ham ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, "Boburnoma"ni o'rganish va uning badiiy jihatlarini tahlil qilish o'zbek va jahon adabiyotshunosligida dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu asar nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlardagi adabiyot va madaniyat taraqqiyotiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, Boburning adabiy merosini yanada chuqur tadqiq etish, uning badiiy uslublarini kengroq o'rganish hamda

boshqa adabiy yodgorliklar bilan solishtirish muhim ilmiy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.[10]

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Boburnoma” nafaqat beba ho tarixiy hujjat, balki favqulotda yetakchi, shoir va alloma Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti, tafakkuri va qadriyatlariga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan mohir adabiyot asaridir. Uning o‘zi hukmronlik qilgan mamlakatlarning geografiyasi, jamiyati, madaniyati va kundalik hayotini hujjatlashtirishga bo‘lgan sadoqati uning chuqur mas’uliyat hissini, bilim va haqiqatga bo‘lgan hurmatini namoyon etadi. Bobur “Boburnoma” orqali bag‘rikenglik, birdamlik va axloqiy boshqaruvga nisbatan ilg‘or qarashlarini namoyon etadi, bu esa uni o‘z davrida ham, kelajak avlodlar uchun ham nodir va hurmatli shaxsga aylantiradi. Uning she’riy ifoda, madaniy tushuncha va tarixiy tafsilotlarni uyg‘unlashtira olishi “Boburnoma”ni o‘zbek tili va madaniyatining boyligini namoyish etuvchi, butun dunyo o‘quvchilariniadolat, matonat va insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlar bilan ilhomlantiradigan abadiy manbaga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
2. Ahmedov Bo’ribboy. O’zbekiston tarixi manbalari. T.: "O’qituvchi".1991.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent."O’zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.
4. Avloniy A.Toshkent tongi . T.. 1979. 373-bet
5. Hoshimov K.va b. Pedagogika tarixi.Toshkent, “O’zbekiston”, 2006.
6. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnomma. -T.:1960;
7. Azimdjanova S. Indiyskiy divan Babura. T.: Fan, 1966.
8. X.Nazarova."Boburnoma" tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
9. Stebleva I.V. Semantika gazeley Babura. — M.: 1983.
10. H.Qudratullaev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;

To‘rayeva Nafosat G‘afriiddin qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 2- kurs magistranti

nafosatturaeva77@gmail.com

+998934330510

Qadim Sharqda Yusuf va uning sevgilisi Zulayho haqidagi qissalar ildizi milloddan avvalgi asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu xalq og‘zaki ijodi namunalarini keyinchalik diniy kitoblardan joy oladi. Dastlab, islomgacha bo‘lgan diniy kitoblarda zikr etiluvchi Ya’qub payg‘ambar va uning o‘g‘illari haqidagi kalom keyinchalik islom dinining muqaddas kitobi bo‘lmish Qur’oni karimda maxsus sura tarzida nozil bo‘ladi. Bu afsonayu rivoyatlar diniy kitoblarda qolib ketmadi. Tavrot va Injil bu qissaning G‘arbda, Qur’oni karim esa Sharqda keng tarqalishiga zamin yaratdi. Payg‘ambarlar hayoti, ularning Alloh yo‘lidagi mardonavor kurashlari hamma zamonlarda ham kishilarni o‘ziga qiziqtirib kelgan. Ilohiy va muqaddas kitoblardan dunyoviy adabiyot sahnlariga chiqa olgan hazrati Yusuf qissasi bu fikrning yorqin dalilidir. Hazrati Yusufning o‘z og‘alaridan jabr-sitam ko‘rishi, Zulayxoning hiylasi bilan qirq yil bandi zindoniy bo‘lib, mashaqqat va kulfatlar tortishi, halollik, poklik yo‘lida sobit turishi chin musulmonlik namunasidir. Shu sababdan ham, Yusuf o‘zini xorliklarga giriftor qilgan akalariga yomonlikni ravo ko‘rmaydi, ularni kechiradi, birovning hasmi bo‘lgan Zulayxoga ko‘z olaytirmaydi, muhabbatini sezdirmaslikka, o‘zini tiyishga buyuk insoniy kuch topa oladi. Shubhasiz, Yusuf chin musulmoniy fazilatlarga ega shaxsdir.

Yusuf haqidagi afsonaning ilk bor badiiy adabiyotga kirishi, Yusufga beqaror oshiq bo‘lgan Potifarning xotini Zulayxo nomi bilan asarning markaziy qahramonlarining biriga aylanishi buyuk fors-tojik shoiri Firdavsiy nomi bilan bog‘liqdir. Shoир, tarixchi Ahmad ibn Umar Nizomiy Aruziy Samarqandiy 1156-1157 yillarda yaratilgan “Majma‘ un-navodir” (“Chahor maqola”) asarida shoh Mahmud g‘azabidan qochgan Firdavsiyning Iroqqa borgani, ma’jusiylarni kuylovchi asar yaratganiga tavba-tazarru qilgani va Qur’on mavzularidan Yusuf afsonasi asosida “Yusuf va Zulayho” dostonini yozganini xabar qiladi. Aruziy Samarqandiyga suyanib adabiyotshunos olimlar, shu jumladan Navoiy ham “Yusuf va Zulayho” dostonining dastlabki muallifi Firdavsiy deb hisoblaydilar¹. Lekin zamonamizdagи olimlarning ilmiy tadqiqotlariga ko‘ra Yusuf va Zulayho mavzui Firdavsiydan avval fors-tojik shoirlari Abul Muayyad Balxiy (X asr) va Baxtiyoriylar tomonidan ishlangan bo‘lib, Firdavsiy

¹ Alisher Navoiy. Tarixi anbiyo va hukamo. Asarlar, 15 tom, Toshkent, 1968, 200-bet.

Muhammadiyeva F. Mirzo Olim Devonaning “Ravzai asror” asari manbalari va matniy tadqiqi. Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent. 2011-y. 18-b.

Bularning eng mo‘tabari 1615-yilda Muhammad Said binni Mirzo Ahmad Buxoriy tomonidan ko‘chirilgan nushasidir. Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni 1959-yilda nashr qilindi.

qalamiga mansub deyilgan doston XI asr fors-tojik shoiri Amoniy tomonidan yaratilgan, degan fikrga kelindi. XI asrlardan keyin Movarounnahrda ham Yusuf haqidagi qissa keng yoyildi. Shundan so'ng mahalliy shoirlar ham bu mavzuga qo'l ura boshladilar. Masalan, Shahobiddin Am'aqning (XI asr) "Yusuf va Zulayho" dostoni shunday asarlar biri sifatida maydonga kelgan. Tib ilmining sultonii. Abu Ali ibn Sino Qur'oni karim oyatlarini o'rganish paytida Yusuf surasiga ko'zi tushadi va u bundan ilhomlanib nasriy "Qissai Yusuf" asarini yaratadi. Asar ancha yilgacha ilmiy-adabiy jamoatchilikka noma'lum edi. Asar haqidagi dastlabki ma'lumot 1965-yilda S.Mirzayev tuzgan Ibn Sino asarlari bibliografik ko'rsatkichida berilgan. Abu Ali ibn Sinoning bu asari "Xutbata-t-tasliy" ("Tasalli xutbasi" duosi) nomi bilan asarlari tarkibida noma'lum qolib kelgan. Bundan avval "Salomon va Ibsol" qissasi, keyin "Yusuf qissasi" joylashgan². 1233-yilda esa shoir Ali turkiy tilda – o'g'uz tilida "Qissai Yusuf" dostonini yaratadi.

O'rta asrlarda, xususan, XIV asrda yaratilgan Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" (Qisas-ul-anbiyo) tarkibiga kiritilgan "Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom" qissasi o'zining tarovati bilan boshqa nasrda bitilgan qissalardan farqlanib turadi. Muhammad Salomiyning ham bu mavzuga murojaat etib asar yaratgani ma'lum. XIV asr oxiri XV asr boshlarida yashab ijod etgan shoir Durbekning bizga qadar yolg'iz "Yusuf va Zulayho" dostoni yetib kelgan, xolos. Shunga qaramay, "Yusuf va Zulayho" dostonining o'zi ham Durbekning iste'dodli shoir bo'lganini ko'rsatadi. Bu dostonning 5 ta qo'lyozma nushasi mavjud.

Sharq mamlakatlarida juda mashhur bo'lgan Yusuf va Zulayho haqidagi qissalarning yuzaga kelishi va takomili uzoq tarixga ega. Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan bunday rivoyatlar asta-sekin ilohiy kitoblarga kucha boshlagan. Biroq "Yusuf va Zulayxo" qissasi diniy kitoblarda qolib ketmadi. U badiiy adabiyotdan keng o'rin oldi. XIV asr o'rtalarida mashhur yahudiy shoiri Shohin Sheraziy fors-tojik tilida "Yusuf va Zulayxo" dostonini yaratadi. Sharq adabiyotidagi har bir ijodkor Yusufga murojaat qiladi, uning jamoli-yu aqlu-farosatini o'z asariga kiritib o'tadi. Jumladan Xorazmiyning "Muhabbatnoma" sida:

Eshiting ersa Yusufning jamolin,
Seni husn ichra sad chandon yaratti.
O'g'on Yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kimyosin bizga berdi,-

deyiladi. Biroq biz Durbekning qaysi doston bilan tanish ekanini bilmaymiz. U "Yusuf va Zulayxo" dostonining muqaddimasida faqat fors-tojik tilidagi nasriy bir qissani tilga oladi hamda o'z dostoni uchun shu qissani asos qilib olganini ta'kidlaydi.²

Nasr edi, bu qissa dog'i forsi,

² Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1965 y. 327-b.

Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1965 y. 327-b

Erdi anga jon ko‘zi nazzorasi.
Bor edi ko‘ngulda burundin bu azm,
Turki tili birlamu qilsam nazm.
Ushbu mahalda anga bois magar,
Bo‘ldi yana bir necha sohib nazar.
Bandag‘a dedilar, alarkim bu dam,
Bo‘lg‘il o‘sul qavlingga sobit qadam.
Qo‘yma talab ustida ta’bingni sust,
Ayla bu azmingni tamomi durust.
Qissai Yusufni tamom ayla nazm,
Turk tili birla qilib azmu jazm...

Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostoni dunyoviyashgan asar bo‘lib, u kitobxonni nafaqat payg‘ambarlar hayoti va ularning ko‘rgan-kechirganlari bilan tanishtiradi balki, XV asr O‘rta Osiyo hayoti, temuriy shahzodalar o‘zaro toj-taxt kurashi bilan ham tanishtiradi. Doston kitobxonni hayotni, uning noz-ne’matlarini sevishga, har qanday qiyinchi liklarni sabr-matonat va aql-idrok bilan yengishga undaydi. Bu jihatlari bilan “Yusuf va Zulayxo” dostoni professor Ye.E.Bertels ta’kidlaganidek, qadimgi dunyo voqealarining romantik tasviri orqali yangi tarixiy sharoitning real manzarasini chizgan uyg‘onish davridagi italyan rassomlarining asarlariga o‘xshaydi. Bir tomondan “Yusuf va Zulayho” dostonida insонning insonga bo‘lgan muhabbat, sevgisi yoritiladi. Muhabbat insondagi oliyjanob fazilatlaridan biri bo‘lib hisoblanadi³.

Yusuf va Zulayho bir-birini chin dildan samimi sevadi. Biroq, turli ixtiloflar va moneliklar natijasida oshiq va ma’shuqa uzoq yillar davomida murod-maqsadiga erisha olmaydi. oradan ancha yillar o‘tadi, ular ko‘p alam-iztiroblarga giriftor bo‘ladilar, lekin ahdu-paymonlaridan voz kechmaydilar.

Bu orada Yusuf ham, Zulayho ham qariydi, ammo ularning sevgisi qarimaydi. Bu sevgi ularga kuch-quvvat, yoshlik va go‘zallik bag‘ishlaydi. Sevishganlar sabr-matonat bilan kurashib, har qanday moneliklarni yengadilar; bu kurashda ular chiniqadilar va nihoyat, o‘z orzu-umidlariga erishadilar:

Oh, ne xushdurki chekib intizor,
Yetsa o‘z ummidina ummidvor.
Ota-onalar va o'qituvchilar doimiy ravishda yoshlarga tabiatga e'tibor bermaslik jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidladilar. Bugungi kunda "Tabiiy fanlar" ma'ruzalarida o'qituvchilarga ajdodlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalardan unumli foydalanish muhimligi haqida tushuncha berish zarur. "Tabiiy fanlar" darslarida o'qish, ona tili, matematika, tasviriy san'at fanlari bilan bir qatorda tabiat to'g'risidagi bilimlar ham keng qamrovli, o'quvchilarni qiziqtiradi. Talabalarning tabiiy fanlar haqidagi tushunchalari har bir kurs doirasida transdisiplinar aloqalar orqali yetkaziladi. Talabalarga "Tabiiy fanlar" fanidan o'rgatish uchun tabiiy ilmiy bilimlarni tanlash muayyan me'yorlarga riosa qilish kerak, degan xulosaga keldik, chunki u bilim va tabiatni to'liq idrok etishga undaydi. Ularni talabalarga tanishtirish muayyan tartib-qoidalarni qo'llash va muayyan tamoyillarga riosa qilishni talab qiladi. O'z ichiga: - o'quvchilarning yoshiga mos tabiatshunoslik bilimlari; - o'quv dasturi mazmuniga mos keladigan tabiatshunoslik bilimlari; - o'quvchilarning tanlangan o'quv materiallarini o'zlashtirishi uchun qo'shimcha vaqt talab etilmaydi; - boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bilimlar, tushunchalar va rasmlarni jalb qilish; - o'quv materiallarining ilmiy va amaliy yo'nalishiga e'tibor qaratish; - darsliklardagi tabiiy bilim va tushunchalarni mintaqaviy va umuminsoniy muammolarga moslashtirish; - aniq va tushunarli tabiatshunoslik bilimlari va illyustratsiyalar; - bilimlarni ekologik, iqtisodiy, ma'naviy va axloqiy me'yorlarga muvofiq taqdim etish; - talabalarning ilmiy mazmunni tushunishlariga yordam berish; - o'quvchilarda tabiat va uning boyliklariga ongli munosabatni tarbiyalovchi bilim va tushunchalar. "Tabiiy fanlar" ma'ruzalarida talabalar fundamental ilmiy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Tabiatshunoslik fanlarini o'qitish texnikasi tabiatshunoslik bo'yicha bolalarga yaxlit ta'lim mazmuni va usullarini kengaytiradigan o'quv intizomi sifatida faoliyat yuritayotganini ko'rsatadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda virtual o'quv platformalaridan samarali foydalanish, dasturlashtirilgan darslar va virtual ta'lim texnologiyalari orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi muhim vazifani qo'ymoqda: kompyuter texnologiyalarini, jumladan, uning tahriri dasturlari va vositalarini oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlariga keng ko'lamli integratsiyalash. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha konsorsiumni tasdiqlash to'g'risida"gi RF-5847-son qarorida "Ta'lim yo'nalishlari" bo'yicha ustuvor vazifalar, jumladan, zamonaviy tahriri ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, masofaviy ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish, raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni

takomillashtirish, individual ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish kabi vazifalar belgilab berilgan. ta’lim xizmatlari. 1 Binobarin, ta’lim taraqqiyotining hozirgi davrida texnologik resurslarsiz o’qitishni kuchaytirish mumkin emas. Zamonaviy tahririyat texnologiyasining muhim o’ziga xos xususiyati bu vositalar yordamida o’quvchilarga ma’lumot tarqatishning tezkorligidir.

Zamonaviy globallashuv sharoitida boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o’qitishda virtual o’quv platformalaridan samarali foydalanish, dasturlashtirilgan darslar va virtual ta’lim texnologiyalari orqali o’qitish usullarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ilmiy va o’quv adabiyotlari, jumladan, dissertatsiyalar tahlili boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslik fanini o’qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo’lib, muhim natijalarga erishdi. Mamlakatimizda tabiiy fanlarni o’qitish metodikasi qatoriga J.O. Tolirovaning “Biologiya o’qitishda ilmiy-metodik kompetentsiyani oshirish nazariyasi va amaliyoti” mavzusidagi ishi, A.K. Rahimovning “Innovatsion ta’lim doirasida talabalarning tabiatshunoslik nuqtai nazarini kengaytirish” tadqiqoti va M.M. Isabauevaning “5-9-sinflar uchun biologiya ta’limiga sog’lom turmush tarzi ko’nikmalarini singdirish” mavzusidagi tadqiqoti. “Yosh o’qituvchilarni elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqishga rag’batlantirish” kabi tadqiqot ishlarini ko’rib chiqing.” Ilm-fan taraqqiyoti ilmiy va texnikaviy o’sishni o’zaro axborot bilan ta’minalash va ijodiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etishni samarali boshqarishni taqozo etmoqda. uning faoliyati uchun ko’rsatmalar. Boshlang‘ich maktab o’quvchilarini ijodiy faoliyatga o’rgatish samaradorligi ko’r-ko’rona boshqaruv ko’rsatmalariga va uzluksizligiga tizimli yondashishni talab qiladi. Tabiatshunoslik fanini o’qitish metodikasi – tabiatshunoslik yo’nalishi bo’yicha o’quvchilarga yaxlit ta’lim mazmuni va metodikasini yuksaltiruvchi pedagogik fandir. U pedagogik tadqiqotlarga asoslanadi va o’qitish tizimining mazmuni va xususiyatlarini hisobga olgan holda o’z metodologiyalaridan foydalanadi. O’quvchilarga tabiat to’g’risida ma’lumot berish ularga nafaqat o’quv va amaliy izlanishlari uchun zarur bilim va ko’nikmalar beradi, balki ularning dunyoqarashi, qat’iyati, xarakteri va kognitiv rivojlanishiga ham ta’sir qiladi. Binobarin, u tabiiy fanlarni o’qitishning texnika va yondashuvlarini shakllantiradi. Ta’lim jarayoni o’zaro bog’liq bo’lgan komponentlarni o’z ichiga oladi: o’quv dasturi mazmuni, o’quv faoliyati, mavzu va ko’nikmalarni egallah. Tabiatshunoslikni o’qitish metodikasining vazifalari tabiatshunoslik fanini o’quv intizomi sifatida belgilash, pedagogik texnikani o’rganish va zarur ta’lim resurslarini yaratishni o’z ichiga oladi. Tabiatshunoslik fanini o’qitish metodikasi nafaqat o’quv jarayonini tavsiflash va tushuntirish bilan, balki o’qituvchiga ushbu mavzu bo’yicha yoshlarni samarali o’rgatish imkonini beradigan qoidalarni o’rnatish bilan ham belgilanadi. Tabiatshunoslik ta’limi metodikasi sinf ichidagi, dars davomida, sinfdan tashqari va maktab muhitidan tashqaridagi faoliyatni hisobga olgan holda o’qituvchining malakasini oshirishdan ta’lim mazmunini o’zlashtirish

natijalarigacha bo'lgan barcha o'quv jarayonlarini qamrab oladi. Pedagogik amaliyotda keng qamrovli o'qitish va natijalarni umumlashtirish orqali o'qitishning muhim shakllari aniqlanadi va takomillashtirish strategiyalari ishlab chiqiladi. Binobarin, tekshirilayotgan ob'ektlar (o'simlik va hayvonot dunyosi) bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish tushunchasiga muvofiq, uslubiy ko'rsatmalarni engillashtirish uchun muayyan tadbirlar shakllantiriladi. Tabiatshunoslikni o'qitish texnikasining maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy standartlarga mos didaktik usullar va zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalangan holda yosh avlodni fanga o'rgatish uchun jihozlashdan iborat.

Natijalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, keyingi tamoyillar boshlang'ich maktab darajasida fanni o'rgatishda samarali bo'ladi: Ilmiy ravshanlik: Materiallar to'g'ridan-to'g'ri, yoshga mos va tushunarli tarzda etkazilishi kerak. Kuzatish va eksperimental ta'lif: Bolalar atrof-muhit hodisalarini bevosita kuzatish orqali bilimga ega bo'ladilar. Ishtirok etish va mustaqil fikrlashni rag'bathlantrish: Talabalarning faol ishtiroki, so'rov va dialog orqali ko'rsatmalar. Amaliy rasmlar: Mavzular haqiqiy holatlarga tegishli bo'lishi kerak.

Muhokama. Bu tushunchalarni amaliyotga tadbiq etish o'quvchilarning tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni mustaqil izlanishga undaydi. Darslar samaradorligi yangi texnologiyalar, audiovizual vositalar, eksperimental apparatlar va o'quv jarayonida hamkorlikda ishslashdan keng foydalanish orqali oshiriladi. Pedagog innovatsiyalarni o'rganish bilan izchil shug'ullanishi, o'zining pedagogik usullarini oshirishi kerak.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga tabiiy fanlardan o'rgatish ilmiy dunyoqarashni, tanqidiy fikrlashni va atrof-muhitga ongli nuqtai nazarni tarbiyalaydi. Ta'lif jarayonida ilmiy qat'iylik, jo'shqinlik, faollik va avtonomiya qadriyatlariga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat bilim beradi, balki o'quvchining shaxs sifatida rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, N. (2018). Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi. 125-bet.
2. Abduqodirov, A. (2019). Boshlang'ich sinfda amaliy mashg'ulotlar. Samarqand: Ziyo. 98-bet.
3. Abdurahmonov, I. (2020). O'quvchilar bilan tajriba o'tkazish. Buxoro: Ilm. 76-bet.
4. Ahmadjonova, M. (2017). Interaktiv metodlar va tabiiy fanlar. Toshkent: Fan. 113-bet.

5. Baxromovna, S. U. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O 'QUVCHILARINING IQTISODIY O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTRISHNING O 'ZIGA XOSLIGI. *World scientific research journal*, 20(1), 117-122.

6. Saparova, U. B. (2023). IN ENSURING ECONOMIC GROWTH, FAMILY BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP SHAPE CONCEPTS IN THE MINDS OF READERS. *Confrencea*, 6(6), 342-347.

7. Bahromovna, S. U. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA IJODIY QOBILIYATLARINING RIVOJLANTIRISHDA DIDAKTIK USULLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(9), 77-79.

8. Saparova, U. B. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 239-244.

9. Saparova, U. B. (2024). TARBIYA FANI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA IQTISODIY TARBIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI TARIXIY MEROSINING O'RNI. **МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ**. Илимий-методикалық журнал 2024-5/2-САН

10. Saparova, U. B. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA IQTISODIY TA'LIM TUSHUNCHASINING MOHIYATI. *Modern Science and Research* 3 (1), 1-3

Fozilova Oybarchin Isroiljon qizi

(*Andijon davlat universiteti, magistrant*)

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim tizimi va ish beruvchilar o'rtasidagi aloqalarni, shuningdek, talabalar malakasini ish bozorining talablariga moslashtirish masalasini muhokama qiladi. Ish beruvchilarning ehtiyojlari va yangi texnologiyalarning rivojlanishi talabalarga yangi ko'nikmalarni o'rgatish va ularni amaliyotga jalg qilish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Ish beruvchilar talablarining zamонавиј iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar bilan qanday o'zgarishi tahlil qilinadi. Talabalar malakalarini yangilash va rivojlantirish zarurati, shuningdek, ish beruvchilarning innovatsion fikrlash, samarali muammolarni hal qilish kabi talablarining ahamiyati ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: Talabalar malakasi, ish beruvchilar talablari, ta'lim tizimi, amaliyot va stajirovka,raqamli ko'nikmalar.

Аннотация: В этой статье рассматриваются отношения между образовательной системой и работодателями, а также вопрос соответствия квалификации студентов требованиям рынка труда. Потребности работодателей и развитие новых технологий вызывают необходимость обучения студентов новым навыкам и привлечения их к практике. Проанализированы изменения в требованиях работодателей в условиях современных экономических и технологических изменений. Подчеркнута важность обновления и развития квалификации студентов, а также требований работодателей к инновационному мышлению и эффективному решению проблем.

Ключевые слова: Квалификация студентов, требования работодателей, образовательная система, практика и стажировка, цифровые навыки.

Annotation: This article discusses the relationship between the education system and employers, as well as the issue of aligning students' qualifications with the demands of the labor market. The needs of employers and the development of new technologies create the necessity for teaching students new skills and involving them in practical experiences. The article analyzes how employers' demands are changing in response to modern economic and technological shifts. It highlights the importance of updating and developing students' qualifications, as well as the significance of employers' requirements for innovative thinking and effective problem-solving.

Keywords: Student qualifications, employer demands, education system, practice and internship, digital skills.

Har bir jamiyatda iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili malakali mutaxassislar yetishtirishdir. Buning uchun ta'lim tizimi talabalarni nafaqat ilmiy bilimlar bilan, balki ish joylarida talab qilinadigan amaliy ko'nikmalar bilan ham ta'minlashi lozim. Xususan, talabalarning malakalarini ish beruvchilar talablariga moslashtirish – bu nafaqat ta'lim tizimining, balki butun jamiyatning muhim vazifalaridan biridir.

Ish beruvchilar nafaqat nazariy bilimga, balki amaliy ko'nikmaga ega, jamoada ishlay oladigan, tashabbuskor, moslashuvchan va axborot texnologiyalaridan foydalana oladigan mutaxassislarni izlaydi. Biroq, ko'plab mamlakatlar, jumladan O'zbekistonda ham, bitiruvchilarning mehnat bozoriga moslashishida muammolar mavjud. Bu esa ta'lim mazmuni va ish beruvchilar talablarini muvofiqlashtirish zaruratin keltirib chiqarmoqda.

Ish beruvchilar tomonidan bitiruvchilarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

**Amaliy
ko'nikmalar**

**Kreativ fikrlash
va muammo
yechish qobiliyati**

**Texnologik
savodxonlik**

Jamoada ishslash

**Xorijiy tillarni
bilish**

- **Amaliy ko'nikmalar:** o'qish davomida o'zlashtirilgan nazariy bilimlar real ish sharoitida qo'llanilishi zarur.
- **Kreativ fikrlash va muammo yechish qobiliyati:** standart bo'lмаган vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish.
- **Texnologik savodxonlik:** zamonaviy dasturiy ta'minot, raqamli texnologiyalarni bilish, kompyuterda ishlay olish.
- **Jamoada ishslash:** kommunikativ ko'nikmalar va jamoaviy mas'uliyat.
- **Xorijiy tillarni bilish,** ayniqsa ingliz tilini — xalqaro hamkorlik va texnik hujjatlar bilan ishlashda muhim.

Ko‘plab oliy o‘quv yurtlarida ta’lim dasturlarining yangilanishi sekin amalgam oshadi. O‘quv rejalarini ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilmagani sababli, talabalar bitiruv paytida yetarlicha amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lmaydi. Aksariyat talabalar faqat nazariy bilimlar bilan cheklanadi, bu esa ularni real ish muhitiga tayyorlamaydi. Shuningdek, talabalar o‘z yo‘nalishi bo‘yicha amaliyot o‘tash imkoniyatidan to‘liq foydalana olmaydi yoki bu jarayon yuzaki tashkil etiladi. Buning natijasida ular ish bozoriga chiqishda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi.

Talabalar malakasini ish beruvchilar talablariga moslashtirishda ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida yaqin hamkorlik aloqalari muhim rol o‘ynaydi. Bu hamkorlikning samarali bo‘lishi uchun bir nechta amallarni bajarish kerak:

❖ **Tajribali mutaxassislar bilan hamkorlik:** Ta’lim muassasalari o‘zlarining o‘qituvchilarini va murabbiylarini zamonaviy talablar asosida tayyorlashlari lozim. Bundan tashqari, ish beruvchilar o‘z mutaxassislarini o‘qituvchi sifatida jalg qilishlari, shu bilan birga talabalar uchun amaliy mashg‘ulotlar, amaliyotlar va stajirovkalar tashkil etishlari muhimdir.

❖ **Kurs va treninglar tashkil etish:** Ish beruvchilar talab qiladigan yangi ko‘nikmalarni o‘rgatish maqsadida ta’lim muassasalari tomonidan qator kurslar va treninglar tashkil etilishi zarur. Bu talabalar uchun kerakli malakalarni rivojlantirishga yordam beradi.

❖ **Rag‘batlantirish tizimi:** Yangi malakalar va ko‘nikmalarni egallashni ta’minalash uchun rag‘batlantirish tizimini joriy etish talabalar uchun qo‘srimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu ish beruvchilar uchun ham, talabalar uchun ham ma’lum darajada kafolatlangan malaka darajasini taqdim etadi.

Talabalar malakasini ish beruvchilarning talablariga moslashtirishda amaliyot va stajirovka muhim omil hisoblanadi. Ko‘plab universitetlar va ta’lim muassasalari o‘z talabalarini amaliyotga yuborish orqali ularning ish tajribasini oshirishadi. Bu talabalar uchun juda muhim, chunki ish beruvchilar ko‘pincha amaliy tajribaga ega bo‘lgan mutaxassislarini afzal ko‘rishadi. Shu bilan birga, talaba amaliyot o‘tayotgan tashkilotda ish joyi olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Hozirgi kunda texnologiyalar tez rivojlanmoqda va ish beruvchilar o‘z ishchilari tomonidan zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishni kutishadi. Buning uchun ta’lim muassasalari, talabalar raqamli texnologiyalarni, kompyuter dasturlashni, ma’lumotlar tahlilini o‘rganishni, shuningdek, sun‘iy intellekt, bulutli texnologiyalar va boshqa ilg‘or sohalarda ta’lim olishlari uchun imkoniyat yaratishlari lozim. Shu tariqa, talabalar o‘z malakalarini zamonaviy ish bozorida muvaffaqiyatli ishslash uchun tayyorlashlari mumkin.

Talabalar malakasining ish beruvchilar talablariga mosligini ta’minalash, ta’lim tizimi va ish bozorining uzviyligini ta’minalaydi. Ta’lim muassasalari va ish beruvchilar o‘rtasida samarali hamkorlik, amaliyot va stajirovkalar, yangi texnologiyalarga

moslashish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali, talabalar o‘z malakalarini ish beruvchilarning talablariga mos ravishda rivojlantiradilar. Natijada, ish bozorida yuqori malakali, zamonaviy talablar va ehtiyojlarga javob bera oladigan mutaxassislar paydo bo‘ladi, bu esa iqtisodiy rivojlanishga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchilar, ish beruvchilar va ta’lim muassasalari o‘rtasida samarali hamkorlik o‘rnatalishi, ta’lim sifatini oshirishga va ish bozorida talabga javob beradigan malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Karimov, I.A. (2019). *O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini takomillashtirish va malakali mutaxassislar tayyorlashning ahamiyati*. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
2. Shamsiyev, B. (2020). *Ta’lim va ish bozorining uzviyligi: Zamonaviy yondashuvlar*. Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Mukhamedov, D. (2021). *Ish beruvchilar talablari va talabalarning malakasini moslashtirish*. Jurnal of Higher Education, 5(2), 45-52.
4. Tursunov, A. (2018). *Zamonaviy ta’lim tizimi va raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish*. Tashkent: O‘zbekiston ta’lim akademiyasi.
5. Amina, S., & Khusanov, Z. (2022). *Innovatsion texnologiyalar va ish bozorida muvaffaqiyat*. Tashkent: Science and Innovation Publishing.
6. Zaitov, E. (2021). *Ish bozorida talab etilgan ko‘nikmalar va ta’lim tizimining moslashuvi*. Journal of Contemporary Education, 8(1), 72-80.
7. Jackson, D. (2019). *The impact of technology on workforce skills: A global perspective*. Educational Research and Development, 32(3), 18-26.

**“IJTIMOIY VA MADANIY KONTEKSTDА MAK TABGACHA TA'LIM
TIZIMLARI: O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MISOLIDA”**

*ChDPU “Maktabgacha talim metodikasi” kafedrasi magistranti
O‘rozmetova Zebo Raximbergan qizi*

Elekton pochta: urazmetova1231@gmail.com tel: +97-602-17-65

Annotatsiya: Ushbu maqola, ijtimoiy va madaniy kontekstda O'zbekiston va Finlandiya maktabgacha ta'lismiz tizimlarini solishtirishga bag'ishlangan. Maktabgacha ta'lismiz tizimlarining har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi, ta'lismiz jarayonining ijtimoiy ehtiyojlar, madaniy qadriyatlar va jamiyat tuzilishiga ta'sirini ko'rsatadi. O'zbekistonda maktabgacha ta'lismiz an'anaviy pedagogik metodlarga asoslangan bo'lib, jamiyatdagi oilaviy qadriyatlar va milliy urf-odatlar bilan chambarchas bog'liqidir. Finlandiya maktabgacha ta'limi esa bolalarning erkin rivojlanishiga, mustaqil fikrlashga va ijtimoiy ko'nikmalarga katta e'tibor qaratadi. Maqolada ikki mamlakat tizimlari o'rtaisdagi farqlar va o'xshashliklar tahlil qilinadi, shu bilan birga ta'limga jamiyat va madaniyat bilan bog'liqligi o'rganiladi. Natijada, maktabgacha ta'lismiz tizimining rivojlanishida ijtimoiy, madaniy va pedagogik yondashuvlarning ahamiyati vurg'ulanadi. Maqola, har bir mamlakatda maktabgacha ta'limga ijtimoiy va madaniy kontekstga asoslanib shakllanishining qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta'lismiz, o'zbekiston ta'lismiz, Finlandiya ta'lismiz, ijtimoiy kontekst, madaniy kontekst, pedagogik metodlar, ta'lismiz siyosati, bolalar tarbiyasi, madaniy qadriyatlar, ta'limga tenglik, ta'limga innovatsiyalar, ta'lismiz tizimlari taqqoslash.

Maktabgacha ta'lismiz, har bir jamiyatning madaniy qadriyatlarini, ijtimoiy ehtiyojlarini va tarbiyaviy analarini bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bolalar tarbiyasida muhim o'rinni tutadi. Har bir mamlakatda maktabgacha ta'lismiz o'ziga xos ijtimoiy va madaniy kontekstga asoslanadi. O'zbekiston va Finlandiya maktabgacha ta'lismiz tizimlari bu borada qiziqarli taqqoslashni taqdim etadi, chunki bu ikki mamlakatning ta'lismiz siyosati, jamiyat tuzilishi va madaniy qadriyatlarini orasida sezilarli farqlar mavjud. Ushbu maqolada, O'zbekiston va Finlandiya maktabgacha ta'lismiz tizimlarini ijtimoiy va madaniy nuqtai nazardan solishtirishga harakat qilamiz.

O'zbekiston maktabgacha ta'limi: Ijtimoiy va madaniy xususiyatlari

O'zbekistonda maktabgacha ta'lismiz so'nggi yillarda jiddiy o'zgarishlarga uchragan. Mamlakatda 2017-yilda "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va 2020-yildan boshlab maktabgacha ta'lismiz majburiy qilib belgilandi. Bu

davlatning ta'lim sohasidagi yuqori darajadagi e'tiborini va jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashishga bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi.

Ijtimoiy kontekstda, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi asosan davlat tomonidan boshqariladi. Mamlakatda maktabgacha ta'lim ko'plab oilalar uchun juda muhim ahamiyatga ega, chunki jamiyatda bolalarga bo'lgan g'amxo'rlik va tarbiya an'anaviy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek ota-onalari ko'pincha bolalarning tarbiyasini oilaviy va jamoat qadriyatlariga asoslanib olib borishadi, bu esa maktabgacha ta'limning rivojlanishiga ta'sir qiladi. Bolalarga mehr-oqibat, hurmat va o'zaro yordamni o'rgatish — bu jamiyatda eng muhim tarbiyaviy qadriyatlar hisoblanadi.

Maktabgacha ta'limda bolalar, ko'pincha o'z milliy tilida va madaniyatida o'rganadilar. O'zbekistonning milliy an'analari va urf-odatlari ta'lim jarayoniga chuqur kirib boradi. Bu, bir tomondan, bolalar uchun o'z milliy meroslarini anglash imkoniyatini yaratadi, boshqa tomondan esa, jamiyatda ta'limning sifatini oshirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shuning uchun, davlat maktabgacha ta'limda an'anaviy va zamonaviy pedagogik metodlarni uyg'unlashtirishga intilmoqda.

Finlandiya maktabgacha ta'limi: Ijtimoiy va madaniy asoslar

Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimi butun dunyo bo'ylab yuqori baholanadi. Mamlakatda ta'lim sohasidagi siyosat bolalarning erkin rivojlanishi, o'zaro hurmat va tenglikka asoslangan. Finlandyaning maktabgacha ta'lim tizimi davlat tomonidan ta'minlanadi va barcha bolalar uchun bepuldir, bu esa jamiyatning ta'limga bo'lgan e'tiborini va barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratishga bo'lgan intilishlarini ko'rsatadi.

Ijtimoiy kontekstda, Finlandiya jamiyatida bolalarning o'zini hurmat qilish, mustaqil fikrlash va jamoada ishslashga bo'lgan ehtiyojlar yuqori qadrlanadi. Maktabgacha ta'lim tizimida bolalar ko'proq o'yinlar orqali o'rganishadi. Bu, bolalarga o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini erkin ifoda etishga imkon beradi. Finlandiyada bolalar maktabgacha ta'limda o'z ehtiyojlariga moslashgan individual yondashuvni qo'llab-quvvatlashadi. Bolalarning hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi.

Finlandiyada maktabgacha ta'limning madaniy asoslari shundan iboratki, bolalar ta'limda mustaqillik va ijodiy yondashuvni rivojlantiradilar. O'qituvchilar, bolalar bilan yaqin aloqada bo'lib, ularning shaxsiy xususiyatlariga mos ravishda ta'lim jarayonini olib boradilar. Finlandiya ta'lim tizimida ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida doimiy hamkorlik mavjud bo'lib, bu bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston va Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimlari: Taqqoslash

1. Ta'limga yondashuv:

- O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi an'anaviy tarzda rivojlanib, milliy qadriyatlar va oilaviy tarbiyani o'zida aks ettiradi. Bu tizimda davlatning ta'limga

e'tibori sezilarli, lekin ko'pincha maktabgacha ta'limga kirish imkoniyatlari cheklangan, ayniqsa qishloq joylarida.

- Finlandiyada ta'lim tizimi bolalarning erkin rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Bolalar o'z hissiyotlari va fikrlarini ifoda etishlari uchun imkoniyatlarga ega bo'lib, ta'lim tizimi ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarga katta e'tibor qaratadi. Maktabgacha ta'lim barcha bolalar uchun teng imkoniyatlar yaratadi.

2. Pedagogik metodlar:

- O'zbekistonda maktabgacha ta'limda pedagogik metodlar an'anaviy bo'lib, o'qituvchilar va tarbiyachilar ko'proq rasmiy metodlarni qo'llaydilar. Bolalar o'yin orqali o'rganishadi, lekin ta'lim jarayonida ko'proq tashkiliy va pedagogik yondashuvlar mavjud.

- Finlandiyada ta'lim o'yin va faol ishtirokni o'z ichiga olgan metodologiyalarni qo'llaydi. Bolalar ko'proq o'zaro muloqot va ijodiy faoliyatlar orqali o'rganishadi, bu esa ularning ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

3. Ijtimoiy va madaniy farqlar:

- O'zbekistonda ta'lim jamiyatdagi an'anaviy qadriyatlar va madaniyatga asoslanadi. Tarbiyaviy jarayon ko'pincha oilaviy va jamoat qadriyatlariga bog'liq bo'lib, bolalarga hurmat, mehr-muhabbat va ahloqiy tarbiya o'rgatiladi.

- Finlandiyada ta'lim tizimi bolalarning o'z fikrini erkin ifoda etishiga va mustaqil rivojlanishiga yordam beradi. Finlandiya jamiyatida bolalarga bo'lgan hurmat va tenglik qadrlanadi, bu esa ta'lim tizimida aks etadi.

Xulosa: O'zbekiston va Finlandiya maktabgacha ta'lim tizimlari o'rtasida ko'plab ijtimoiy va madaniy farqlar mavjud. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi an'anaviy qadriyatlar va jamiyat ehtiyojlariga asoslangan bo'lsa, Finlandiya tizimi bolalarning erkin rivojlanishiga va teng imkoniyatlarga katta e'tibor beradi. Har ikkala mamlakatda ham ta'lim bolalar tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lib, har bir tizim o'zining ijtimoiy va madaniy sharoitlariga moslashgan. Maktabgacha ta'limning kelajagi, albatta, bolalarning individual rivojlanishiga, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni uyg'unlashtirishga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Muqaddamxon Saidrasulova – O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktaranti. “So'nggi vaqtarda og'izdan tushmayotgan Finlandiya ta'limining muvaffaqiyat siri nimada?”, “Gazeta.uz” 2022 yil 28-oktabr.

1. Komil Jalilov – journalist. “Finlandiya tajribasi O'zbekistonning ta'lim muommolarini hal qila oladimi?”, “Gazeta.uz” 2022 yil 8-noyabr.

2. <https://interjournal.uz>
3. <https://www.xabar.uz>

Мамирова Дилноза Улугбековна

Самарканда шаҳар 37-мактаб география укуитувчиси

География — бу факат хариталар ва давлатлар рўйхати эмас. У инсонни оламдаги турфа ҳил табиий ҳодисалар, ажойиб жойлар ва ҳайратланарли реал фактлар билан таништиради. Сиз билганмисизки, Ерда шундай жойлар борки, уларда кеча ва қун бир вақтда юз бериши, ёки сув денгиздан баландда жойлашган бўлиши мумкин? Ушбу мақолада сиз дунёдаги энг қизиқарли ва ноодатий географик маълумотлар билан танишасиз.

Антарктида — музликлар қиррасидаги материк

Антарктида дунёдаги энг совук, энг шамолли ва энг қуруқ материк ҳисобланади. Бу ерда биронта ҳам доимий яшовчи аҳоли йўқ. Энг қизифи, бу материкда ҳайвонот дунёси асосан сувда яшовчилардан — тюлень, пингвин ва китлардан иборат.

Африка — дунёдаги энг кўп давлатли материк

Африкада 54 та мустақил давлат бор. Шунингдек, дунёдаги энг узун дарё — Нил ҳам шу материкда жойлашган. Танзанияда жойлашган Килиманжаро — Африканинг энг баланд нуқтаси бўлиб, унинг теги доимо қор билан қопланган.

Австралия — энг кичик материк ва энг катта орол

Австралия ҳам материк, ҳам орол ҳисобланади. Унда фақат шу ерга хос бўлган жонзотлар — кенгуру ва коалалар яшайди. Шунингдек, у ерда бутунлай чўл бўлган 'Аутбэк' ҳудудлари ҳам бор.

Хитой — энг кўп аҳолисига эга давлат

Хитой дунёдаги энг кўп аҳолига эга мамлакат бўлиб, унда 1,4 миллиарддан ортиқ одам яшайди. Шунингдек, у ердаги "Великая Китайская стена" — инсоният томонидан қурилган энг узун иншоот ҳисобланади.

Россия — энг катта ҳудудга эга давлат

Россия майдони бўйича дунёдаги энг катта мамлакат бўлиб, у 11 та вақт камари орқали узайиб кетган. Қиши ойларида баъзи шаҳарларда ҳаво ҳарорати -50°C гача тушиши мумкин.

АҚШ — географик хилма-хиллик ватани

АҚШ турли табиий зоналарга эга: Аризонадаги чўллардан тортиб, Аляскадаги музликлар ва Гавайидаги вулқонларгача. АҚШда жойлашган Гранд-Каньон — дунёдаги энг машҳур ва ҳайратланарли даралардан бири ҳисобланади.

Япония — вулқонлар ва зилзилалар мамлакати

Японияда 100 дан ортиқ фаол вулқонлар бор. Шу билан бирга, табиат ва технология ажойиб уйғунликда яшайди. Фужияма тогининг чўққиси мамлакатнинг миллий рамзига айланган.

Бразилия — Амазонка ўрмонлари юрти

Бразилияда дунёдаги энг йирик тропик ўрмонлар — Амазонка жойлашган. У ерда миллионлаб турдаги ўсимлик ва ҳайвонлар яшайды. Рио-де-Жанейродаги Исо ҳайкали ҳам дунёнинг янги етти мўъжизасидан бири саналади.

Норвегия — фьордлар мамлакати

Норвегияда табиатга хос гўзалликлардан бири — фьордлар. Бу музликлар томонидан ҳосил қилинган чуқур денгиз кўрфазлари. Улар табиат ва туризм ишқибозлари учун жуда жозибадир.

Боливия — ойга ўхшаш ландшафтлар

Боливиядаги Салар де Уюни — дунёдаги энг катта тузли чўл ҳисобланади. Ёмғир мавсумида бу ер осмонни акс эттирадиган 'гигант ойна'га айланади.

Хулоса

География фани бизни нафақат харита ва тоғлар, балки бутун оламдаги табиий гўзалликлар, ҳалқлар маданияти ва ажойиб ҳодисалар билан таништиради. Дунёдаги ҳар бир давлат, ҳар бир материк ўзининг бетакрор хусусиятлари ва сир-асрорлари билан инсонни ҳайратга солади. Кизиқувчанлик ва билимга чанқоқлик бизни янги маълумотларни ўрганишга ундейди.

Сиз учун саволлар

1. Қайси материкда энг кўп давлат бор?
2. Дунёдаги энг катта тузли чўл қаерда жойлашган?
3. Фужияма тогини қаерда кўриш мумкин?
4. Қайси давлатда энг кўп аҳоли яшайди?
5. Сизнингча, қайси давлат ёки табиий ҳодиса энг қизиқарли?

АДАБИЁТЛАР

1. <https://www.nationalgeographic.com>
2. <https://www.britannica.com>
3. География дарсликлари (7-9 синфлар учун)
4. <https://earth.google.com>
5. Википедия — География бўлими

**AKTIVLANGAN KO'MIR ISHTIROKIDA XLORID KISLOTANING
ADSORBSIYALANISHI VA UNING TIBBIY BIOLOGIK AHAMIYATI.**

Narzullayeva Aziza Nodir qizi

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti

pediatriya fakul'teti 125 guruh talabasi

Bahriiddinov Tolibjon Shamsiddin o'g'li

Toshkent stomatologiya instituti davolash fakul'teti 503 guruh talabasi

Ilmiy rahbar. Kiyamova Dilfuza Shrifovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti tibbiy kimyo kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Adsorbsiya – bu suyuq yoki qattiq modda sirtida boshqa modda molekulalari, atomlari yoki ionlarining yig'ilishidir.O'z sirtiga yutuvchi modda sorbent (adsorbent), yutilgan modda esa – sorbat (adsorbtiv) – deyiladi.Tabiyy adsorbentlarga ko'mir, qatiq, qotgan non, tvorog, sut, piyoz, tabiiy tolalar misol bo'ladi.Tibbiyotda organizmdan toksik moddalar, gazlarni, toshqollarni chiqarib yuborish uchun adsorbent sifatida aktivlangan ko'mir (karbojen) keng qo'llaniladi.

Kalitli so'zlar: Adsorbsiya, sorbent, aktivlangan ko'mir, desorbsiya, me'da shirasi, Xlorid kislota.

Kirish: G'ovak adsorbentlarda, xususan, aktivlangan ko'mirda adsorbsiya uning ichki yuzasida sodir bo'ladi. Sorbat va sorbentlarning o'zaro ta'sirlashuvi sorbat konsentratsiyasiga bevosita bog'liq. Gazlar uchun esa bosim qiymatiga bog'liq bo'ladi. Agar konsentratsiya kichik qiymatlarda bo'lsa, kimyoviy, yuqori qiymatlarda esa fizik omillar ta'sirida adsorbsiya amalga oshadi. Haroratning ortishi yoki kamayishi yuqoridagi omillarga tasir etishi natijasida adsorbsiyani kuchaytirishi yoki sussaytirishi mumkin. Ya'ni harorat ortganda fizik adsorbsiyani kamaytiradi, chunki, bu jarayonda adsorbsion qavatdagi molekulalarning harakati kuchayadi. Natijada adsorbsiyalangan molekulalarning orientatsiyasi buzilib, desorbsiya kuchayadi. (Desorbsiya – sorbent sirtida yutilgan modda molekulalarining avvalgi xossasini saqlagan holda ajralib chiqshidir). Shuningdek haroratning ko'tarilishi, adsorbsiyalangan zarralarning energiyasini oshirishi natijasida, kimyoviy omillar kuchayadi va buning oqibatida adsorbsiyani tezlashishiga olib keladi. Bundan ko'rinish turibdiki, harorat ortishi fizik omillarni sussaytirib, adsorbsiyani sekinlashtirsa, kimyoviy omillarni kuchaytirib, adsorbsiyani faollashtiradi. Haroratning pasayishi ko'pchilik gazlarning adsorbsiyasini kuchaytiradi. Adsorbsiya tezligi sorbentning solishtirma sirt yuzasiga bog'liq bo'lib, qancha katta bo'lsa, jarayon shuncha tez boradi.

Aktivlangan ko'mir faol antidot hisoblanib oziq-ovqat bilan zaharlanishda, og'ir metallarning tuzlari shuningdek har xil infektion kasalliklarda samarli dori vositasi

sifatida qo'llaniladi. Hozirgi kunda kuchli bakteridsidlar hamda antibiotiklarning ishlab chiqarilishi natijasida aktivlangan ko'mirning qo'llanilishini kamaytirdi. Ammo ko'pgina jarayonlarda hozirgacha ishlatiladi. Chunki bu usul oson va iqtisodiy jihatdan qulay. Organizmda toksik zaharlanish bo'lganda, tana massasini har bir kg ga 0.05 gr aktivlangan ko'mir beriladi. Sorbent organizmda so'rilmaydi balki organizmda sorbat bilan o'zaro ta'sirlashib, 24-soat ichida tanadan chiqib ketadi. Adsorbent zaharlanish bo'lganda oshqozonni yuvishdan oldin va yuvilgandan so'ng, qabul qilinadi. Oshqozon shirasi tarkibidagi xlorid kislota 0.3 – 0.5% yoki 0.16 mol/l bo'lib, oshqozon kislotali muhitini taminalydi. Ovqat massalarini hazm bo'lismida ishtirok etadi. Oshqozon shirasining tarkibi suv (995 g/l), xloridlar – (5-6 g/l),

Fosfatlar (10-60 mg/l), sulfatlar (10 mg/l), gidrokarbonatlar (0-1.2 g/l), natriy, kaliy, kalsiy, ammiak, magniy (20-80 g/l) dan tashkil topgan. Oshqozon shirasining asosiy anorganik qismini erkin va oqsillar bilan bog'langan holdagi xlorid kislotalar tashkil etadi. Me'da shilliq qavatidagi pariental hujayralar tomonidan xlorid kislota ishlab chiqariladi. Katta yoshli odamlar organizmida bir kecha kunduzda 1.5-2 l me'da shirasi ishlab chiqariladi. Me'da shirasi kislotali muhitga ($pH=1.5-1.8$) ega. Lekin oshqozonda kechadigan jarayonlar natijasida bu ko'rsatkich o'zgarib turadi. Masalan: Pepsin fermenti optimal faollika ega bo'lganda va gastriksinsler faolligi oshganda pH 1,5 dan 3,5 gacha o'zgarib turadi. Me'da shirasining osmotik bosimi plazmadan yuqori bo'ladi.

Maqsad: Oshqozonda toksik zaharlanish bo'lganda aktivlangan ko'mirning me'da shirasi tarkibidagi xlorid kislota (HCl) bilan qancha vaqt ichida, qancha miqdorda adsorbsiyalnishini hisoblab topish.

Laboratoriya tajribasi va natijasi: Ushbu laboratoriya tahlillari Samarqand davlat tibbiyot universitetining tibbbiy kimyo kafedrasida o'tkazildi. Laboratoriya sharoitida aynan me'da shirasi tarkibidagi xlorid kislotadan emas, balki noma'lum konsentratsiyali xlorid kislotadan foydalanildi. Shuning uchun tajriba ikki bosqichda: 1-bosqich – titrimetrik tahlil (Atsidimetriya)

2-bosqich – Adsorbsiya jarayoni.

Kerakli jihozlar: Byuretka, probirka, filtr qog'ozi.

Kerakli kimyoviy moddalar: xlorid kislotasi, indikator – metilzarg'aldog'i, ma'lum konsentratsiyali titrlangan NaOH eritmasi va aktivlangan ko'mir.

Ishning borish tartibi: Probirkaga xlorid kislota eritmasidan 10ml hajmda solindi va unga metilzarg'aldog'i qo'shildi. Shundan so'ng byuretkaga solingan NaOH eritmasidan hajmni kuzatgan holda, HCl eritmasiga solindi. Bu vaqt oralig'ida HCl eritmasidagi indikatorning rang o'zgarishiga e'tibor berish kerak. Eritma rangi qizil rangdan zarg'aldoq rangga o'zgarishi bilanoq NaOH eritmasini tomizishni toxtatildi. Solingan ishqor eritmasining hajmini aniqlanib, $C_1 * V_1 = C_2 * V_2$ formuladan foydalanib kislotaning konsentratsiyasi hisoblab topildi.

C1 - Ishqor konsentratsiyasi,
V1 - ishlatilgan ishqor hajmi,
C2 - kislota konsentratsiyasi,
V2 – kislota hajmi.

Atsidimetriya tajribasining natijasiga ko'ra HCl ning konsentratsiyasi aniqlandi.

Shundan so'ng tajribaning ikkinchi qismiga o'tildi. Xlorid kislotasining 10 ml ga 250 mg aktivlangan ko'mir solib 40 minut davomida toxtovsiz aralshtirib kuzatildi va eritma filtr qog'ozdan o'tkazildi. Filtrlangan eritmani esa yana qaytadan titrlandi. Titrlash orqali kislota eritmasining konsentratsiyasini adsorbsiya natijasida o'zgarishini aniqlandi. Shu tajriba bir necha bor o'tkazildi va quyidagi natijaga erishildi: 1-bosqichda atsidimetriya natijasiga ko'ra xlorid kislota konsentratsiyasi 0.095 N ekanligi aniqlandi. 2-bosqich adsorbsiya jarayoni natijasida xlorid kislota konsentratsiyasi 0.07N ga o'zgardi. Bundan ko'rinish turibdiki xlorid kislotaning konsentratsiyasi 30 minut davomida 0.025 N kamaydi. Ya'ni 0.025 N xlorid kislota adsorbentga so'rildi. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, adsorbent xlor inolarini qiyin adsorbsiyalaydi, qolgan ionlarni esa bundan tezroq va ko'proq adsorbsiyalaydi.

Xulosa: Aktivlangan ko'mirni toksik zaharlanishda oshqoznni yuvishdan oldin va keyin qo'llsh mumkin. Shuningdek metiorizmda ham qo'llasa bo'ladi. Aktivlangan ko'mir oshqozoznda 2-4 soat davomida saqlanishini hisobga olsak, bemorga kuniga 8 dona 250gr dan aktivlangan ko'mir istemol qilish tavsifa etiladi. Chunki u shu vaqt ichida oshqozondagi toksik moddalarni adsorbsiyalaydi. Bemorlarga 10 kundan ko'proq muddat ichish tavsiya etiladi. Ushbu modda zararli moddalarni o'z sirtiga yutishi bilan birga ichaklarda kalsiy ionining qayta so'riliш jarayonini buzadi. Shuning uchun bemorlarga bu preparatni istemol qilish muddati tugagandan so'ng, kalsiyli preparatlar beriladi. Aks holda organizmda kalsiy miqdorining kamayishi natijasida osteoporaz, karies kasalligi kelib chiqishi mumkin. Chunki kalsiy ionlari ichaklarda so'rilmasdani, aktivlangan ko'mirga adsorbsiyalanadi. Aktivlangan ko'mir bilan bir vaqtida boshqa bir preparatni istemol qilish, preparatning ta'sir doirasini kamaytiradi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha xossalalar preparatning adsorbent xususiyati bilan bevosita bog'liq.

Quyidagi holatlarda ushbu preparatni qo'llash mumkin emas: Oshqozon va ichak yaralarida, ichaklarda yoki me'dada qon ketishlarda, ichaklar atoniyasida.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Marchenko, T., Piliarska, O., Kiyamova, D., & Musaev, S. (2025). Influence of plant density and biological products on the formation of seed yield of maize lines under irrigation conditions. In BIO Web of Conferences (Vol. 151, p. 01002). EDP Sciences..

2. Kholmurodova D., Kiyamova D. Study of the process of producing fuel briquettes from industrial waste //International Journal of Advance Scientific Research. – 2023. – Т. 3. – №. 10. – С. 238-243.
3. Sharifovna K. D. et al. Galaktozemiya kasaligini kelib chiqish sabablarini o'rganish //interdiscipline innovation and scientific research conference. – 2024. – Т. 3. – №. 25. – С. 140-141.
4. Xudoyberdi O'g'li, Turatov Shuxrat, and Kiyamova Dilfuz Sharifovna. "Atirgul gulbargining tibbiyotdagi ahamiyat." intellectual education technological solutions and innovative digital tools 3.28 (2024): 176-177.
5. Негматов С.С., Киямова Д.Ш., Холмуродова Д. К. Исследование влияния связующего на эксплуатационные характеристики угольных брикетов. Universium Технические науки Москва 2022 ст.15-17
6. Киямова Д.Ш., Асқаров К.А., Холмуродова Д.К., Исследование влияния наполнителей на физико- механические свойства угольных брикетов. Universium Технические науки Москва 2021 ст.49-51
7. Киямова Д. Ш. Разработка технологии брикетирования угольной мелочи с применением композиционных материалов из местного сырья и отходов производств //ББК 30.16 Б 63. – 2023. – С. 178.
8. Sh, Kiyamova D. "Kovul o'simligining farmatsiyadagi ahamiyati, kimyoviy tarkibi, tarqalish mintaqalari." pedagog 7.11 (2024): 127-130.

Aziza Raxatjanovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

2-bosqich magistranti

ummusolihahasanova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Adib Ahmad Yugnakiy qalamiga mansub “Hibatu-l-haqoyiq” asaridagi til odobi tasviri va u bilan bog’liq badiiy ifoda vositalari tahlil qilingan. Til odobiga oid misralarda asosiy mazmunni ochib berishda adib tomonidan qo’llangan badiiy san’atlar, til vositalarining tutgan o’rni ilmiy asosda misollar yordamida ochiqlangan.

Kalit so‘zlar: Adib Ahmad Yugnakiy, “Hibatu-l-haqoyiq”, til odobi, ilmi bade’, alliteratsiya, she’r san’atlari.

Annotation: This article analyzes the depiction of language etiquette and the associated artistic expression tools in the work "Hibatu-l-haqoyiq" by Adib Ahmad Yugnaki. The article scientifically examines the use of literary devices and linguistic tools employed by the author to reveal the main meaning in the verses related to language etiquette, providing examples to clarify their role.

Keywords: Adib Ahmad Yugnaki, "Hibatu-l-haqoyiq", language etiquette, rhetoric, alliteration, poetic devices.

Аннотация: В данной статье анализируется описание языкового этикета и связанных с ним художественных средств выражения в произведении «Хибату-л-хакайик» Адиба Ахмада Югнаки. В статье научно рассматривается роль художественных приемов и языковых средств, использованных автором для раскрытия основного содержания в стихах, связанных с языковым этикетом, с примерами для пояснения.

Ключевые слова: Адіб Ахмад Югнаки, «Хибату-л-хакайик», языковой этикет, риторика, аллитерация, поэтические приемы.

KIRISH. Bilamizki, badiiy adabiyotning asosiy vazifasi - insonni go‘zal axloqiy qarashlar, hayotiy tajribalar bilan tanishtirish, yomonlikdan qaytarish, ezbilikka chorlash, ummumbashariy g‘oyalarni targ‘ib qilishdan iboratdir. Badiiy tasvir vositalari esa mana shu maqsadni ta’minlaydigan eng asosiy qurollardan biridir. Zero, o‘quvchi ruhiy olamiga bevosita ta’sir qiluvchi jarayon ham asardagi badiiy tasvir vositalari, bayon uslubi, so‘z qo’llanishidagi mahoratdan yuzaga keladigan zavqdir.[3,3]

Ayniqsa, didaktik ruhdagi asarlarda ma’naviy – axloqiy qarashlarni targ‘ib qilishda, g‘oyalarni yanada ta’sirli uslubda ifodalash, aytيلاتون fikrni dalillashda so‘zлarning to‘g‘ri tanlovi, ilmi bade’dan mahorat bilan foydalanish mazkur asarlarning muvaffaqiyatiga sabab bo‘luvchi omillardandir. Zero, o‘quvchini “quruq” pand – nasihatlar, odatiy gap-so‘zlar bilan ta’sirlantirish juda mushkul, kitobxon diqqatini tortuvchi voqealar rivoji, qahramonlar nutqidan xoli holatda asosiy urg‘uni aynan so‘zning o‘ziga berish adibdan juda katta mahorat, bilim talab qiladi. Chunki tilda so‘zlar adadi cheksiz, ammo uning eng keraklisini, eng munosib o‘rinda qo‘llash “ipga gavhar terish”dan ancha mashaqqatliroq.

Ahmad Yugnakiy o‘z asarida tilni tiyish, uning odoblari, to‘g‘ri so‘zlik va yolg‘on gapirish oqibatlari haqida o‘quvchiga, uning ma’naviy olamiga ta’sir qilishda qanday til vositalaridan foydalandi, asardagi baytlarning purma’noligi, aytيلاتون fikrning ta’sirchanligiga turkiy til imkoniyatlari ne chog‘li xizmat qildi? Bu savollarga javob topish bizning quyidagi kichik tadqiqotimiz obyektiga aylanib, uni ochiqlashga asardan olingan misollilar vositasida harakat qilindi. Asardagi til odobi bilan bog‘liq misralarda adib tomonidan foydalangan badiiy til vositalari, she’riy san’atlar o‘rganilib, tartib bilan ularning g‘oyaviy mazmunni ifodalashdagi o‘rni aniqlandi.

Avvalo, asar boshida Adib Ahmad o‘z maqsad va niyatlarini kitobning yozilish sabablari va zarurati to‘grisidagi beshinchi bobida quyidagicha bayon qiladi:

Bezädim kitāpnü navādir sözün,

Baqiylü, oqiyüli asiy alsu tep,

Ya’ni, uning baytlarini o‘qigan, ko‘rgan inson foyda olsin deya, kitobni “navādir” so‘zlar bilan bezagan, bu o‘rinda “navādir” dan murod esa maqolu matallar, hikmatli gap, hadis hamda muqaddas oyati karimalarga ishoradir, bizningcha.

ASOSIY QISM.

Ahmad Yugnakiy “Hibatu-l-haqoyiq” asarida til odobi haqida qalam tebratar ekan, turkiy tiling o‘ziga xos xususiyatlari hamda ilmi bade’dagi san’atlardan o‘ta mohirona foydalanganki, har bir san’at yoki so‘z eng asosiy mazmunni o‘quvchi ongiga to‘liq hamda mukammal yetkazishga xizmat qilingan.

Azaldan odob axloq haqida pand - nasihat qilinganda, purma’no so‘zlar, maqol va matallar, islomdan keyingi davrda esa, ayniqsa, hadis va oyatlarga keng murojaat qilingan. Ular vositasida esa aytimoqchi bo‘lgan fikrga chiroyli dalil keltirish, uning ma’no salmog‘ini oshirish, eng muhimi tinglovchi ruhiyatiga ular vositasida ta’sir qilib, maqsadga erishish nazarda tutiladi. Bu an’anaviy usul Ahmad Yugnakiy ijodida ham yetakchilik qilgan. Ilmi bade’ga ko‘ra iqtibos deb nomlanuvchi san’at vositasida esa mana shu an’anadan foydalishning go‘zal namunalarini yaratgan.

Iqtibos san’ati istilohda Qur’oni Karim oyatlari, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hadislarini aynan keltirish yoki ularning mazmunini she’rda ifodalashga nisbatan nomlanadi.[9,62] Odatda, Sharq mamlakatlari shoirlari tomonidan ushbu

usulga keng murojaat qilinadi. Y.Ishoqov fikricha, bu mushtarak san'at bo'lib o'zida ham lafziy, ham ma'naviy unsurlarga ega.[2,27] Hazrat Navoiyning deyarli barcha asarlarida iqtibos san'atining namunalarini uchratsak, ayrim asarlari, jumladan "Arbain"lar to'laligicha iqtibos usulida yaratilganligi ma'lum. Bizgacha yetib kelgan asarlarni kuzatish orqali shu narsa aniqlandiki, Adib Ahmad Yugnakiy turkiy adabiyotda ushbu san'atdan sermahsul foydalangan adiblardandir.

Asarda quyidagicha iqtibos san'ati namunalarini kuzatish mumkin:

- 8 ta o'rinda Qur'on oyatlari;
- 22 ta o'rinda Hadis sharif namunalari;
- 9 ta o'rinda hikmatli gap va purma'no iboralar;

Ularning asardagi vazifasi ham turli xil, ba'zi o'rinlarda fikrni dalillash uchun qo'llanilgan bo'lsa, ayrim joylarda mavzuni izohlash, adib aytmoqchi bo'lgan fikrlar haqida o'quvchiga tushuncha berish maqsadida sarlavha boshida ham oyat yoki hadislardan namuna keltirib o'tadi. Masalan, asarning "Go'zal axloqlar va ular bilan odoblanishga undash to'g'risida"gi 12-bobda Qur'on Karimning 4 ta surasidan oyatlar hamda 4 ta hadis bilan o'quvchiga o'zi ilgari surayotgan g'oyaga kuchli dalil va xulosalar keltiradi.

Tadqiqotimizning bevozita obyekti bo'lgan til odobiga oid asarning 7-bobida ham iqtibos san'atining go'zal namunalariga guvoh bo'lamiz.

Hadislarni asarda Adib Ahmad asosan ikki xil usulda qo'llaydi:

- To'rtlikda bevosita hadis mazmunida turkiy tilda ifodalash usulida;

Masalan:

Rasūl: "Erni otqa yüzin atquči

Til-ol", tedi, yiň til, yul ottin yüzüj.[8,81]

Mazkur to'rtlikning o'zida bevosita "Rasul dedi" – deya hadis muallifini ochiq bayon qilsa, ikkinchi to'rtlikda hadisning turkiy mazmunini berib, muallifi haqida so'z ochmaydi:

Eşit, büt, bu sözgä: Qamuy tajda tan

Turup tilgä yüküp, tađarru' qılur.

Ikkila to'rtlik so'ngida hadislarning arabiylarini ham keltiradi.

- Ikkinchi uslubda esa hadis mazmunini aynan keltirmaydi, balki she'rdagi aytilayotgan fikrga yaqin ma'nodagi hadisni to'rtlik so'ngida berilishi bilan kifoyalanadi. Bunga misol:

Köni söz 'asal-teg, bu yalyan –başal,

Başal yep açıtmá ayz, ye 'asal.

Bu yalyan söz ig-teg, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqı urulmiš masal.

Yolg'on so'zlash va rostg'oylik haqidagi baytdan so'ng "yolg'on – kasallik, to'g'ri so'zlik bo'lsa shifodir" mazmunidagi hadisni keltirib o'tadi.

Özgä

[8,82] و ذلك قوله عليه السلام الكذب داء الصدق شفاء

Ushbu bobda keltirilgan hadislardan asosiy maqsad esa mavzuning o‘ta jiddiyligiga ahamiyat qaratishdir. Buning isboti tarzida ilohiy va nabaviy qavllarning zikr qilinishi - to‘g‘ridan to‘g‘ri kitobxonni til ofati haqida ogohlantirish hamda so‘zlash odobiga rioya qilishga chaqirishdir.

Yana “navādir” so‘zlarni tashkil qiluvchi maqol va matallardan ham asarda juda o‘rinli foydalanilganki, bu ham adibning aytayotgan gapi o‘zining emas, ko‘p yillik tajriba va bilimga ega donishmand xalqning gapi ekanligiga isbot hamdir. Bilamizki, **Irsoli masal** – gapda yoki she’rda maqol, matal va hikmatli so‘zlarni muayyan maqsadda tamsil yo‘li bilan ishlatish san’atidir. “Hibat –ul haqoyiq” da maqol va matallarni qo‘llanilishi bilan ham mazmun, ham shakl xilma xilligiga erishilgan ko‘plab namunalariga duch kelamiz.

Bu yalyan söz ig-teg, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqī urulmiš masal.

Ya’ni, yolg‘on so‘z – kasallik, to‘g‘ri so‘z esa shifodir maqolining ishlatilishi ushbu san’atga misoldir.

Shuningdek,

Öçüktürmä erni tilin, bil, bu til

Başıqtursa, bütmäs, bütär oq başı.

Mazkur misralarda mashhur hikmatli gap “tig‘ jarohati bitadi, lekin til jarohati tuzalmaydi” ga ishora qilgani irsoli masalning yorqin namunasidir.

Endi bevosita asardagi so‘zlar tanloviga nazar tashlasak, bunda tilning ofati va zarari haqida gap ketar ekan, maqsadni chiroyli dalillash uchun tashbeh, istiora, tazod kabi badiiy san’atlar ko‘magida shakl va mazmunning go‘zal uyg‘unligi yuzaga keltirilgan.

Ikki qutbli dunyo tushunchasida hamisha insoniyat oldiga ikki yo‘l tanlovi qo‘yilgan: biri – ezgulik kabi ijobiy ma’noni anglatsa, ikkinchisi – salbiy xususiyatga ega tushunchalar jamlanmasi hisoblanadi. Bu azaliy haqiqat yordamida ikki yo‘lning oxiri, ular olib boradigan manzil tanlov oldida turgan insoniyatni ogohlikka, mulohazaga chorlagan hamisha. Agar dunyo yomonlik oqibatlaridan aziyat chekmaganda edi, yaxshilik bu daraja e’zozlanmagan, tuhmatu yolg‘onlar jabridan insoniyat boshiga mislsiz ofatlar kelmaganda edi, to‘g‘ri so‘zlik qadri bu daraja e’tibor topmagan bo‘lar edi. Badiiy adabiyotda ham hayotiy xulosalar asosan qarama qarshi fikrlar asosida ifodalananadiki, toki kitobxon tanganing ikki tarafidan boxabar bo‘lib, o‘quvchining o‘zi xolis to‘g‘ri tanlovni qilishi kerak. She’riyatda aynan qarama qarshilik asosida qurilgan tazod san’ati shu maqsadda juda sermahsul qo‘llaniladi.

Qizig‘i, bu san’atning nomlanishida ba’zi o‘zgachaliklar bor. Jumladan, Xalil ibn Ahmad uni “mutobiqa” deb atagan, “Tarjimon ul balog‘a” da “mutazod” tarzida

kelgan, qolgan ko‘pchilik adabiyotshunoslik asarlarida “tazod” atamasi bilan kelgan. Nomlanishida o‘zgachalik kuzatilsada, ma’no jihatdan mushtarak fikrlar berilgan, ya’ni o‘zaro qarama qarshi so‘zlarni badiiy matnda keltirilishi asosiga qurilgan badiiy san’at hisoblanadi.[2, 65]

Xususan, Ahmad Yugnakiy ham til odobi haqida gapirar ekan, ezgulik va egrilik, to‘g‘riso‘zlik va yolg‘on, ko‘p gapirish va sukut saqlash kabi bir biriga zid tushunchalar orqali ularning bevosita oqibat va natijalarini ko‘rsatish bilan ezgu g‘oyalarni qadrini yana bir pog‘ona oshirib ko‘rsatishga erishadi. Buni misollarda ko‘rib chiqamiz:

“edgü” hamda “esiz” so‘zlari qarshilantirilgan:

Ne-kim kelsä ergä tilindin kelür,

Tilindin kim edgü, kim esiz bulur.

Bu o‘rinda o‘quvchini ogohlikka chaqiradi, kishi boshiga nima klesa, uning tilidan keladi, kimdir tilidan ezgu – yaxshilik topsa, kimdir esiz – nadomat, pushaymonlik topadi. Mazkur misralarda ikki oqibat “ezgulik” va “esiz”(pushaymonlik) qarshilantirilgan.

“Könilik” va “egrilik” o‘zaro zidlashtirilgan:

Könilik tonün kiy, qoyup egrilik,

Keyim, ton talusi könilik toni

Quyidagi baytda esa “Könilik toni” ma’no ko‘chishining ajoyib misoli berilgan bo‘lsa, ko‘nilik va egrilik qarama qarshiligi bilan to‘g‘rilik to‘ni – inson uchun eng yaxshi libosligi ta’kidlanadi.

Navbatdagi misolda esa “köni” – “yalyan” hamda “asal” - “başal” so‘zlar juftligi o‘zaro tazodning ajoyib namunalari hisoblanadi:

Köni söz ’asal-teg, bu yalyan –başal,

Başal yep açitma ayz, ye ’asal.

Bu o‘rinda bir yo‘la o‘xshatish va qarshilantirish orqali shakl betakrorligi ma’nuning o‘zgacha tarzda ifodalinishiga zamin yaratgan. Rostgo‘ylikni asalga, yolg‘onni – basal (sarimsoq)ga qiyoslanishi bejizga emas, asal va basal ham bir biriga qarama qarshi qo‘yilibgina qolmay, to‘liq qofiyani ta’minalashga xizmat qilgan. Adabiyotda ko‘pincha, asal va zahar so‘zlari o‘zaro zidlik hosil qilishiga ko‘p guvoh bo‘lganmiz. Basal so‘zining ishlatalishi bu o‘rinda “asal” bilan o‘zaro ham ma’no, ham shaklda mukammal uyg‘unlik yarata olgan. Bu ham adibning so‘z tanlovida juda mohirligidan dalolatdir.

Tashbih – eng keng tarqalgan so‘z san’ati bo‘lib ikki narsa yoki tushunchani o‘zaro o‘xshatish asosiga quriladi. Bundan maqsad tasvirlanayotgan shaxs yoki tushunchani o‘quvchi ko‘z oldida yanada aniqroq, jozibaliroq hamda ta’sirchanroq gavdalantirishdir. Shubhasiz Ahmad Yugnakiy o‘z asarida tashbehdan serunum foydalangan. Jumladan, til odobiga oid fikrlarini ifodalashda rost so‘z hamda yolg‘onni, egrilik va to‘g‘rilikni, tilni tiyish kabi tushunchalarni juda sodda va shuning bilan birga esda qolarli

o‘xshatishlar bilan bayon qiladiki, uni o‘qigan har qanday kitobxon adib maqsadini tezda ilg‘ay oladi, she’rdagi mazmunni anglashda yengillikni his qiladi. Bunga misollar talaygina, masalan:

Sanüp sözlägän er sözi söz sayi,

Öküš yaňşayan til- unulmas yayi.

Ko‘p vaysagan tilni murosaga kelmaydigan dushmanga qiyoslanishi, “til” – “dushman” o‘zaro o‘xhatilishiga guvohi bo‘lamiz.

Bu yalyan söz ig-teg, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqi urulmiš masal.

Bu misralarda “yolg‘on so‘z” – “kasallik” hamda “to‘g‘ri so‘z” – “shifo” o‘xhatishlari, juda aniq va sodda topilmaki, o‘quvchi tezda ularning ahamiyati va zararlaridan ogoh bo‘la oladi.

Tanosub san’atida, bilamizki, shoir tasvirda ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan so‘zlardan yoki bir sohaga oid atamalardan foydalanadi. Masalan:

Bu yalyan söz ig-teg, köni söz – şifā.

Bu bir söz uzaqi urulmiš masal.

Misralarida tibbiy ma’nodagi “ig” va “şifā” so‘zleri tanosub san’atini hosil qilibgina qolmay, balki o‘zaro zid ma’nolarni berib tazod san’atiga ham namuna bo‘ladi.

Tiliň bektä tutyil, tišiň sünmasun,

Xaličiň cüqsa bektin, tišiňni siýur.

Quyidagi misralarda ham inson tana a’zolari “til” hamda “tiš” tanosubga yorqin misol vazifasini bajaradi.

Ishtiqoq – til qoidalari hamda grammatic xususiyatlariga asoslangan ushbu san’atda tizma yoki sochma parchada o‘zakdosh so‘zlar uyushib keladi. Bunda gap bo‘laklari orasida sintaktik aloqalardan tashqari o‘zak nuqtai nazaridan ham aloqadorlik mavjud bo‘ladi.[3,44] Bu o‘z navbatida aytimoqchi fikrni kuchaytirishga, yanada ta’kid bilan ifodalashga xizmat qiladi. Masalan:

Öcüktürmä erni tilin, bil, bu til

Başıqtursa, bütmäs, bütär oq başı.

Mazkur o‘rinda *başıqtursa, başı, bütmäs, bütär* so‘zleri tanosubga misoldir. Bunda tavze’ning ham yorqin misolini ko‘rishimiz mumkin.

Ködäzgil tiliňni, kel, az qıl sözüň,

Ködäzilsä bu til, ködäzlür özüň.

O‘zakdosh so‘zlar takrori fe’l so‘z turkumiga oid qo‘srimchalari bilangina farq qilib kelgan.

Tajnis – lug‘aviy ma’nosи jinsdosh, hamjins ma’nolarini anglatuvchi ushbu san’atda shaklan bir xil, ma’no jihatdan boshqa ma’nolarni ifodalovchi so‘zlar (omonim)ni qo’llash bilan nozik so‘z o‘yinlari yaratilishiga imkon beradi. Masalan:

Safih er tili öz başı duşmani,

Tilindin töküldi telim er qanü.

Öküş sözlägändä öküngän telim,

Tilin beklägändin ökünmiş qanü?

Ikkinci misradagi “qani” qon ma’nosida, to’rtinchi misradagi esa “qani?” so‘roq olmoshi vazifasida kelgan.

Tasbig‘- takrorlarga asoslangan san’atlardan biri bo‘lib, bunda oldingi gap, misra yoki bayt oxirida joylashgan so‘z, so‘z birikmasi, keyingi gap, misra yoki baytda qaytarilib fikriy izchillik ta’minlanadi.[3, 51] Tasbig‘ga misol:

Köni söz ’asal-teg, bu yalyan –başal,

Başal yep ačitma ayz, ye ’asal.

Birinchi misra oxiridagi “başal” so‘zi keyingi misra boshida ham takrorlanyapdi.

Tavze‘ (alliteratsiya) shunday san’atki, bunda shoir o‘z fikrini ifodalashda yangroq dosh, ya’ni bir xil yangroq tovushga ega bo‘lgan so‘zlardan foydalanadi. [3,34]. Badiiy tasvir vositalari ichida ohangdosh tovushlardan foydalanish uslubi turkiyadabiyotda uzoq tarixga ega. Ilmi bade’da tajze’ istilohi bilan yuritilgan mazkur san’at namunalari qadim O’rxun Enasoy yodgorliklari matnlarida, XI asrga oid “Devoni lug‘atit turk” asarida berilgan maqollar va she’riy parchalarda bunga yorqin misoldir.

“Hibatul haqoyiq”da ham ushbu usul yetakchilik qiladi va bunga misollar ham talaygina.

“t” tovushi takrori kelganiga misol:

Safih er tili öz başı duşmanı,

Tilindin töküldi telim er qanü.

“b” tovushi ga misol:

Öčüktürmä erni tilin, bil, bu til

Başıqtursa, bütmäs, bütär oq başı.

“s” tovishiga misol:

Serip sendä räziy siyip turmasa,

Serärmü eşiydä, munü keð saqin.

“k” tovushiga misol:

Köni bol, könilik qıl, atan köni,

Köni teyü bilsün kişilär seni.

Könilik tonün kiy, qoyup egrilik,

Keyim, ton talusü könilik toni

Oldingi misollarda alliteratsiya faqat bir misrada yuzaga kelgan bo‘lsa, mazkur to’rtlik boshidan oxirigacha ohangdoshlik asosida yaratilgan.

XULOSA. Adib Ahmad Yugnakiyning “Hibatu-l-haqoyiq” asarida so‘zlar tanlovida o‘ta mohirona yondashuvining guvohi bo‘lamiz. Asardagi qo’llanilgan ilohiyakalomdan tortib, xalq og‘zaki ijodi namunalari, ko‘p va qarama –qarshi ma’noli so‘zlar, hatto kichik qo’shimchalarining ma’no anglatishdagi vazifasidan tortib, tovushlar

REFERENCES

1. Древнетюркский словарь Л.: “Наука”, 1969. – 676 с.
2. Исҳоқов. Ё. “Сўз санъати сўзлиги” – Тошкент: Зарқалам, 2006. -126 б.
3. Рустамов А. “Навоийнинг бадиий маҳорати” Тошкент.: Faafur Fулом, 1979.
4. Содиков К. “Туркий ёзма ёдгорликлар тили: Адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши” Т.: 2006 й. – 124 б.
5. Sodiqov Q. Qoraxoniylar davri turkiy yozma yodgorliklari.- Toshkent: Akademnashr, 2025. 360 b.
6. Sodiqov Q. O‘zbek mumtoz adabiyoti. - Toshkent: Akademnashr, 2022. 320 b.
7. Кошғарий, Махмуд Девони лугати-т-турк (Туркий сўзлар девони) – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижод уйи, 2017 . 488 б.
8. Югнакий, Адиб Ахмад. Ҳибат-ул-ҳақойиқ. Қ.Содиков транскрипцияси, талқини ва таҳлилида –Тошкент: Akademnashr, 2019. 168 б.
9. Ҳожиахмедов А. “Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия” . Т:- Шарқ. 1998.

**MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INKLIZIV TA’LIMGA
EHTIYOJMAND BOLALARINI IJTIMOIY INTEGRATSIYALASH JARAYONLARINI
TO’G’RI TASHKIL ETISH**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti

Pedagogika kafedirasiga o’qituvchisi

Rahmatullayev Botir Sobir o’g’li

Maktabgacha ta’lim yo’nalishi 2- bosqich talabasi

Boltayeva Manzura Boyturayevna

Rahmatullayevbotir70@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0001-8327-7309>

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim –tarbiya jarayonlarida inkliziv ta’limga ehtiyojmand bolalarni ijtimoiylashuv jarayonlariga olib kirish , ular bilan ham individual , ham guruhda ishlash , jamoaviy munosabatlarni to’g’ri shakllantirish, inkliziv ta’limga muhtoj bolalarni sog’lom bolalar qatorida ta’lim olishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Ta’lim, tarbiya, inkliziv ta’lim, integratsiyalash, mazmun, vazifalar, ijodiy faoliyat , innovatsion texnologiyalar, psixologik rivojlanish tenglikni ta’minalash, ochiqlik, individuallik, ijtimoiy muhit.

Анноэфция: В статье рассматриваются мероприятия, направленные на включение детей, нуждающихся в инклюзивном образовании, в процесс социализации в образовательном и воспитательном процессах дошкольных образовательных организаций, работу с ними как индивидуально, так и в группах, правильное выстраивание взаимоотношений в коллективе, создание широких возможностей для детей, нуждающихся в инклюзивном образовании, получать образование наравне со здоровыми детьми.

Ключевые слова: Образование, воспитание, инклюзивное образование, интеграция, содержание, задачи, творческая деятельность, инновационные технологии, психологическое развитие, обеспечение равенства, открытость, индивидуальность, социальная среда.

Annotation: This article discusses measures aimed at introducing children in need of inclusive education into the socialization processes in educational and upbringing processes in preschool educational organizations, working with them both individually and in groups, properly forming team relationships, and creating broad opportunities for children in need of inclusive education to receive education along with healthy children.

Keywords: Keywords: Education, upbringing, inclusive education, integration, content, tasks, creative activity, innovative technologies, psychological development, ensuring equality, openness, individuality, social environment.

Ijtimoiylashish – bu bolaning jamiyat hayotiga moslashuvi, ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va rollarni o’zlashtirish jarayonidir. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagilardan bolalarda ijtimoiylashuvning boshlang‘ich bosqichi tarbiyachi yordami bilan amalgalashadi. Tarbiyachi bolaning jamiyatga kirishi, muvaffaqiyatli moslashishi va o’zligini tanib borish ko’nikmalarini shakllantirib boruvchi yetakchi shaxs sanaladi. Tarbiyachining ijtimoiylashtiruvdagi roli juda muhimdir chunki u maktabgacha ta’lim tashkilotlarida asosan bolalar bilan ishlaydi, ularning kundalik hayoti , hulq-atvori , oilaviy sharoiti bilan mukammal darajada tanish bo’ladi. Bu esa ta’lim jarayonlarida juda yaxshi samara beradi. Eng avvalo,tarbiyachi - bolalar uchun eng yaqin va kundalik namunadir. Uning nutqi, harakati, muloqoti bolalarda ijtimoiy qoidalarni shakllantiradi. Ijtimoiy ko’nikmalarni o’rgatib, bolalarda muloqot qilish, navbat kutish, muammoni hal qilish kabi muhim ko’nikmalarni rivojlantiradi. Ijtimoiy rollarni tushuntirish orqali esa turli rolli o‘yinlar, hayotiy ssenariylar orqali bolalarga “do’stlik”, “O’zaro munosabat”, “Bir-biriga yordam”, “Ota-on” kabi ijtimoiy rollarni qanday bajarish haqida ko’nikmalar hosil qilinadi. Bunda tarbiyachidan hammani teng ko‘rish, har bir bola, ayniqsa inklyuziv ehtiyojga ega bola tarbiyachining mehriga muhtoj ekanligini yaxshi his qilgan holda ularni jamoada o‘rnini topishiga ko’maklashish zarur.

“Inklyuziv ta’limda o‘qitish usullari takomillashtiriladi hamda ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etiladi hamda inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarini ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog‘lom va baquvvat shakllanishiga qaratilgan choralar ko‘riladi” [1]. Shundan ko’rinib turibdiki,tarbiyachi bu sohada eng katta mas’uliyatli inson sifatida empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantirishi va bolalarda boshqalarni tushunish, ularga yordam berish, hurmat qilishni o’rgatishi , ta’lim jarayonlarini to‘g‘ri tashkil qilish yo’llari topishi eng muhim masaladir. Tarbiyachi o’tilayotgam mashg’ulot va faoliyatga a asoslangan holda yondashib o‘yin, tajriba, kuzatish, ijodiy mashg‘ulotlar orqali bolalarni faol o‘rganadi va ular bilan ishlash jarayonida individual yoki guruhiy yondashish yo’lini tanlashi zarur. Bundan tashqari, differensial yondashuv orqali har bir bolaning qobiliyati, holati va ehtiyojidan kelib chiqib yondashishi zarur.

Guruhsda bolalar bilan ishlash jarayonida kichik guruhlarda ishlash orqali bolalar o’zaro muloqot qilishni, hamkorlikda fikrlashni o‘rganadilar bu esa kichik guruhdan inklyuziv ta’limni yo’lga qo’shish bolalarda ijtimoiylashuv jarayonini yengillashtiradi. Chunki bu yoshda bolalar inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarni ko’p ham ajratmaydi bu esa bolalarni keyingi ta’lim jarayonlariga bosqichma-bosqich moslashib borishiga ,

ko'nikmalarining paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy-emotsional rivojlanishga e'tibor qaratish esa har bir bolani o'zini tushungan, qadrlangan va muhim his qiladigan muhit yaratish orqali ijtimoiylashtirib borish eng muhim shart hisoblanadi.

"Ota-onalar bilan hamkorlik bu ta'lim jarayonining uy sharoitida davom ettirilishi uchun, tarbiyachi ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lishda imkoniyati hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim - ijobiy munosabatlarni shakllantirishning pravard maqsadi bo'lishi lozim". [2] Yuqorida fikrlardan ko'rinish turibdiki, bu har bir bolaga, jumladan, nogironligi yoki rivojlanishda orqada qolgan bolalarga ham teng imkoniyatlar yaratish va ularni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida qabul qilish madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Inklyuziv ta'limga ijobiy munosabatni shakllantirish avvalo ota-onsa, tarbiyachi va bola o'rtasidagi masofaning yaqinlashuviga , bir –biri bilan ma'lumot almashishiga hamda bir- birini to'g'ri tushunish , vaziyatni to'g'ri baholashga zamin bo'ladi. Ota-onalar, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasida inklyuziv ta'limning mazmuni va ahamiyati bu o'zaro suhbatlarning to'g'ri tashkil etilishi bilan bog'liq.

Maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishslash bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalarni oshirish va empatiya, sabr, bag'rikenglik, e'tiborli bo'lish kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlanish muhim sanaladi. Ijtimoiy o'zaro muloqotni kuchaytirish,tengdoshlar o'rtasida do'stona muhitni shakllantirish, ijtimoiy o'yinlar va guruhi topshiriqlar orqali hamkorlikni oshirish hamda turli guruhiy yoshga doir bolalar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bir-birini kamsitilishiga yo'l qo'yagan holda tashkil etilgan o'yinlar masalan "Yordamchi do'st", "birga o'rganamiz" kabi tashabbuslarni yo'lga qo'yish tarbiyachidan juda katta mahorat talab etadi.

"Inklyuziv ta'limda muvaffaqiyatga erishgan bolalar va ularning oilalari haqida, nogironligi bo'lsa-da katta yutuqlarga erishgan shaxslar haqida suhbatlar o'tkazish, ajratib ko'rsatish va tamg'alashga qarshi kurashish har qanday kamsitish, befarqlik, masxaralash holatlarini qat'iy ravishda oldini olish inklyuziv ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yish va har bir bolaga inson sifatida yondashish, hurmat bilan muomala qilishni rag'batlantirish orqali bolalar o'rtasida munosabatlar yaxlitligini ta'minlash eng muhim vazifa hisoblanadi"[3] Shuni ta'kidlash lozimki, bu ya'ni inklyuziv ta'limni amalga oshirish jarayonlari albatta qichinchilik va ancha mashaqqatni talab etadi. Televizion ko'rsatuvarlar, ijtimoiy tarmoqlar, plakat va broshyuralar orqali inklyuziv ta'limning ijobiy tomonlarini yoritish, ijtimoiylashuv jarayonlarida inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni adaptatsiya qilishni osonlashtirish yo'llari haqida tavsiyalar asosida bu ta'lim jarayonini bosqichma –bosqich amalga oshirib borish kerak. Bunda eng avvalo, jismoniy muhit ya'ni ta'lim muassasalarida panduslar, liftlar, maxsus jihozlar tashkil etish,psixologik muhitni yaxshilash ,o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida ijobiy, qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar shakllantirish talab etiladi.

Misol uchun, pedagogik muhitni yaratishda o‘quv dasturlari moslashtirish, maxsus ehtiyojlarga javob beradigan metodlar va vositalar qo‘llash , eng asosiysi esa ongni o‘zgartirish juda muhimdir. Jamiyatda, ayniqsa o‘quvchilarda nogironlik haqida ijobiy fikr shakllantirish zarur. O‘qituvchilarni tayyorlash hamda maxsus pedagogika va psixologiya bo‘yicha malaka oshirish kurslari o‘tkazish kerak. Chunki asosan ijtimoiy muhitni yaratish va uni tartibga solish pedagoglardan yuqori bilim, mukammal ko’nikma va shakllangan tajribani talab qiladi. Tarbiyachi har bir bolaning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashuvlar ishlab chiqishi va bu yondashuvlarga bevosita oilani jalg etish, ota-onalar bilan yaqin hamkorlikda ishlash, ularning fikrlari va takliflari inobatga olish va farzandlaridagi ijobiy va salbiy o‘zgarishlardan ogoh qilish yoki ogoh bo’lish, muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatini yaratadi.

Inklyuziv bolalarni sport, san’at, teatr, ekskursiyalar kabi tadbirlarga jalg qilish orqali ularning o‘z tengdoshlari bilan muloqoti kuchaytiriladi. Individual rivojlanish rejasini tuzish esa har bir bola uchun alohida rivojlanish rejalarini ishlab chiqilgan holda amalga oshiriladi. Tengdoshlar bilan integratsiya qilish jarayonlari maxsus sinflar o‘rniga aralash sinflarda tahsil olish imkoniyati yaratiladi. Ijtimoiylashuv jarayonlarida inklyuziv ta’limga muhtoj bolalarni adaptatsiya qilishni osonlashtirish yo‘li hisoblanadi. “Inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar uchun yangi muhitga moslashish — ya’ni adaptatsiya jarayoni — nihoyatda muhim bosqich sanaladi. o‘quvchilarning jismoniy va aqliy ehtiyojidan hamda ta’lim muassasalarining geografik joylashuvidan kelib chiqib alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) (keyingi o‘rinlarda — ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari) soni optimallashtiriladi”[1]. Inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar uchun ijtimoiylashuvda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni kamaytirish va ularga mos sharoit yaratish, tarbiyachilar, o‘qituvchilar va jamiyat zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Adaptatsiya bosqichma-bosqich olib borilishi lozim. Dastlab qisqa vaqtga ishtirok etish, so‘ngra asta-sekin dars jarayonlarning to‘liq qatnashchisiga aylantirish , dastlab tanish faoliyatlar (masalan, o‘yin yoki rasm chizish) orqali muhitga kirib borishni ta’minalash va asta-sekinlak bilan o‘zaro bolalar ijtimoiy muhitiga moslashish jarayonlarini tashkil etish lozim. Muloqotga kirishish va boladagi muammolar va qiyinchiliklarni jamoaviy yengishga ko‘maklashish kundalik hayot rejimiga o’tish bola bilan ko‘proq suhbatalashish, savollar berish, unga qulop solish orqali ishonchli aloqa o‘rnatish kerak. Qo’llab-quvvatlash orqali esa har qanday kichik yutuqni e’tirof etish, rag‘batlantirish, ishtirokini qadrlash inklyuziv ta’lim uchun muhim shart hisoblanadi. “Inklyuziv ta’lim tizimini joriy qilish, boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarni ochish va ixtisoslashtirilgan guruhlarni tashkil etish natijalarini hisobga olgan holda ijobiy tajribani respublikaning boshqa hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish”[1] esa ta’lim jarayonlarida yanada sifat darajasining oshirishga ko‘mak beradi.

Maxsus mutaxassislar yordami bolalarga yuzaga kelgan kamchiliklarni defektolog, psixolog, logoped kabi mutaxassislarning tavsiyalaridan foydalangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqliqdir.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda siyosiy muammoga aylangan teng huqulilikni ta’minalash inklyuziv ta’limga muhtoj bolalar uchun adaptatsiya — ularning ijtimoiy hayotga kirib borishining boshlang‘ich va muhim bosqichidir. To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik jarayon, mehrli muhit, samarali aloqa va jamiyatning ijobiy munosabati orqali bu jarayonni osonlashtirish va samarali qilish mumkin. Ijtimoiylashuv jarayoni bola hayotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayonda tarbiyachi asosiy ko‘makchi, yo‘l ko‘rsatuvchi va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida ishtirok etadi. To‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim jarayoni esa bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-soni
”Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[1]**
- 2.R.R.Zamilova UZLUKSIZ TA’LIM PEDAGOGIKASI VA INKLYUZIV TA’LIM. Darslik USMON NOS1R MEDIA” Namangan — 2023**
- 3. Inklyuziv Ta’lim: nazariya va amaliyot F.U.Qodirova, D.A.Pulatova, Kitob nashr qilingan yili: 2022 Yil [2]**
- 4.2020-2025 yillarda Xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’lim Inklyuziv ta’limni rivojlantirish Konsepsiysi. O‘z.Res.Prezidenti. 13.10.2020y PQ 4860-soni**
- 5. Nogiron bolalarning huquqiy asosalari va ilmiy-nazariy masalalari. Defektolog kadrlarni tayyorlash jarayoniga innovatsion ta’lim texnologiyalarini tadbiq etish: muammollar va istiqbollar Nurmuhamedova L.SH..-T.,2014[3]**
- 6. Inklyuziv ta’lim texnologiyasi D.S.Qaxarova Toshkent. 2014**

**МАХСУД ШАЙХЗАДЕ — САМООТВЕРЖЕННЫЙ СЛУЖИТЕЛЬ
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ**

**MAQSUD SHAYKHZODA – A DEVOTED SERVANT OF NATIONAL
LITERATURE**

Bazarbayev Birodar Qadamboy o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti

“Transport tizimlari boshqaruvi”

fakulteti

Bakalavr 3-bosqich

bazarbayevbirodar@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqola o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandalaridan biri, milliy adabiyotning fidoyisi bo‘lmish Maqsud Shayxzodaning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan. Tadqiqotda Shayxzodaning shaxsiy va intellektual rivojlanishi uning yashagan davrining tarixiy sharoitida, jumladan, Sovet davridagi ijtimoiy-siyosiy qiyinchiliklar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Maqsud Shayxzodaning milliy va madaniy qadriyatlarga bo‘lgan sadoqati, uning haqiqatni himoya qilishdagi jasorati va qat’iyati, shu davrning qiyinchiliklariga qaramay, adolatga bo‘lgan sodiqligi alohida ta’kidlanadi. Ushbu maqolada Shayxzodaning hayoti va ijodi o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish, shuningdek, uning shaxsiy tajribalari va ta’limi uning badiiy ijodiga qanday ta’sir qilgani haqida mulohazalar mavjud. Shuningdek, maqolada yozuvchi shaxsiyatining va badiiy asarlarining o‘zaro aloqasi, shaxsiy qiyinchiliklarning ijodiy jarayonni qanday shakllantirishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalt so‘zlar: Maqsud Shayxzoda, o‘zbek adabiyoti, milliy adabiyot, biografiya, Sovet davri, badiiy integritet, shaxsiy tajriba, madaniy qadriyatlар, repressiya, intellektual rivojlanish, badiiy an’ana, Maqsud Shayxzodaning asarlari.

Annotation

This article focuses on the life and works of Maqsud Shayxzoda, a prominent figure in Uzbek literature, who is recognized as a dedicated advocate of national literature. The study examines Shayxzoda's personal and intellectual development within the historical context of his time, including the socio-political challenges he faced during the Soviet era. It highlights his commitment to national and cultural values, his integrity, and his unyielding devotion to truth despite the harsh realities of the era. Through his life story,

the article explores how Shayxzoda's personal experiences and education shaped his literary contributions and how he remained steadfast in his beliefs, even in the face of repression. The article also emphasizes the importance of understanding the relationship between an author's biography and their literary works, offering insights into how personal hardships can influence creativity and artistic expression.

Keywords: Maqsud Shayxzoda, Uzbek literature, national literature, biography, Soviet era, literary integrity, personal experience, cultural values, repression, intellectual development, literary advocacy, literary tradition, Maqsud Shayxzoda's works.

Аннотация

Статья посвящена жизни и творчеству Максуда Шайхзоды, выдающегося деятеля узбекской литературы, который считается преданным защитником национальной литературы. Исследование анализирует личностное и интеллектуальное развитие Шайхзоды в историческом контексте его времени, включая социально-политические трудности, с которыми он столкнулся в советскую эпоху. В статье подчеркивается его приверженность национальным и культурным ценностям, его честность и непоколебимая приверженность истине, несмотря на суровые реалии того времени. Через его биографию исследуется, как личный опыт и образование Шайхзоды сформировали его литературное наследие, а также как он оставался верным своим убеждениям, несмотря на репрессии. Статья также акцентирует внимание на важности понимания связи между биографией автора и его произведениями, предлагая идеи о том, как личные трудности могут влиять на творчество и художественное выражение.

Ключевые слова: Махсуд Шайхзода, узбекская литература, национальная литература, биография, советская эпоха, литературная целеустремленность, личный опыт, культурные ценности, репрессии, интеллектуальное развитие, литературная традиция, произведения Махсуд Шайхзоды.

Всякая национальная художественная мысль живёт в просторах общечеловеческого художественного творчества, дышит его воздухом. Следовательно, народ, который умеет ценить и брать пример с великого духовного наследия, принадлежащего всему человечеству, сам постепенно становится частью этого духовного мира. Выдающийся сын Азербайджана, один из великих поэтов узбекского народа — Махсуд Шайхзаде — оставил после себя значительное литературное наследие благодаря своей научной и художественной деятельности. Его бессмертные стихи, поэмы, глубоко запавшие в сердца народа, стали жемчужинами узбекской литературы. Поэт, ставший своим для узбекского народа, занял достойное место в художественно-эстетическом сознании нации. Имя Махсуда Шайхзаде вызывает в воображении образ искреннего, обаятельного человека с яркими,

темпераментными чертами. Пусть мы и не видели поэта физически, но его произведения обладают силой вызывать именно такие чувства. Неудивительно, если в бессмертных героях нации, таких как Мирзо Улугбек или Джалолиддин Мангуберди, которых он создал в своих произведениях, воплощены лучшие качества личности самого поэта.

Увидеть следы личности автора в художественном тексте — не такое уж трудное дело. В каждом произведении скрыты частицы творческого "я" писателя, в нём отразилось настроение эпохи и личные переживания автора как человека.

Небольшая близость к «я» Шайхзоды и более глубокое изучение его личности побудили нас к размышлению. В литературоведении проблема личности творца является ключевой эстетической категорией. Личность автора исследуется в философии, истории, психологии, литературоведении и других науках. В произведении творца естественно проявляются такие факторы, как время, социально-политическая ситуация, литературная среда, семья и личные отношения. Maqsud Shayuxzoda — поэт, который пережил много трудных моментов и жил жизнью, полной испытаний и трудностей. Однако, несмотря на тяжелые жизненные испытания, он остался верен своему «я». Абдулла Кодирий, характеризуя личность, говорит: «Человек, чья личность неполна, не может победить других». Действительно, творец с неполной личностью не может создать совершенное художественное произведение. Только тот, чья личность цельна, не предает слова и не продает их, что является очевидной истиной. Так как же великий поэт Шайхзода добился этого? Откуда он черпал человеческие ценности, такие как просвещение, духовность нации, свобода и независимость, как он их выражал и каким образом показывал это в своих произведениях? Для нас это привело к размышлениям о его биографии, так как любое феноменальное явление не возникает само по себе, а является частью народа, поколения и общества. Изучение биографии творца в связи с его произведениями является важным инструментом для понимания тех аспектов, которые ранее могли остаться без должного внимания. Как говорил основатель биографического метода Сен-Бев: «Каждое художественное произведение — это говорящий субъект, и мы не должны отделять автора от его произведения». Жизнь и внутренний мир творца, его переживания и чувства обязательно оставляют след в каждом его произведении. На самом деле, художественное произведение — это копия разума творца. Творец — это не просто биологическое, социальное существо, но и личность с внутренним миром, переживаниями, отражающими дух своего времени.

Как подчеркивают психологи, ребенок накапливает основное знание до пяти лет, и в течение всей жизни использует этот «сокровищный» запас, пополняя его новыми знаниями и опытом. Не зря говорят: «Что ты получаешь в молодости, пишешь на камне». Таким образом, основными источниками воспитания ребенка являются семья и окружение. Великие русские поэты, как воспитатели Пушкина, дедушки Ойбека,

бабушки Х. Олимжон, Ч. Айтматова и другие, играли важную роль в формировании духовного «сокровища», развитии мировоззрения будущих творцов и направляли их к точной цели.

Семья Шайхзоды, безусловно, служила ему школой совершенствования. Каждое поколение, семья, род приносит в мир великих людей, которые, поддерживая избранный талант, становятся источником силы для его развития. Этот великий и важный процесс трудно осознать сразу, так как он происходит постепенно, незаметно для нас. Эти люди, вдохновленные великой душой народа, становятся философами, чья сила и мудрость передаются через поколение. Так, важнейшие воспитатели и наставники в жизни каждого из нас — это наши бабушки, дедушки, родители и другие родственники. Они помогают нам сформировать наше наследие, передавая знания о языке, религии, истории, философии и мифах нашего народа. Эти учителя становятся носителями духовного мира, который и формирует нас. В этом процессе старшие члены семьи вживляют в сердце ребенка философию народа, его мифы и афоризмы, тем самым формируя у него стойкое чувство национальной идентичности, которое является основой для дальнейшего развития. Один из великих сказал, что «человеческое мышление выполняет роль черного ящика», и в этом есть большая правда. Изучая жизнь Махсудб, мы исследовали как биографию, составленную им самим, так и воспоминания окружающих его знакомых. Во-первых, стоит отметить, что важно учитывать время, в котором жил и творил поэт. Во-вторых, как отмечает академик Н. Каримов, поэт по-разному трактовал жизненные факты своей биографии. В-третьих, поэт, живший в советскую эпоху, безусловно, адаптировал свою биографию под требования времени. В-четвертых, эти годы были временем идеологического господства и политической пропаганды, когда литература и искусство стали служить исключительно идеологии. Поэтому, возможно, поэт опустил некоторые факты своей биографии. В этот период говорить правду стало необходимостью, но также и трудностью. Именно поэтому поиск личности поэта среди его собственных произведений, ощущение его духа, осознание его внутреннего мира является одной из задач литературоведения. Отец поэта, Маъсумбек, был одним из просвещенных людей своего времени. Несмотря на то, что его профессия была врачебной, он стал одним из организаторов новых школ в городе Огдош. Маъсумбек окончил медицинский факультет Петербургского университета. Мать поэта, Фотимаханым, также была образованной женщиной, окончила женскую гимназию в Тифлисе и обладала знаниями в области науки и образования своего времени. У них было пятеро детей, и Maqsudbek выделялся среди них своим острым умом и решимостью. В источниках также встречаются сведения о его кормилице Сабохон-ҳаним, что также могло сыграть свою роль в мировосприятии поэта.

По системе образования, основанной на знаниях, полученных в таких учебных заведениях, как «рушдия», «усули савтия» и «дорул урфон», поэт учился под

руководством своего наставника Мухтор Афандизода. В начальной школе, которую он посещал, преподавались как религиозные науки, так и дисциплины, такие как «хусни ахлок» (прекрасная нравственность). Таким образом, светлая искра просвещения, зажженная его родителями, была связана с служением народу и стала примером для поэта. Его приверженность идеям нации и просвещения стала для него наследием, переданным родителями, и достойный сын воспринял это наследие. Однако, в сложные исторические процессы и эпохи ложных истин, поэт, как и многие другие, столкнулся с трудностями, вызванными необходимостью сохранить свою идеологическую честность в трудные годы. Его честность, патриотизм и твердость убеждений противоречили интересам правящей идеологии, и это привело к тому, что пути поэта были прерваны, а его имя подвергалось нападкам. В эти годы люди пытались выжить, продавая друг друга. В это время узбекские интеллигенты переживали тяжелые испытания. 30-е годы стали для узбекских творцов временем жестоких репрессий. Понятий личности больше не существовало, ее подавляли. Люди были вынуждены мыслить одинаково, писать одинаково, думать одинаково. Национальная гордость была обесценена. Литература, в своем истинном смысле, оторвалась от личности. Интеллигенты, являвшиеся «цветом нации», стали жертвами массовых репрессий, а затем, в эпоху культа личности, еще раз стали жертвами политических чисток. Доля Шайхзода была переплетена с этими двумя трагическими событиями. По требованию времени творцы сталкивались лицом к лицу с выбором между верностью своей совести и требованиями власти. Однако, несмотря на все эти испытания, поэт, как истинный интеллигент, сумел сохранить свою внутреннюю целостность и не сломался.

Из известных источников следует, что многие из наших интеллигентов были вынуждены изменить свою совесть, однако Шайхзода остался верным себе. В это время некоторые непорядочные люди пытались принизить поэта, чтобы спасти себя, предав его доверие. Но поэт не стал осуждать их, а проявил терпимость. Стихотворение поэта «Нет, я не умер!» стало важным источником, который раскрывает концепцию жизни самого поэта. Нет, я не умер! Нет, я не умер! Моя жизнь — великая пыльца, я еще не завершил свой путь. Я живу в своих детях, я посеял их в своих трудах, Я живу в нерушимом мече, я не угасаю в несломленной руке пера. В этом стихотворении поэт выражает свою надежду через «нерушимый меч» и «неугасающее перо». Действительно, как и предсказал поэт, его перо никто не уничтожит, и оно, как свет в памяти человечества, оставит яркий след в художественном сознании нации. Когда многие боялись упомянуть имя Абдуллы Кодирия, Шайхзода, преодолевая страх, откровенно свидетельствовал и выражал уважение к памяти писателя. В одном из источников о Кодирии говорится, что, когда Шайхзода разговаривал с несколькими людьми, кто-то спросил его: «Зачем ты разговариваешь с ними, ведь они те, кто клеветал на тебя?» Шайхзода, подумав,

ответил: «Оставьте их, это слабые люди». Это оценка, которую поэт дал своим конкурентам. Это еще один важный факт, который свидетельствует о великих качествах личности Шайхзоды. Поэт, который был сослан в Ташкент, всегда считал Узбекистан своей родиной. Даже в годы репрессий он не искал путей ухода и избегания ответственности. Народ, который был с ним, высоко оценил его и воздал ему должное уважение. Итак, тот, кто служит народу, не останется незамеченным.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Закиров Мю Максуд Шайхзода. Литературно-критический очерк. – Ташкент, 1969 г.
2. Юсуф Шомансур. Шайхзода — созиатель поэзии. – Ташкент, 1972 г. – 179 стр.
3. Максуд Шайхзода. Сердце поэта внемлет миру (Избранные произведения). – Ташкент: «Нихол», 2008 г. – 28 стр.
4. История узбекской литературы XX века. – Ташкент, 1999 г. – 25 стр.
5. Гафуров И. Дружеский поэт. Творчество Максуда Шайхзоды. – Ташкент, 1975 г. – 215 стр.

**MAKTABDA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHNING INNOVATSION
USULLARINI JORIY ETISHNING NAZARIY ASOSLARI**

Sayidmirzayeva Gulnora G'aytarovna

Abstract (EN): This article explores the theoretical foundations of introducing innovative methods into the management of education quality in schools. It highlights the importance of systemic, reflective, and adaptive approaches in reforming school leadership practices. The study emphasizes the integration of modern technologies, constructivist pedagogy, and transformational leadership theories in ensuring effective governance. It concludes that innovation in school management is not limited to digital tools but involves a broader change in thinking and institutional culture.

Keywords (EN): Educational management, innovation, school leadership, quality assurance, constructivism, digital transformation, transformational leadership

Annotatsiya (UZ): Ushbu maqolada maktabda ta'lism sifatini boshqarishda innovatsion usullarni joriy etishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tizimli, reflektiv va o'zgaruvchan yondashuvlarning ta'lism boshqaruvi samaradorligini oshirishdagi o'rni ko'rsatib o'tiladi. Zamonaviy texnologiyalar, konstruktivistik pedagogika va transformatsion liderlik nazariyalarini boshqaruvga integratsiya qilish ta'lism sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Xulosa o'rnila, innovatsiya faqat vosita emas, balki fikrlash va boshqaruv madaniyatini o'zgartirish vositasi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar (UZ): Ta'lism boshqaruvi, innovatsiya, maktab rahbarligi, sifat nazorati, konstruktivizm, raqamli transformatsiya, transformatsion liderlik

Аннотация (RU): В статье рассматриваются теоретические основы внедрения инновационных методов в управление качеством образования в школах. Особое внимание уделяется системному, рефлексивному и адаптивному подходам к реформированию управленческой практики в образовании. Подчеркивается важность интеграции современных технологий, конструктивистской педагогики и теории трансформационного лидерства для обеспечения эффективного управления. Делается вывод, что инновации в школьном менеджменте предполагают не только цифровые инструменты, но и изменение мышления и культуры управления.

Ключевые слова (RU): Управление образованием, инновации, школьное лидерство, контроль качества, конструктивизм, цифровая трансформация, трансформационное лидерство

Maktabda ta'lism sifatini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etishning nazariy asoslari zamonaviy pedagogika, boshqaruv nazariyasi va texnologik

taraqqiyotning uzviy uyg‘unlashuvi asosida shakllanadi. Ta’lim sifati nafaqat bilim darajasi bilan, balki o‘quvchilarning ijodiy fikrashi, hayotga moslashuvchanligi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan ham o‘lchanadi. Shu boisdan maktab ta’limida innovatsion yondashuvarlar — yangicha fikrash, samarali metodikalar va raqamli vositalardan foydalanish orqali boshqaruv tizimiga chuqur singdirilishi lozim.

Innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish nazariy jihatdan bir necha tayanch tamoyillarga tayanadi. Birinchidan, tizimlilik tamoyili asosida ta’lim jarayoni va boshqaruv mexanizmlari yagona tizim sifatida qaraladi. Ikkinchidan, reflektiv yondashuv orqali o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashga tayyorligi, o‘quvchilarning fikrash darajasini baholash va jarayonni tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Uchinchidan, o‘zgaruvchanlik tamoyili asosida innovatsiyalarni qabul qilish, ularni amaliyatga tatbiq etish va doimiy yangilanishga tayyorlik muhim o‘rin egallaydi.

Boshqaruv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xususan, sun’iy intellekt, raqamli platformalar va ma’lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, elektron kundaliklar, onlayn test tizimlari, o‘quvchilar faoliyatini avtomatik monitoring qilish tizimlari maktab boshqaruvchilari uchun real vaqt rejimida aniq ma’lumotlar bilan ishlash imkonini yaratadi. Bu esa qaror qabul qilishda anqlik va tezkorlikni ta’minlaydi.

Innovatsion boshqaruv nazariyasi, shuningdek, yetakchilik va kollaboratsiyani rivojlantirishga asoslanadi. Maktab direktorlari, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida ochiq muloqot va fikr almashinuvi orqali umumiylar maqsad sari harakat qilishga erishiladi. Yetakchilikning zamonaviy modeli — xizmatkorlik yetakchiligi (servant leadership) — asosida rahbarlar jamoaning ehtiyojlarini tushunib, ularni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshqaruvdagagi innovatsiyalar, nazariy jihatdan, pedagogik dizayn va didaktik konsepsiylar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular orqali o‘quv dasturlari qayta ko‘rib chiqiladi, shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga e’tibor kuchayadi. Bunda zamonaviy ta’lim nazariyalarini, jumladan, konstruktivizm, ko‘nikmaga asoslangan o‘qitish (competency-based learning) va differensial yondashuvarlar asosiy o‘rin tutadi.

Bunday yondashuvda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish jarayonini yo‘naltiruvchi murabbiy sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, boshqaruvda innovatsion metodlar — masalan, loyiha asosida o‘qitish, muammo yechishga yo‘naltirilgan ta’lim, vazifalar orqali o‘rgatish (Task-Based Learning) — o‘quvchilarning faolligini oshirishda katta samara beradi. Bu yondashuvarlar nazariy jihatdan Vygotskiyning ijtimoiy-ta’limiy rivojlanish nazariyasi, Deweyning tajriba orqali o‘rganish konsepsiysi va Banduraning o‘z-o‘zini boshqarish g‘oyalari bilan mustahkamlanadi.

Shuningdek, maktab boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvarlar kiritilishi uchun rahbarlar strategik fikrash, tashabbuskorlik va muammolarga kreativ yechim

topish qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak. Bunday rahbarlar faqat mavjud holatni saqlab qolish bilan cheklanmay, balki yangilanishga intiladi, o‘quv muassasasi ichida o‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun innovatsion muhit yaratadi.

Innovatsion boshqaruvning nazariy asoslaridan yana biri bu o‘quvchilarning ehtiyojlari va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish orqali individual rivojlanish trayektoriyalarini tashkil etishdir. Bunda boshqaruv tizimi har bir o‘quvchining qiziqishi, iste’dodi va rivojlanish sur’atiga mos ta’limni ta’minlash uchun moslashuvchan va dinamik bo‘lishi kerak. Bu esa mакtabdagi menejment modelini byurokratik yondashuvdan insoniy va shaxsga yo‘naltirilgan boshqaruvga o‘zgartirishni taqozo etadi.

Oxir-oqibatda, innovatsion boshqaruv nafaqat maktab ichki faoliyatini optimallashtirish, balki butun jamiyatda raqobatbardosh kadrlar yetishtirishga xizmat qiladi. Bunday tizim asosida faoliyat yuritayotgan maktablar ta’lim sifatini oshirishda ilg‘or tajribaga ega bo‘lib, boshqa muassasalarga ham ijobiylar ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, innovatsion usullarni joriy etish faqat yangi texnologiyalarni qo’llash bilan emas, balki butun ta’lim tizimini qayta fikrlash va yangi nazariy g‘oyalar asosida shakllantirish bilan bog‘liqdir.

Innovatsion boshqaruv tizimining samarali bo‘lishi, avvalo, ushbu tizimga oid nazariy asoslarning amaliyotga moslashuvi bilan chambarchas bog‘liq. Ta’limda boshqaruv sifatini oshirishda tizimli yondashuv (sistemali menejment) asosiy o‘rinni egallaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, maktabni yagona ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida ko‘rish zarur bo‘lib, uning barcha qismlari o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat yuritishi kerak (Xodjayev, 2021).

Raqamli texnologiyalar bilan boyitilgan innovatsion metodlar orqali ta’lim jarayoni an’anaviydan farqli ravishda moslashuvchan, shaxsga yo‘naltirilgan va natijaga yo‘naltirilgan tus oladi. Masalan, Learning Management System (LMS), elektron baholash tizimlari va sun’iy intellektdan foydalangan holda ta’lim jarayonini monitoring qilish, o‘quvchilarning faolligini doimiy ravishda baholash imkonini beradi (Tursunova, 2022). Bu holat ta’lim jarayonida ishtirok etayotgan barcha tomonlar faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

Ta’lim boshqaruvida zamonaviy liderlik modeliga asoslangan innovatsion yondashuvlar, ya’ni transformatsion liderlik, xizmatkor liderlik va distributiv liderlik modellari alohida e’tiborga loyiq. Ushbu yondashuvlar rahbarning nafaqat farmoyish beruvchi, balki ilhomlantiruvchi, o‘rgatuvchi va ko‘makchi sifatida faoliyat yuritishini talab qiladi (Yuldasheva, 2023). Bunday rahbarlik uslubi pedagoglarni o‘zgarishga undaydi, jamoaviy ishga rag‘batlantiradi va o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ro‘yogda chiqaradi.

Pedagogik innovatsiyalar nazariy jihatdan zamonaviy ta’lim falsafasiga asoslanadi. Masalan, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilimlar tayyor shaklda

berilmaydi, balki o‘quvchining faol ishtiroki orqali hosil qilinadi. Bu yondashuvda boshqaruv tizimi ham passiv nazorat qilishdan ko‘ra, faollashtiruvchi va yo‘naltiruvchi rolni bajaradi (Karimova, 2020). Shu orqali maktab ichki muhitida o‘zaro ishonch, erkin fikr almashish va innovatsion faoliyat uchun qulay sharoit yaratiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, innovatsion boshqaruv usullarining nazariy asoslari — bu nafaqat zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, balki pedagogik yondashuvlarni, rahbarlik strategiyalarini va ijtimoiy-psixologik omillarni uyg‘unlashtirish demakdir. Maktabda ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan har qanday innovatsion islohot, birinchi navbatda, chuqur nazariy tahlilga, ilmiy asoslangan yondashuvlarga va tizimli rejalashtirishga tayanishi kerak. Shundagina innovatsion yondashuvlar amalda o‘zining ijobiy natijasini beradi va kelajakda zamonaviy, raqobatbardosh jamiyatni barpo etishda maktab muhim poydevor sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Maktabda ta’lim sifatini boshqarishda innovatsion usullarni joriy etish – bu zamonaviy jamiyat ehtiyojlariga mos keladigan ta’lim tizimini shakllantirishning muhim omilidir. Ushbu yondashuvlar nafaqat texnologiyalarni tatbiq etishni, balki o‘quvchilar, o‘qituvchilar va rahbarlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yangi sifat darajasiga olib chiqishni ham nazarda tutadi. Innovatsion boshqaruv nazariyalari asosida maktabda o‘quv muhitining ijtimoiy-psixologik jihatlari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar va zamonaviy liderlik konsepsiyalari uyg‘unlashadi. Ular orqali ta’lim sifati tizimli ravishda oshadi, o‘quvchilar shaxsiy rivojlanishga yo‘naltiriladi va o‘quv muassasasi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi yetakchi institutga aylanishi mumkin. Shu sababli, innovatsion usullarni faqat vosita sifatida emas, balki maktabni boshqarishda yangicha tafakkur va tizimli yondashuv sifatida qabul qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xodjayev A. (2021). Ta’lim tizimida boshqaruvning innovatsion yondashuvlari. Toshkent: Ilm Ziyo nashriyoti.
2. Tursunova N. (2022). Raqamli ta’lim texnologiyalarining ta’lim sifatiga ta’siri. O‘zbekiston pedagogika jurnali, 4(12), 45–52.
3. Yuldasheva M. (2023). Zamonaviy liderlik nazariyalari va ularning maktab boshqaruvidagi o‘rni. Ta’lim menejmenti jurnali, 2(7), 33–40.
4. Karimova D. (2020). Konstruktivistik yondashuv asosida ta’limni tashkil etish usullari. Zamonaviy pedagogika va innovatsiyalar, 3(6), 17–25.
5. Dewey J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan. (O‘zbek tiliga tarjimasi: “Tajriba va ta’lim”, 2021).

6. Vygotsky L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
7. Fullan M. (2001). *Leading in a Culture of Change*. San Francisco: Jossey-Bass.
8. OECD (2019). *Innovating Education and Educating for Innovation: The Power of Digital Technologies and Skills*. Paris: OECD Publishing.

**THE EVOLUTION OF ECONOMIC FORECASTING PRACTICES: A 2025
PERSPECTIVE**

Abdullaev Ibrohimjon

*Doctoral Candidate, Lincoln University Financial Management and Investment
“She has already finished her homework.” In this example, ‘has’ and “finished” are grammatically related, but “finished” carries more stress because the key word that conveys the meaning of the sentence.

*Sentence Stress: Sentence stress refers to the emphasis placed on certain words (nouns, main verbs, adjectives and adverbs) are usually stressed because they carry the key meaning of the sentence. Function words (articles, prepositions, auxiliary verbs) are typically unstressed because they do not carry the main meaning, but help with the structure of the sentence.

Example:

“I went to the store yesterday.” In this sentence, “went” and “store” are stressed because they carry the main meaning. Words like “I”, “to”, and “the” are not stressed, as they are function words.

Relationship:

Grammatical stress and sentence stress are related in that sentence stress demonstrate which words in a sentence are emphasized, including how grammatical elements like auxiliary verbs and prepositions may or may not stressed.

While grammatical stress concentrates on the function of words in the sentence structure, sentence stress helps highlight the key words that carry the main meaning of the sentence.

Logical Emphasis.

Logical emphasis refers to the stress placed on certain words in a sentence to convey a particular meaning or to highlight important information. For instance, in the sentence “I did not say he stole the money,” the words did not and stole accept emphasis to clarify the intended meaning. Logical emphasis is often used to correct misunderstandings or to express emotions like amazement or rage.

Intonation in English.

Intonation refers to the variation in pitch while speaking. It plays a significant role in conveying emotions, mindset, and intentions. The way pitch increases and falls in a sentence can alter its meaning or even make it sound more courteous or rude. English intonation patterns are closely linked to the melody of speech, making it important for learners to understand and master them for effective communication.

Different Types of Intonation.

English features various distinct intonation patterns, including:

***Rising Intonation:** This happens when the pitch increases towards the end of a sentence, typically used in yes-no questions or when the speaker is uncertain. For example, “Are you coming?” The rising pitch indicates it is a question.

***Falling Intonation:** The pitch decreases at the end of the sentence. This is commonly used in statements, commands, and wh-questions (e.g. “Where are you going?”). Falling intonation suggests competition or certainty.

***Rising-Falling Intonation:** a pattern in which the pitch of the voice first rises and then falls within a sentence. This type of intonation is often used to express certainty, strong emphasis, or to convey complete thoughts, especially in statements, commands, or when making lists. (“I want to go to the store, not the park.”)

Uses of Rising-Falling Intonation:

1. Statements of fact: Rising-falling intonation is commonly used in declarative sentences to indicate a statement or fact.

*She arrived on time.

2. Emphasis or Strong Feelings: It is used to emphasize certain words or ideas, especially when the speaker wants to strongly highlight something.

*I love this movie!

3. Commands and Requests: Rising-falling intonation can give a more forceful tone to requests or commands, showing authority or certainty.

*Please close the door.

4. Lists: When listing items, rising-falling intonation can be used at the end of each item to express completion of the list.

*I need bread, milk, and eggs.

Falling-Rising Intonation is a pattern of intonation where the pitch of the voice rises and then falls within a sentence. This type of intonation is typically used to express contrast, uncertainty, or to indicate that the speaker is persisting their thought. It often occurs in more complex sentences, particularly in cases where there is emphasis on a particular part of the sentence.

Examples of Falling-Rising Intonation: *I want to go to the store, not the park.

Uses of Falling-Rising Intonation:

1. Contrast: The rise and fall of pitch help to highlight a contrast or comparison between two ideas.

*I like coffee, but I prefer tea.

2. Uncertainty or Hesitation: It can signal that the speaker is unsure or has not fully decided.

*I think I might go to the party later.

3. Politeness: It can often soften the message, making it sound less direct or more polite.

*I could help you with that if you need it.

Pause and Melody.

Pauses in speech contribute to rhythm and clarity. A well-timed pause can allow the listener to process information and separate between different parts of a sentence. For example, the sentence “I am going to the store to buy some fruit” can be understood more clearly with a brief pause after “store” to distinguish the two actions. Melody in speech refers to the overall pattern of pitch changes that occur across a sentence or discourse. It helps to indicate mood and emotional states, such as excitement or sadness.

Speech Styles

Different speech styles (e.g. formal, informal, academic) require varying levels of stress and intonation. In formal speech, grammatical stress and falling intonation are common, whereas in informal speech, rising intonation and logical emphasis are more regular. Advanced learners need to modify their speech based on the context to sound natural and suitable.

Grammatical Categories

Grammatical categories like tense, aspect, modality, and question forms often influence intonation patterns. For instance, a rising intonation pattern is commonly used in yes-no questions, while falling intonation is used in wh-questions.

Challenges for Language Learners

Many language learners contend with mastering stress and intonation due to differences between their native language and English. Some languages do not use stress or intonation in the same way, leading to misunderstandings. Common issues include

incorrect word stress, which can change the meaning of a word, and inappropriate intonation patterns that may confuse the listener.

Tips for Overcoming Challenges:

Regular practice with native materials such as listening to podcasts, watching videos can help learners understand and internalize proper stress and intonation patterns.

CONCLUSION

In conclusion, stress and intonation are integral features of English pronunciation and play a significant role in effective communication. Mastering these features is crucial for language learners who wish to sound natural, fluent, and expressive in their speech. By understanding the different types of stress and intonation patterns, learners can upgrade both their speaking and listening skills. Regular practice, imitation of native speakers, and focused exercises can help learners overcome common challenges and master stress and intonation for clearer, more natural speech. Mastering stress and intonation is essential for effective communication in English. Word stress and sentence stress help learners emphasize key words, conveying meaning and ensuring clarity. Grammatical stress ensures correct sentence structure, while lexical stress distinguishes between different meanings of words. Intonation, including rising, falling and rising-falling patterns, plays a crucial role in expressing emotions, intentions, and emphasis. English learners may face challenges due to differences in rhythm and stress patterns between languages. However, with practice and awareness, learners can improve their speech, sound more natural, and convey their intended message accurately. Understanding these features enhances both fluency and comprehension, facilitating more effective communication in various contexts.

REFERENCES:

1. Brazil, D (1997). *The Communicative Value of Intonation in English*. Cambridge University Press.
2. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language*. Cambridge University Press.
3. Gussenhoven, C. (2004). *The Phonology of Tone and Intonation*. Cambridge University Press.
4. Hirst, D and Di Cristo, A. (1998). *Intonation Systems: A Survey of Twenty Languages*. Cambridge University Press.
5. Jones, D. (1967). *The Pronunciation of English*. Cambridge University Press.
6. Kelly, G. (2000). *How to Teach Pronunciation*. Pearson Education.
7. Ladefoged, P. (2001). *Vowels and Consonants: An Introduction to the Sounds of Language*. Blackwell Publishers.

8. Roach, P. (2000). English Phonetics and Phonology: A Practical Course. Cambridge University Press.
9. Schreiber, B. (2017). English Pronunciation for International Students. Routledge.
10. Underhill, A (2005). Sound Foundations: Learning and Teaching Pronunciation.
11. Wells, J. C. (2000). Longman Pronunciation Dictionary. Pearson Education.

**AVTOMOBILLARNING SALONINI SOVUTISHDA YONILG'INI TEJASHDA
QUYOSH ENERGIYALARIDAN FOYDALANISH.**

Qosimov Ilhomjon .

Andijon davlat texnika instituti

Avtomobilsozlik va transport kafedrasi o'qituvchisi

Yilning eng issiq fasli – yoz bo'lib, bunday sharoitda kishi organizmining yashash qobiliyati birmuncha susayishi kuzatiladi. Bizga ma'lumki, me'yordan ortiqcha issiqlik ko'p hollarda organizmga zararli ta'sir ko'rsatib, og'ir holatlarda esa issiq elitishi yoki oftob urishiga olib keladi [1].

Ma'lumki, odam organizmi hayot faoliyati mobaynida o'zidan issiqlik chiqaradi. O'rta og'irlikdagi mehnat bilan shug'ullanganda soatiga 300 kkal atrofida og'ir ishlar bilan mashg'ul bo'lganda esa 600 kkal va undan yuqori issiqlik ishlab chiqarilishi aniqlangan. Dunyoda juda ko'p og'ir va mashaqqatli kasb - hunarlar bisyor bo'lib, shulardan biri transport vositalari haydovchilaridir. Ular yurtimizning barcha hududlarida aholiga xizmat qilib kelmoqdalar. Ayniqsa, ularning mehnati yozning jazirama issiq kunlarida og'ir kechishi hammaga ma'lum bo'lsa kerak. Ularning ish joyi (boshqaruv kabinasi) havo ekologik holati, tashqaridagi havo muhitidan anchagina og'ir, murakkab sharoiti bilan ajralib turishini kuzatamiz [2].

Masalan, haydovchi o'z organizmidan chiqadigan issiqlikka, kabina ichidagi dim havo issiqligi, dvigateldan taralayotgan issiqlik, old oynadan tushib turgan issiq quyosh nuri, asfalt va shina issiqliklari, tashqaridagi havo issiqligi, atrofdagi yuzlab transport vositalari taratayotgan issiqlik, tinimsiz ishlab turgan bosh, ko'z, qo'l, oyoq harakati tufayli ajraladigan issiqliklar qo'shilib, kabina havo issiqligini vujudga keltiradi. Odatda, havo harorati 18-24°C gacha bo'lganda, haydovchi uchun eng qulay havo harorat hisoblanadi [3]. Kabinaning ichi issib ketganda haydovchining aqliy qibiliyati yomonlashadi va reaktsiya vaqtি ham kattalashib ketadi. Havo harorati 17°C dan kam bo'lganda odamning tanasi soviy boshlaydi. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, yengil avtomobil ichidagi havo harorati tashqaridagi havo haroratidan 4-12°C ga katta, yuk avtomobillarda esa hatto 20-30°C gacha borib yetar ekan[4].


Bunday ekologik muhitda ishlash kishidan juda katta kuch - quvvat, matonat, sabr - toqat, bardamlikni talab qiladi. Buning uchun avvalo haydovchining sihat - salomatligi yaxshi va irodasi kuchli bo'lishi kerak [5].


Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2006 yili Amerika Qo'shma Shtatining bir fuqarosi o'zi bilan farzandini yo'l-yo'lakay bolalar bog'chasiga tashlab o'tgani ishga o'zining avtomobili bilan otlangan. Lekin, o'sha fuqaroni yodidan ko'tarilib, o'zi bilan farzandini ish joyiga olib borgan va avtomashinasini qulflab ishga ketgan. Har tomonlama germetikligi yuqori bo'lgan avtomashinaning saloni to bora issib borgan, salondagi yosh

bolaning nafas olishi qiyinlashib xushdan ketib xalok bo‘lgan. Bu holatlar boshqa mamlakatlarda ham sodir bo‘lganligi aniqlangan [6].

Avtomobil harakatlanayotganda salonni savitish uchun qo‘srimcha kondensioner tizimi qo’llanilib, avtomobil Kondensioneri salondagi normal haroratni ta’minalash uchun xizmat qiladi. Kondensioner tizimi salondagi ortiqcha namlik va issiqlikni fizikaviy xususiyatlariga asoslanib, me’yoriy haroratni ta’minalaydi. Kondensioner ishlaganda dvigatel quvvatidan 6-10 ot kuchini olib, yonilg‘i miqdorini 5-10% ortiqcha sarflashga olib keladi [7].

Haydovchi avtomobilni ochiq holatdagi avtomobillarni saqlash maydonlariga qo‘yganda avtomobilning barcha eshik va oynalari jipsligi hisobiga salonning harorati tashqi muhit haroratiga nisbatan bir muncha ko‘tarilib ketadi. Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, haydovchi avtomobilning o‘rindig‘iga o‘tirib, salonni shamollatgunga qadar 3-5 daqiqa vaqt sarflaydi. Bu vaqt oralig‘ida havoning harorati haydovchiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Mana shu muammoni xal qilish uchun avtomobil salonining harorati bir xil haroratda bo‘lsa, haydovchi uchun bu qulayliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun biz avtomobil salonining haroratini bir xil darajada normallashtirishda “GM-Uzbekistan” avtomobillarida salonni sovutish uchun dvigatel yoki akkumulyator energiyalaridan emas balki, yorug‘lik energiyasidan foydalanishni tavsiya qilmoqchimiz. Buning uchun maxsus “Quyosh batareyasi” avtomobilning tom qismidagi “Lyuk”ga o‘rnataladi. Avtomobil saloniga maxsus qurilma o‘rnatalib, salonni sovutish tizimini tartibga maxsus qurilmasi yordamida salonni sovutish tizimidagi ventilyator ishga tushib, harorat 17-24 °C da ushlab turiladi [8]. Ventilyatorning ishlash sharoiti avtomobil salonining haroratiga bog‘liq bo‘ladi. Quyida “Uz Auto Motors” YoAJ avtomobillari uchun quyosh energiyasidan foydalanish usuli keltirilgan (4.6-rasm).






4.6-rasm. Nexia avtomobili misolida quyosh energiyasidan foydalanib, salonni sovutish tizimining printsipli sxemasi.

1-tizimni elektron boshqaruv bloki, 2-ventilyator, 3-havoni tozalash filtri, 4-akkumulyator batareyasi, 5-quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish qurilmasi,

6-havoning yo'nalishi, 7-termodatchik.

Bu tizim avtomobilni ichki salonini bir xil haroratda ushlab turishga mo'ljallangan bo'lib, haydovchi va yo'lovchilarni avtomobilga joylashgan paytda tana haroratini ko'tarilib ketmasligi va shuni natijasida kishida shamollash alomatlarini oldini olishga qaratilgandir [9].

Bizning mamlakatimiz Markaziy Osiyoning markazida joylashganligi va boshqa mamlakatlarga ko'ra nisbatan issiq o'lka bo'lib, mamlakatimizning barcha xududlarida turli xil iqlim sharoitini kuzatamiz. Bunga ko'ra yozning issiq kunlarida Andijon, Farg'onha, Namangan viloyatlarida harorat 30-35°C ni, Toshkent, Surxandariyo, Jizzax viloyatlarida harorat 32-37°C ni va Buxoro, Samarqan, Qashqadaryo viloyatlarida esa harorat 35-40°C ni tashkil etadi. Shuning uchun yuqorida keltirilgan haroratda avtomobillardan foydalanish haydovchiga qiyinchiliklar tug'diradi. Mana shu qiyinchiliklardan oz bo'sada holi bo'lish maqsadida biz taklif etayotgan bu tizimni ishlab chiqarib bo'lingan avtomobillarga o'rnatish uchun xususiy kichik ustaxona loyihalash rejalashtirilgan. U yerda avtomobillarga "Tyuning" xizmatini tashkillantirish va ish o'rinalarini yaratish ko'zda tutilgan.



a)



b)



c)


4.7-rasm. Tavsiya qilinayotgan quyosh panelining loyihasi.

Avtomobilarga o'rnatilayotgan Lyuk qurilmasi o'lchami **830 x 340** mm ni umumiy yuza **282200 mm²** ni tashkil qiladi.

Hozirda kremniy Quyosh elementlaridan tuzilgan fotogeneratorlar FIKti 12-13 % ni tashkil qiladi. Masalan, Quyosh nurlanishi zichligi **800 Vt/m²** bo'lganda bunday fotogeneratorlar **1 m²** yuzadan **100 Vt** quvvat beradi.

Shishadan qilingan shaffof qoplama va metaldan yasalgan taglik namlikka ancha chidamli bo'ladi [10].

Lyuk qurilmasining konstruktsiyasi



4.8-rasm. Tavsiya etilayotgan konstruktsiya loyihasi.

1-zichlagich, 2-lyuk elementi, 3-lyukni ochish mexanizmi,
4-lyukni qotirish buragichi, 5-lyuk oynasi, 6-germetik zichlagich, 7-lyuk o'zagi, 8-qorqoq.

ADABIYOTLAR ROYXATI (REFERENCES)

1. Ahmadjonovich, T. (2022). „rayev Shoyadbek Avtomobillarda ishlataladigan yuqori bosimli gaz ballonlarida ishlataladigan kompozitsion polimer materiallar taxlili. Ilmiy impuls.
2. Тўраев, Ш. А. (2021). Автомобиль втулкаларининг ҳар хил полимер материалларини ейилишини аниқлаш.
3. Тўраев, Ш. А. (2022). Автомобилларда ишлатиладиган пластик деталларига қўйиладиган талаблар ва уларнинг механик хоссаларини тадқиқ қилиш.
4. Shoyadbek, T. (2023). LACETTI GENTRA AVTOMOBILINING NAZORAT-OLCHOV ASBOBLARI PANELIGA GAZ BALLONLI MOSLAMA UCHUN DATCHIK ORNATISH LOYIHASI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(32), 79-81.
5. Axmadjonovich, T. R. S. (2023). YENGIL AVTOMOBILLARDA ISHLATILADIGAN DETALLARINING YEYILISHINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH. *Mexatronika va robototexnika: muammolar va rivojlantirish istiqbollari*, 1(1), 332-336.
6. Qosimov, I., & To'raev, S. (2023). ZAMONAVIY AVTOMOBILLARINING RUL TORTQILARIDA QO'LLANILADIGAN KOMPOZITSION POLIMER MATERIALLARI. *Scientific Impulse*, 1(10), 1854-1856.

7. Ahmadjonovich, T. R. S. A. I., & KOMPOZITSION, Y. B. G. B. I. (2022). POLIMER MATERİALLAR TAXLILI. Ilmiy impuls.
8. Axmadjonovich, T. S. (2023). KOMPOZIT POLİMER MATERİALLARNING Atrof-muhitga VA INSON SOG'LIGIGA TA'SIRI. *Galaxy xalqaro fanlararo tadqiqot jurnali*, 11, 666-669.

**ZAMONAVIY TA'LIMDA YOSHLARNING LIDERLIK QOBILIYATINI
SHAKLLANTIRISH**

Umrzaqova Gulchehra Abdurasuljon qizi

Yo'ldasheva Nigora Sodiqjon qizi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” Pedagogika fakulteti, Psixologiya (faoliyat turlari) 2-kurs talabalari.

Annotatsiya

Ushbu maqolada texnologik taraqqiyot davrida yoshlarda nafaqat o‘zini rivojlantira olish, balki jamiyatni ijobjiy o‘zgarishlarga chorlay olish qobiliyatlarini shakllantirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek liderlik qobiliyatlarining mohiyati, uni shakllantirish omillari va metodlari haqida fikr bildiriladi. Hamda hozirgi paytda yoshlar uchun liderlikka doir ta’lim va tarbiyaning muhim roli tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar

Liderlik xususiyatlari, liderlik qibiliyatları, hamkorlik, jamiyat, Amerikalik mutaxassis Warren Bennis, siyosatshunos James mac Gregor Burns, Jon Kuinsi Adams.

«Agar sizning harakatlarингiz boshqalarni ko’proq orzu qilishga, ko’proq o’rganishga va o’z ustida ishlashga ilhomlantirsa, u holda siz lidersiz».

Jon Kuinsi Adams.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimida qilinayotgan islohotlar, ularning maqsad va yo’nalishlari, bugungi kunda mamlakatimizning poydevorini mustahkamlashda, mamlakatimiz taraqqiyotida yurtimizning buyuk davlatga aylanishida ta’lim tarbiya ishlarini oqilona yo’lga qo'yish, fuqarolarni zamonaviy ilm fan, madaniyat, texnika va texnologiya yutuqlari bilan muntazam ravishda tanishtirib borish benihoya katta ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan yetuk, murakkab texnologik bilimlarni egallagan, irodasi baquvvat, iymoni butun, zamonaviy fikrlaydigan, yuksak salohiyatl odamlar hal etadi. Kelajak taqdirimizga ta’sir ko’rsatadigan asosiy omil - fan-texnika, ma’daniyat-ma’rifat, ta’lim-tarbiya hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar borasida yangiliklar va yutuqlarni, jahon mamlakatlari tajribalarini ke’ng ko’lamda o’rganish, rivojlantirish va hayotga tatbiq etish hisoblanadi.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan, axborot asri bo’lgan bu davrda, o’sib kelayotgan yosh avlodni zamonamizga mos tarzda ta’limning zamonaviy shaklida o’qitish, ularni texnologiyamizning yutuqlaridan unumli foydalanishga o’rgatish asosiy vazifa bo’lib, bunga o’qituvchi ustozlar malakasini yanada oshirish orqali erishish mumkin. Yoshlarimizda yuksak bilim, ma’naviy ijodkorlik, kreativlikka urg’u berish,

imkoniyatlarini oshirish, ularda liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish zamonning talabi va jamiyat rivojlanishi uchun muhim qadamlardan biridir.

Shuning barobarida zamonaviy ta'limni rivojlantirish uchun ta'lim tizimida yangi loyihamalar, yangi darsliklar va taraqqiyot asriga mos sohalarni rivojlantirishga urg'u berishni ko'rib chiqishdir. Bunda o'rta maktab yoshidagi o'quvchilarga o'z o'zini boshqarish, liderlik darslarini innovatsion usullarda ayni shu yoshidan o'rgatishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yomog'imiz kutilgan natijalarga erishish yo'lida ilk qadam bo'lsa ajab emas. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi faqat bilim berishdan iborat emas, balki o'zgaruvchan muhitda raqobatbardosh, innovatsion fikrflashga ega bo'lgan shaxslarni tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Bunda ta'lim muassasasi rahbarlarining liderlik qobiliyati va boshqaruvdagi samaradorligi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ta'limda liderlik bu – faqat boshqaruv emas, balki jamoadagi barcha a'zolarni birlashtirish, ularga ilhom berish va muvaffaqiyat sari yo'naltirish san'atidir.

• Inson o'zining qilayotgan ishidan mamnun bo'lishi, muvaffaqiyatga olib boradigan dastlabki ma'lumotlarni aniq bilishi, muvaffaqiyatlar uning hayotiga qanday foyda va ijobiy jarayonlarni, hislarni olib kelishini barvaqtroq anglashi, harakat qilishi, izlanishi, o'zi kabi tengdoshlariga motivatsiya bera olishi, psixologik nuqtai nazardan ham uning tan olinishi, o'ziga bo'lgan ishonchini yanada oshirib, yuksakroq marralarni egallashida turtki bo'ladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu esa bevosita yurtimiz ravnaqiga ham o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmay qolmaydi.

• Liderlik bu alohida shaxs, shu bilan birga guruhga ta'sir ko'rsata olish qobiliyati bo'lib, barchaning harakatlarini tashkilot maqsadlariga erishishga yo'naltiradi. Liderlik so'zining ma'nosi ingilizcha "lider" so'zidan olinib, tarjima qilinganida "rahbar", "qo'mondon", "yo'lboshchi", "yetakchi" degan ma'noga ega. Ma'lum muammoni yechishda guruh liderni ilgari suradi. Lidersiz hech bir guruh faoliyati yuqori natija ko'rsata olmaydi. Liderni ma'lum maqsad uchun kishilar guruhini birlashtira oladigan shaxs sifatida qarash mumkin.

• Liderlik xususiyatlari o'z ichiga jamoaga ta'sir qilish, maqsad va vazifalarini aniqlagan, xatti- harakatlariga mas'uliyat bilan yondashuvchi, jamoa bilan birdamlikda ishlovchi, ish jarayonini, an'analarni o'zgartiruvchi, umumiylar maqsadlar sari intiluvchi va o'z izdoshlarini tarbiyalovchi shaxslargina liderlik xususiyatlariga ega bo'ladi. Rahbarning xulqi, madaniyati va axloqi xodimlarga ta'sir etishning muvaffaqiyatini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi.

Liderlik qobiliyati - bu biror shaxsning yoki jamoaning ma'lum bir maqsad sari ilhomlantira olib va ularga ta'sir ko'rsata olish hamda boshqarish qobiliyati hisoblanadi. Lider shaxsda tashabbuskorlik, mas'uliyat hissi va empatiya yaxshi rivojlangan bo'lishi kerak. Liderlik har doim ham tug'ma bo'lavermaydi. Uni har doim har qanday yoshda shakllantirib rivojlantira olish mumkin.

Bu borada *Amerikalik - yetakchilik bo'yicha mutaxassis* Warren Bennis “Liderlar tug'ilmaydilar - ularni tarbiya qilish, o'rgatish mumkin. Har bir inson xos tarzda lider bo'la oladi, agar uning salohiyati ochilsa” deya e'tirof etgan.

Liderlik qobiliyatini shakllantirishda katta ta'sir etuvchi omillarga ijtimoiy, individual va psixologik omillarni kiritish mumkin.

Individual omillarga birinchi navbatda intellektual salohiyati, xarakter xususiyati temperamenti hamda shaxsiy motivlarini misol qilib keltirish mumkin.

Ijtimoiy omillarga avvalo oila muhitini qo'llab quvvatlay olishini, jamiyatdagi rolini, guruh ichidagi unga bo'lgan munosabatlarni kiritish mumkin.

Psixologik omillarga esa lider shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchi, stressga chidamliligi, har xil vaziyatlarda tez va to'g'ri qaror qabul qila olishi kabi xislatlarni shakllantirish kabilar kiradi.

Liderlikni shakllantirishda inson avvalo o'zini turli guruhlarda - mas'uliyatni zimmasiga olib qaror qabul qila olishi, muammoli vaziyatlarda mukammal yechimlar o'ylab topishi va jamoani boshqara olishi kabi holatlar bilan o'zini sinab ko'rishi tavsiya etiladi. Bunday vaziyatni birinchi bo'lib kichik guruhlarda sinab ko'rishdan boshlagan ma'qul.

Shaxs o'zida liderlikni shakllantirishda yetakchi liderlardan tavsiya va ko'nikmalar olib shaxsiy rivojlanishi ham mumkin.

Hozirgi paytda jamiyatdagi raqobatbardosh muhit, texnologik taraqqiyotdagi yoshlarning faolligi va tashabbuskorligi katta ahamiyatga ega bo'lmoqda. Shuning uchun yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish zarur hisoblanmoqda va bunda ta'lim va tarbiya muhim o'rin tutadi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida liderlikni rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaga katta e'tibor qaratilgan. Masalan: Singapurda liderlik dasturlari orqali rahbarlar strategik boshqaruv va o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

AQShda ta'lim rahbarlari uchun transformatsion liderlikka asoslangan maxsus dasturlar mavjud bo'lib, bunda innovatsiyalarni joriy etish va jamoani boshqarish o'rgatiladi.

Liderlikni ta'lim tarbiyadagi mohiyati faqat boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishgina emas, balki liderlikka nomzod shaxsda mustaqil fikrlay olish, qarorlar qabul qilish, jamoa bilan ishlay olish, auditoriyani ishonchini ola bilish, o'zida mas'uliyatni shakllantirish, muloqot madaniyatini rivojlantirish o'zgalarga hurmat ko'rsata bilish kabi jihatlarni o'rgatish va ko'nikma hosil qilib, malakasini oshirish kabilar hisoblanadi.

Ta'lim tizimi orqali turli liderlikka oid darslar, qo'shimcha kurslar orqali tashabbuskorlik va faollikni rivojlantirish mumkin. Jamoaviy loyihalar va tanlovlardan esa ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlab beradi.

Tarbiya orqali ya’ni oiladagi tarbiya sabab bolada yoshligidan mustaqil fikrlash, javobgarlikni his qilish, va qat’iyatli bo‘lish shakllantiriladi.

Liderlik borasida siyosatshunos James Mac Gregor Burns " Haqiqiy liderlar - bu o‘z izdoshlari bilan birgalikda o‘sadigan, o‘zgaradigan va jamiyatni o‘zgartiradigan shaxslardir. Liderlik - bu shaxsiy ta’sir emas, balki jamiyatga hizmat qilish vositasi" deya ta’kidlagan.

Demak xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, liderlik jamiyatda katta ahamiyatga ega yani yoshlarda liderlik qobiliyatlarini shakllantirish bu faqatgina shaxsiy yutuq emas jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanar ekan. Shuning uchun ta’lim va tarbiya jarayonlarida liderlik fazilatlarini aniqlab uni yanada rivojlantirish muhim sanaladi. Liderga katta bosim bo‘lgan paytlari sabru bardoshi bilan buni yengib jamoa uchun kurasha olishi muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning shunday so‘zлari bor: " Rahbar odam boshqalardan ko‘ra uzoqni ko‘rishi va chuqurroq o‘ylab ish olib borishi kerak. Ya’ni rahbar ertangi kunimizni, bir qadam emas 2 qadam uzoqroq ko‘rishi lozim" Demakki lider rahbarlarimizning mas’uliyati biz o‘ylaganimizdanda kattaroqdir.

Ta’limda liderlikni rivojlantirish tizimni isloh qilish va ta’lim sifatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Biroq, liderlikni rivojlantirishda kadrlar yetishmovchiligi, resurslar cheklovi va o‘zgarishlarga qarshilik kabi dolzarb muammolarni hal qilish zarur. Bugungi kunda yurtimizda ham ta’limda liderlikni rivojlantirish, tizimni isloh qilish va ta’lim sifatini oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Biroq liderlikni rivojlantirish uchun kadrlar yetishmovchiligi , resurslar cheklovi va o‘zgarishlarga qarshilik kabi dolzarb muammolarni hal qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Umumiy (Notibbiy) psixologiya bo'yicha milliy standartlar. Toshkent-2024
2. Z.T.Nishonova. “Psixologik xizmat” o‘quv qo‘llanma 2007.
3. Sh.M.Baratov.Psixologik xizmat o‘quv qo‘llanma. 2018.
4. O’skanov. M, Qulmatova. O, Tursinmatova. N. (2023). Umumta’lim maktablari ta’lim sifatini takomillashtirishda maktab amaliyotchi psixologlarining o’rni. –
5. Abdullayev A.A. Boshqaruv va liderlik psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Karimova Z.M. Shaxs psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2019.
7. Kattabekov M. Psixologik xizmat va liderlik faoliyati. – Toshkent: Ma’rifat, 2021.

8. Tursunova D.X. Psixologik yondashuvlar asosida liderlikni shakllantirish. – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2023.
9. Sharipov M.A. Yoshlar psixologiyasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2020
10. Burns J.M. Yetakchilik va jamiyatdagi o‘zgarishlar. – New York: Harper & Row, 1978.
11. Bennis W. Liderlik haqida: haqiqat va afsonalar. – Toshkent: Tarjimonlar nashriyoti, 2020.
12. Otabek Xasanov, Liderlar kitobi- Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2023.

**TADBIRKORLARGA BIZNESDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHDA YORDAM
BERADIGAN KASBIY TA'LIM DASTURLARI, SEMINARLAR VA TA'LIM
TASHABBUSLARI**

Saparboyev Akbarbek Marks O'g'li

Osiyo Xalqaro Universiteti Iqtisodiyot yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tadbirkorlar uchun biznesda muvaffaqiyatga erishishda yordam beradigan kasbiy ta'lif dasturlari, seminarlar va ta'lif tashabbuslari tahlil qilinadi. O'zbekiston va jahon miqyosida tadbirkorlarning malakasini oshirishga qaratilgan turli ta'lif shakllarining amaliy foydasi ko'rsatilgan. Maqolada kasbiy ta'lifning tadbirkorlar uchun zaruriyati, seminarlar va treninglarning amaliy ahamiyati, raqamli ta'lif vositalarining imkoniyatlari, shuningdek, hayot davomida ta'lif olish tamoyili va uning tadbirkorlik sohasidagi o'rni muhokama qilinadi. Ushbu tadbirkorlarni ta'lif bilan ta'minlash orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish, innovatsiyalarni joriy qilish va iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kasbiy ta'lif, seminar, tashabbus, raqamli ta'lif, ta'lif olish, biznes malaka, innovatsion yondashuv, raqobatbardoshlik, iqtisodiy barqarorlik, masofaviy ta'lif, sun'iy intellekt, raqamli texnologiya.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida dunyo mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishning barqaror modelini shakllantirish uchun xususiy sektorni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu jarayonda tadbirkorlik faoliyati muhim harakatlantiruvchi kuch sifatida maydonga chiqmoqda. Chunki aynan tadbirkorlik yangi ish o'rinalarini yaratish, innovatsiyalarni joriy qilish, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Tadbirkorlikning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi esa, o'z navbatida, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega inson kapitaliga bog'liq. Shuning uchun ham mamlakatimizda va jahon miqyosida tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim va malakasini oshirishga qaratilgan kasbiy ta'lif dasturlariga, seminar va treninglarga, ta'lif tashabbuslariga alohida urg'u berilmoqda. Xususan, kasbiy ta'lif orqali tadbirkorlar biznes-reja tuzish, marketing strategiyalarini ishlab chiqish, raqamli texnologiyalardan foydalanish, moliyaviy savodxonlik kabi dolzarb yo'nalishlarda bilimga ega bo'lishadi. Shuningdek, seminarlar va treninglar orqali tajriba almashish, innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirish imkoniyati kengayadi. Ta'lif tashabbuslari, ayniqsa, davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan yo'lga

qo‘yilayotgan grantlar, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari orqali yangi g‘oyalarni amalga oshirish uchun qulay muhit yaratilmoqda.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tadbirkorlikni o‘qitish uslublarini tubdan o‘zgartirmoqda. Onlayn platformalar, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim vositalari, mobil ilovalar va virtual treninglar orqali bilim olish jarayoni yanada tez, qulay va individual tarzda amalga oshirilmoqda. Bu esa tadbirkorlarning zamonaviy sharoitlarda o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qilishiga xizmat qiladi. Quyida aynan tadbirkorlar uchun zarur bo‘lgan kasbiy ta’lim dasturlari, seminarlar va ta’lim tashabbuslari tahlil qilinadi, ularning amaliy foydasi va istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, uzluksiz ta’lim — “hayot davomida o‘qitish” tamoyili asosida tadbirkorlik sohasida o‘zini rivojlantirish imkoniyatlari ham yoritib beriladi.

Kasbiy ta’lim dasturlarining zarurati. Zamonaviy iqtisodiyotda tadbirkorlik — innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Ammo muvaffaqiyatli tadbirkor bo‘lish uchun tabiiy iste’dod yoki intilish yetarli emas — bu jarayon bilim, tajriba va uzluksiz o‘rganishni talab qiladi. Aynan shu yerda kasbiy ta’lim dasturlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy ta’lim dasturlari tadbirkorlarga quyidagi asosiy ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi:

Biznes-reja tuzish – bozor tahlili, mahsulot strategiyasi, investitsiya hisob-kitoblari;

Moliyaviy savodxonlik – budjetlashtirish, xarajatlar tahlili, foya va zarar balansini tuzish;

Menejment va rahbarlik – jamoani boshqarish, motivatsiya va qaror qabul qilish;

Marketing asoslari – mahsulotni bozorga chiqarish, iste’molchilarni jalg qilish va raqobat tahlili.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kasbiy tayyorgarlikdan o‘tgan tadbirkorlarning muvaffaqiyat darajasi ancha yuqori bo‘ladi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) ma’lumotlariga ko‘ra, “Start and Improve Your Business (SIYB)” dasturida qatnashgan tadbirkorlarning 75 foizi o‘z biznesini barqaror saqlab qolishga erishgan (ILO, 2020).

Amaliyotga yo‘naltirilgan o‘quv metodikalari. Kasbiy ta’lim dasturlarining muhim jihatlaridan biri — ularning **amaliyotga yo‘naltirilganligidir**. Darslar ko‘pincha seminar, trening, rolli o‘yinlar, keys-stadiylar (case study) va biznes-lab formatlarida o‘tkaziladi. Bu esa ishtirokchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki real muammolarni yechish ko‘nikmasini ham beradi.

Mintaqaviy va ijtimoiy tenglikni ta’minlash. Kasbiy ta’lim dasturlari, ayniqsa, chekka hududlar va ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan joylarda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Ular ayollar, yoshlar, nogironligi bor

shaxslar uchun iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochadi. **Raqamli va moslashuvchan ta’lim formati.** So‘nggi yillarda kasbiy ta’lim dasturlari tobora **raqamli** shaklga o’tayapti. Online kurslar, vebinarlar, video darsliklar orqali ko‘plab tadbirkorlar o‘z ish joyidan chiqmagan holda ta’lim olish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Ayniqsa pandemiya davrida bunday moslashuvchan model juda katta samara bergen.

Platformalar misolida: **EdX, Coursera** – dunyo miqyosida tan olingan onlayn kurslar;

Skillbox.uz, Najot Ta’lim – O‘zbekistonda IT, marketing, dizayn kabi sohalarda o‘quv kurslarini taklif etmoqda;

ZiyoNET – mahalliy ta’lim portali orqali bepul resurslar bilan ta’minlanadi.

Innovatsion fikrlash va barqaror rivojlanish. Zamon talabiga mos ta’lim dasturlari tadbirkorlarni **innovatsion fikrlash**, kreativ yondashuv va ekologik barqarorlikka yo‘naltiradi. Ayniqsa, “yashil iqtisodiyot”, “raqamli transformatsiya”, “ijtimoiy tadbirkorlik” kabi yangi yo‘nalishlar aynan ta’lim orqali amaliyotga tadbiq etilmoqda.

Seminarlar va treninglarning amaliy foydasi. Zamonaviy biznes olamida doimiy o‘zgarishlar, raqobat va texnologik yangiliklar tadbirkorlardan tezkor qaror qabul qilish, muqobil yo‘llarni izlash va zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirishni talab etadi. Shu sababli seminarlar va treninglar nafaqat bilim beruvchi vosita, balki amaliy tajriba almashish, o‘zaro tarmoq (networking) hosil qilish va biznes strategiyalarini yangilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Real muammolarga yechim toppish. Seminar va treninglar tadbirkorlarga o‘z biznes faoliyatida duch kelayotgan dolzarb muammolarni tahlil qilish va ularning samarali yechimlarini izlab topish imkonini beradi. Misol uchun, soliq tartib-qoidalari, marketing strategiyasi yoki mijozlar bilan ishlash bo‘yicha interaktiv mashg‘ulotlar orqali ishtirokchilar real misollar asosida muammolarni bartaraf etishni o‘rganadilar.

Networking – hamkorlik aloqalarining kengayishi. Seminarlar — bu faqat bilim olish maydoni emas, balki yangi hamkorliklar, sherikliklar, investorlar bilan tanishish imkoniyatidir. Tadbirkorlar bir joyda to‘planib, o‘z tajribalari, muvaffaqiyatsizliklari va yutuqlari bilan bo‘lishadilar. Bu esa bir-biridan o‘rganish, yangi g‘oyalarni tug‘dirish va qo‘shma loyihalar boshlashga asos yaratadi.

Ilmiy-nazariy bilimlarning amaliyot bilan uyg‘unligi. Treninglar ko‘pincha tajribali biznes murabbiylari, amaliyotchilar, yirik kompaniyalar rahbarlari tomonidan olib boriladi. Ular o‘z faoliyatlaridan real misollar keltiradi, bu esa nazariy bilimlarning hayotiy kontekstda mustahkamlanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, keys-stadiy (case study), rol o‘yinlari, interaktiv savol-javoblar orqali bilimlar ongli ravishda o‘zlashtiriladi.

Mavzulashtirilgan treninglar va sektor bo‘yicha yo‘naltirish. Bugungi kunda trening va seminarlar an’anaviy shakldan uzoqlashib, aniq maqsadli auditoriya va soha doirasida tashkil etilmoqda. Masalan: **Ayollar tadbirkorligi** bo‘yicha maxsus treninglar (masalan, UN Women bilan hamkorlikdagi loyiha);

IT-startaplar uchun innovatsion seminarlar (Digital Nation, IT-Park);

Qishloq xo‘jaligi biznesi bo‘yicha mahalliy fermerlar uchun agro-biznes treninglari.

Bunday yo‘naltirilgan treninglar o‘quv dasturlarining samaradorligini oshiradi, chunki ishtirokchilar o‘z sohasi uchun dolzarb bilimlarni oladi.

O‘zini rivojlantirish va motivatsiya. Seminar va treninglar shaxsiy rivojlanish, ishonch hosil qilish va ichki salohiyatni kashf etish vositasidir. Ko‘plab ishtirokchilar nafaqat yangi bilimlar, balki o‘ziga bo‘lgan ishonch, yangi motivatsiya bilan ta’minlanadi. Bu esa ularning biznes yuritishga bo‘lgan yondashuvini o‘zgartiradi. Motivatsion chiqishlar, muvaffaqiyatli tadbirkorlar bilan uchrashuvlar va tajriba hikoyalari ko‘pchilik uchun ilhom manbaiga aylanadi. “Biznesda muvaffaqiyatga erishganlar” seminarlarida ishtirok etgan yoshlarning 72 foizi o‘z faoliyatini boshlashga jur’at topgani aniqlangan (Youth Business Report, 2023).

Ta’lim tashabbuslari va davlat qo‘llab-quvvatlovi. Mamlakat taraqqiyoti va iqtisodiy barqarorlikka erishishda tadbirkorlikni rivojlantirish eng muhim strategik yo‘nalishlardan biridir. Ayniqsa, bu jarayonda kasbiy-ta’lim tashabbuslari va davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan tizimli qo‘llab-quvvatlov muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston Respublikasi tomonidan tadbirkorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar, bepul o‘quv dasturlari, grantlar va qonuniy yengilliklar bu borada samarali natijalar bermoqda.

Davlat dasturlari va qonunchilik asosidagi tashabbuslar. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha bir qator huquqiy va tashkiliy asoslar shakllantirildi. Jumladan: “**Yoshlar – kelajagimiz**” davlat dasturi doirasida o‘quv markazlari tashkil etilib, minglab yoshlar kasb-hunarga va tadbirkorlik asoslariga o‘rgatilmoqda;

Prezident qarori (PQ-3777-son, 2018-yil) asosida yosh tadbirkorlar uchun imtiyozli kreditlar, o‘quv grantlari va mentorlardan iborat tizim joriy etildi;

“Har bir oila – tadbirkor” dasturi orqali oilaviy biznesni boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga o‘quv kurslari hamda boshlang‘ich kapital bilan yordam ko‘rsatilmoqda.

Bu kabi tashabbuslar ishsizlikni kamaytirish, aholining turmush darajasini oshirish va ayniqsa ayollar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va chekka hudud yoshlari uchun imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Maxsus o‘quv markazlari va grant asosidagi kurslar. Davlat tomonidan tashkil etilgan va qo‘llab-quvvatlanayotgan **kasb-hunar mакtablari, tadbirkorlik markazlari, “Business Incubator”** kabi tashabbuslar amaliy bilim olish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Ularda quyidagi yo‘nalishlarda o‘quvlar olib borilmoqda:

Biznes reja tuzish va loyiha yaratish;

Soliq, huquqiy va molivayiy savodxonlik;

Innovatsion texnologiyalar asosida biznes yuritish;

Eksportga yo‘naltirilgan faoliyatni boshlash.

Ta’lim tashabbuslari doirasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ham keng ko‘lamli o‘quv dasturlari amalga oshirilmoqda.

Raqamli platformalar orqali masofaviy o‘qitish. Davlat tashabbuslari faqatgina an’anaviy ta’lim shakllari bilan cheklanib qolmasdan, raqamli imkoniyatlarga ham keng yo‘l ochmoqda. Jumladan: “ZiyoNET”, “my.gov.uz”, “online-maktab.uz”, “Soliq akademiyasi” kabi platformalarda bepul video darslar, ma’ruzalar, seminarlar e’lon qilinmoqda;

“Biznesni rivojlantirish platformasi” orqali o‘z biznesini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolar o‘quv materiallari, biznes reja shablonlari va konsultatsiyalarini onlayn tarzda olishlari mumkin;

Elektron hukumat tizimi orqali ro‘yxatdan o‘tish, litsenziyalar olish, soliq deklaratsiyasi topshirish kabi ko‘plab byurokratik jarayonlar soddalashtirilmoqda.

Bundan tashqari, bir qator tashabbuslarda o‘zini ko‘rsatgan tadbirkorlarga davlat tomonidan moddiy rag‘batlantirish mexanizmlari ham mavjud:

Tadbirkorlik tanlovlardida g‘olib bo‘lganlar uchun **yutuqli grantlar, subsidiya va imtiyozli kreditlar**;

Innovatsion mahsulot ishlab chiqargan subyektlar uchun **soliq yengilliklari va patentlar qo’llab-quvvatlovi**;

Eng faol o‘quvchi-yoshlar uchun **tashqi mamlakatlarda tajriba almashish dasturlari**.

Raqamli ta’lim vositalari: imkoniyat va istiqbollar. Raqamli texnologiyalar hayotning barcha sohalariga chuqur kirib kelgani singari, tadbirkorlikni o‘qitish va unga oid ko‘nikmalarni shakllantirishda ham katta burilish yasadi. An’anaviy o‘qitish shakllariga muqobil tarzda joriy etilayotgan raqamli ta’lim vositalari, xususan onlayn kurslar, mobil ilovalar, vebinarlar, sun’iy intellekt asosidagi maslahat tizimlari bugungi tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Onlayn ta’lim platformalari — bu istalgan joy va vaqtida ta’lim olish imkonini beruvchi zamonaviy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, ishbilarmon va bandlik darajasi yuqori bo‘lgan tadbirkorlar uchun masofaviy o‘qitish qulay va samaralidir.

Mashhur platformalar: **Coursera, Udemy, EdX** — jahon darajasidagi oliy o‘quv yurtlari tomonidan taqdim etilayotgan biznes kurslar; **Skillbox, Stepik** — texnik va marketing yo‘nalishlaridagi kasbiy kurslar; O‘zbekistonda esa “ZiyoNET”, “EduMarket”, “IT-Park Online Academy” kabi milliy platformalar keng qo’llanilmoqda. Ushbu platformalarda taqdim etilayotgan kurslar quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi: Startap boshlash asoslari; SMM, digital marketing, brending; Biznes-analitika va menejment; Moliyaviy savodxonlik va soliq tushunchalari.

Sun’iy intellekt va interaktiv texnologiyalarning o‘rni. Raqamli vositalar tarkibida **sun’iy intellekt (AI)** asosida ishlovchi tizimlar bugun ta’limda shaxsiylashtirilgan yondashuvni joriy etmoqda. Misol uchun, foydalanuvchining bilim darajasi, qiziqishlari

va o'rganish uslubiga qarab mos kurs tavsiya qiluvchi tizimlar samarali o'quv jarayonini yaratadi.

Bugungi kunda aksariyat tadbirkorlar uchun eng qulay ta'lif shakllaridan biri bu mobil qurilmalar orqali o'qitishdir. Mobil ilovalar oddiy interfeys, qisqa darslar va interaktiv vazifalar orqali ta'lifni tez va oson egallashga xizmat qiladi.

Vebinar va onlayn seminarlar orqali tajriba almashish. Raqamli ta'lif vositalari orqali doimiy ravishda o'tkazilayotgan vebinarlar, master-klasslar va jonli efirlar tadbirkorlik amaliyotiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Tajribali biznesmenlar, murabbiylar va muvaffaqiyatli loyiha rahbarlari tomonidan olib borilayotgan bu turdagi o'quv shakllari ishtirokchilarda real hayotga moslashtirilgan bilimlar shakllantiradi.

Kelajakda raqamli ta'lif vositalari quyidagi sohalarda yanada chuqurlashib borishi kutilmoqda:

Raqamli simulyatorlar yordamida biznes muhitini modellashtirish;

VR (virtual reallik) asosida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish;

Chekka hudud aholisini raqamli infratuzilma orqali kasbga yo'naltirish;

Ayollar va nogironligi bor shaxslar uchun **inklyuziv ta'lif modullarini** keng joriy etish.

Bundan tashqari, ta'liddagi sun'iy intellekt vositalari orqali samaradorlik monitoringi olib borilishi, o'quvchilarning natijalariga ko'ra avtomatik tahlil va takliflar berilishi orqali individual yondashuv kuchayadi.

Hayot davomida ta'lif olish tamoyili ("Lifelong Learning"). Bugungi tezkor axborot asrida raqobatbardosh bo'lish, o'z kasbiy faoliyatini zamон talablariga mos tarzda rivojlantirish har bir insondon uzluksiz o'rganishni talab qiladi. Ayniqsa, tadbirkorlar uchun bu tamoyil — muvaffaqiyat garovidir. Hayot davomida ta'lif olish (lifelong learning) — bu insonning butun hayoti davomida bilim va ko'nikmalarni muntazam ravishda yangilab borishidir.

Lifelong learning — zamonaviy tadbirkor uchun zarurat. Tadbirkorlik sohasida texnologiyalar, mijozlar talablari, marketing yondashuvlari tez-tez o'zgaradi. Bu holat har bir tadbirkordan zamonaviy bilimlar bilan qurollanishni, o'zini yangilab borishni talab qiladi. Lifelong learning konsepsiysi doirasida:

Yangi texnologiyalarni o'zlashtirish;

Yangi mahsulotlar va xizmatlar bilan tanishish;

Raqobatchilar tajribasini tahlil qilish;

Raqamli savodxonlikni oshirish kabi qator bilimlar doimiy yangilanadi.

Shuningdek, bu tamoyil innovatsion yondashuvlarni tezroq joriy qilish, moslashuvchanlikni oshirish va qaror qabul qilish tezligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanishda uzluksiz ta'lifning o'rni. Lifelong learning nafaqat kasbiy sohada, balki shaxsiy rivojlanishda ham katta ahamiyatga ega:

Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini oshiradi;

Yangi tillarni o‘rganish, kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi;

Psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, vaqt ni boshqarish kabilar shakllanadi. Bu esa tadbirkorning o‘z biznesiga yanada ongli, professional yondashishini ta’minlaydi.

Ta’limning turli shakllari: an’anaviy va innovatsion yondashuvlar. Hayot davomida ta’lim olish turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

Formal ta’lim — oliy va kasbiy o‘quv yurtlaridagi rasmiy ta’lim shakllari;

Noformal ta’lim — seminarlar, treninglar, onlayn kurslar;

Informal ta’lim — tajriba almashish, kitob o‘qish, podkastlar tinglash, suhbatlar orqali o‘rganish.

Har bir tadbirkor uchun ushbu uchala shaklni uyg‘unlashtirish, o‘zini har doim rivojlantirib borishga intilish dolzarb hisoblanadi.

Hayot davomida ta’lim olishni amaliyatda qo‘llab-quvvatlash uchun:

“Biznes klublar”, “Yoshlar innovatsiya markazlari”, “Mentorlik dasturlari” faoliyat yuritmoqda;

O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, Axborot-resurs markazlari tomonidan **ochiq seminarlar, master-klasslar** tashkil etilmoqda;

Mobil ilovalar va veb-portallar orqali har qanday yoshdagagi kishilar bilim olish imkoniga ega bo‘lmoqda.

XULOSA

Tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi iqtisodiy barqarorlikka erishishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatida alohida o‘rin tutadi. Buning uchun tadbirkorlarga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni beradigan kasbiy ta’lim dasturlari, seminarlar va ta’lim tashabbuslari ta’sirchan vositalar sifatida xizmat qiladi. O‘zbekistonning hozirgi sharoitida iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish, yangi ish o‘rnlari yaratish va innovatsion yechimlarni joriy etishning asosiy vositasi — tadbirkorlarni ta’lim bilan ta’minalashdir.

Kasbiy ta’lim dasturlari tadbirkorlarning zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishini ta’minlaydi, ularni raqamli texnologiyalarni o‘zlashtirishga, moliyaviy va marketing ko‘nikmalarini rivojlantirishga, shuningdek, biznesni boshqarishning samarali usullarini o‘rganishga undaydi. Seminarlar va treninglar esa o‘z navbatida amaliy tajriba almashish, innovatsion fikrlash va biznes strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayonlar orqali tadbirkorlar o‘z faoliyatlarini optimallashtirishga va raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga erishadilar.

Xususan, raqamli ta’lim vositalari, masofaviy o‘qitish va onlayn platformalar orqali ta’lim olishning yangi imkoniyatlari tadbirkorlar uchun ta’limning vaqt va joyga bog‘liq bo‘lmagan qulay shaklini taqdim etmoqda. Sun’iy intellekt va interaktiv texnologiyalar orqali o‘qitish tizimi yanada shaxsiylashtirilgan va amaliy bo‘lib,

tadbirkorlarga o‘z bizneslarini muvaffaqiyatli boshqarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarini olish imkonini beradi.

Shuningdek, hayot davomida ta’lim olish tamoyili (lifelong learning) tadbirkorlar uchun juda muhim ahamiyatga ega. Bu tamoyil tadbirkorlarga o‘z bilimlarini doimiy ravishda yangilab, yangi texnologiyalarni o‘zlashtirib, global iqtisodiy tendensiyalarga moslashishga imkon yaratadi. Ta’limning turli shakllari, shu jumladan an’anaviy va raqamli usullar, tadbirkorlarning o‘z malakalarini va ko‘nikmalarini yangilashga yordam beradi.

Jahon va o‘zbek tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlarni o‘qitish, ularni kasbiy ta’lim dasturlari, seminarlar va ta’lim tashabbuslari orqali doimiy rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minalash va mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib qoladi. Shu bois, davlat va xususiy sektor tomonidan ko‘rsatilayotgan ta’lim xizmatlariga e’tibor yanada kuchaytirilishi zarur.

Kelajakda tadbirkorlik sohasidagi ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi, inklyuziv ta’lim imkoniyatlari va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan tashabbuslar orqali iqtisodiyotning barcha sohalarida sifatli o’sish va barqaror rivojlanish uchun kuchli poydevor yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Labour Organization. (2020). Start and Improve Your Business (SIYB) Programme Report.
2. UNDP Uzbekistan. (2021). Inclusive Business Development Project Evaluation Report.
3. ATLAS Uzbekistan. (2022). Final Project Report.
4. World Economic Forum. (2021). The Future of Jobs Report.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Rasmiy Sayti. (2022). Yoshlar biznesini qo‘llab-quvvatlash dasturi.

M.S.Fayzullaev

“PREMIUM LEGAL” advokatlik firmasi boshqaruvchi advokati -

Kalit so’zlar: Eskrou, shartli deponentlash, shartnomma, eskrou hisobi, saqlash, majburiyat, qurilish, majburiyatni ta’minlash, eskrou agent, onlyn savdoda eskrou, fuqarolik kodeksi yangi tahrir, qurilishda eskrou.

Eskrou (shartli deponentlash) – bu taraflar o’rtasidagi shartnomaviy majburiyatlarni ta’minlash maqsadida muayyan mablag’lar yoki aktivlarni uchinchi shaxs (eskrou agent) orqali ta’minlash mexanizmi bo’lib, u kelishilgan shartlar bajarilgandan so’ng mos ravishda ularni qabul qilib oluvchiga yetkazadi. Eskrou turli sohalarda qo’llaniladi va ushbu mexanizm huquqiy kafolatlarni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xaridor mol-mulk o’tkazilganligi to’g’risida tegishli ishonchli ma’lumotni olmaguncha mablag’larni ushlab turish uchun “neytral uchinchi tomonni” yoki “manfaatdor tomonni” tanlaydi. Garchi ko’pincha ko’chmas mulkni topshirish paytida qo’llanilsada, eskrou boshqa xaridlar uchun ham keng miqyosda ishlatalishi mumkin.

Eskrou hisobi - bu xaridor va sotuvchi o’rtasidagi xavfsiz hisob-kitoblar uchun maxsus hisob. U eskrou hisobi deb ham ataladi, chunki u ma’lum shartlar bajarilganda avtomatik ravishda bir egasidan ikkinchi egasiga o’tadi. Xaridor pulni depozit hisobvarag’iga qo’yadi va sotuvchi shartnomada ko’rsatilgan shartlar bajarilgandan so’ng uni olishi mumkin. Bank mustaqil vositachi sifatida ushbu shartlarga rioya etilishini nazorat qiladi. Eskrou shartnomasi yordamida nafaqat pul, balki qimmatli qog’ozlar va har qanday ko’char mulkni ham rasmiylashtirish mumkin. Bunday holda, vositachi nafaqat bank, balki, masalan, notarius ham bo’lishi mumkin. Kompaniyalar, masalan, sheriklardan tovarlar va xizmatlar uchun to’lovlarни amalga oshirishda eskrou shartnomalaridan ham foydalanadilar.

Hozirgi kunda Eskrou (shartli deponentlash) tizimidan foydalanish imkoniyatlari O’zbekistonda kam va yetarlicha malaka to’planiv ham ulgurmadi. Lekin ushbu tizimni tezroq joriy etish, O’zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi yangi tahririga batafsil kiritib o’tish, eskrou hisoblarini onlays ochish imkoniyatlarini yaratish zamon talabi, taraflar uchun dolzarb huquqiy yechim hamdir.

Ko’chmas mulkda eskrou - bu savdoning barcha shartlari bajarilgunga qadar neytral uchinchi shaxs mablag’lar va muhim hujjatlarni ushlab turadigan tizim. Ushbu hisob tranzaksiya mablag’lari va tegishli hujjatlar uchun himoya vazifasini bajaradi. Xaridor ham, sotuvchi ham sotish shartlariga rozi bo’lganda, ular eskrou mexanizmini boshlaydilar. Xaridor ushbu holatda depozit hisobvarag’iga depozit qo’yish orqali

xaridni amalga oshirilishini va bitimga xohishini tasdiqlaydi. Shuningdek, u xaridorning bitimni o’z vaqtida va mas’uliyatli tarzda bajarishga tayyorligini ko’rsatadi.

Eskrou davrida xaridor uning holati ularning kutganlari va kelishilgan shartlarga mos kelishini ta’minalash uchun mulkni tekshirishi kerak. Ushbu tekshirish jarayoni strukturaning yaxlitligini, mulkning funktsional jihatlarini va sotib olish qaroriga ta’sir qilishi mumkin bo’lgan har qanday muammolar yoki kelishmovchiliklarning mavjudligini baholashni o’z ichiga oladi. Xaridor ipoteka shartnomasini yoki bitimni bajarish uchun zarur bo’lgan boshqa moliyaviy majburiyatlarni yakunlashi kerak.

Yakunlash: Shartnomada ko’rsatilgan barcha shartlar bajarilgandan so’ng, bitim yopilish bosqichiga o’tadi. Ushbu bosqichda eskrou agenti barcha zarur hujjatlar va shartlarning bajarilishini ta’minalaydi. Bu xaridor zarur moliyalashtirishni ta’minalaganligini, sotuvchi shartnomasi bo’yicha o’z majburiyatlarini bajarganligini va boshqa kutilmagan holatlar yoki shartlar bajarilganligini tasdiqlashni o’z ichiga oladi. Ushbu shartlar bajarilgandan so’ng, eskrou agenti mablag’larning o’tkazilishini nazorat qiladi. Ular bitimda ishtirok etuvchi tegishli tomonlarga kelishilgan to’lovlarini to’laydilar. Bu odatda sotuvchiga mulk uchun to’lovni va ko’chmas mulk agenti komissiyalari yoki boshqa yopish xarajatlari kabi tegishli to’lovlarni o’z ichiga oladi.

So’nggi yillarda O’zbekiston ko’chmas mulk bozorida ayniqsa yangi uylar uchun to’lov qabul qilib, ularni topshirmaslik va bundan kelib chiqib xaridorlarni aldash holatlari tez-tez uchramoqda. Fuqarolarni himoya qilish va uy-joy sotib olish jarayonini yanada shaffof qilish uchun eskrou hisoblari tizimi joriy etilmoqda. Endilikda uy-joy sotib olish bo’yicha kafolatlari shartnomasi tuziladi. Bunda developerlar o’zlarini qurayotgan uylar sotuvini tashkil qilish bo’yicha banklar bilan shartnomasi tuzadi, bu uylarni olmoqchi bo’lgan odamlar pulini quruvchiga emas, to‘g’ridan to‘g’ri bankka topshirishlari mumkin. Banklar esa yig’ilgan pulni quruvchiga resurs sifatida beradi. Shunda banklar quruvchi va xaridor o’rtasida ko’prik bo’lib, uy-joyni o’z vaqtida va sifatli qurib, egasiga topshirishga kafil bo’ladi. Bunday tizim dastlab Samarqand shahri, Yangihayot va Sergeli tumanlarida bir yil davomida tajribadan o’tkazilishi belgilangandi¹⁴.

Eskrou hisobi tizimini joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Yangi mexanizmga muammosiz o’tishni ta’minalash uchun mas’ul davlat organlariga mazkur tartiblarni ishlab chiqish va joriy etish vazifasi yuklatildi. Bu O’zbekistonda shaffof va xavfsiz ko’chmas mulk bozori yo’lidagi muhim qadam bo’lib, bitimning barcha tomonlari uchun xavflarni kamaytiradi va qurilish sifatini oshirilish ham belgilandi.

O’zbekiston Respublikasing 29.09.2022 yildagi “Elektron tijorat to‘g’risidagi” O’RQ-792-sonli qonunining 24-moddasiga asosan, Elektron tijorat sohasida pul

¹⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2025 yildagi PF-11-sod “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi Farmoni

mablag'larini deponentlash (bundan buyon matnda «eskrou» xizmati deb yuritiladi) xaridorning to'langan pul mablag'larini shartnomaga doir tegishli majburiyatlar to'liq bajarilguniga qadar ushlab turish xizmatidir¹⁵.

Fikrimizcha, bugungu kunda juda ko'p savdo maydonchalarining operatorlari, to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchilar va tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yetkazib berish xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (bundan buyon matnda «eskrou» xizmatini ko'rsatuvchi deb yuritiladi) o'z axborot tizimlariga yoki bank hisobvaraqlariga «eskrou» xizmatini joriy etishi mumkin.

Hozirda advokat sifatida tadbirkorlik subyetklari duch kelayotgan katta bir mummolardan biri bu tovarlarni o'z vaqtida va sifatlari yetkazib berilishi yoxud tovarlarning to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilishi ham katta muammo hisoblanadi. Ushbu holatda ham eskrou tizimini qo'llash mumkin deb o'ylaymiz. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun xaridor tomonidan to'lojni amalga oshirish chog'ida “eskrou” xizmatini ko'rsatuvchi to'langan pul mablag'larini xaridordan tovarlar (ishlar, xizmatlar) olinganligining tasdig'i olinguniga qadar saqlash huquqiga ega bo'ladi. “Eskrou” xizmatini joriy etishda tegishli shartnomada doirasida, agar tovar yetkazib berilmasa yoki tavsiyga mos kelmasa, “eskrou” xizmatini ko'rsatuvchi pul mablag'larini xaridorga qaytaradi (asosli da'vo mavjud bo'lganda) yoki, agar tovar xaridor tomonidan olingan va qabul qilingan bo'lsa, pul mablag'lari sotuvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi. Agar xaridor shartnomada bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati tugagach tovarlar (ishlar, xizmatlar) olinganligi faktini tasdiqlamasa yoki rad etmasa, pul mablag'lari shartnomada nazarda tutilgan muddatda avtomatik ravishda sotuvchining hisobvarag'iga o'tkaziladi.

Qurilishda eskrou. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2025 yildagi PF-11-sod Farmoniga asosan “Uy-joyning yagona hayotiy sikli” tamoyili doirasida obyektlarni ulush kiritish asosida qurish jarayonida ulushdorlarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlash maqsadida shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2025-yil 1-iyuldan boshlab¹⁶:

- ulushli shartnomada bo'yicha mablag'lar ulushdor tomonidan vakolatli tijorat bankida quruvchi, ulushdor va tegishli tijorat banki o'rtasida tuziladigan shartnomada asosida ochilgan “eskrou” hisobvarag'iga ularning hisobini yuritish uchun joylashtiriladi va deponentlanadi;

ulushdorlarning uchinchi shaxslar oldidagi majburiyatları va quruvchining majburiyatları yuzasidan “eskrou” hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish, mablag'larni xatlash yoki hisobdan chiqarishga yo'l qo'yimasligi belgilandi.

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining 29.09.2022 yildagi “Elektron tijorat to'g'risida”gi O'RQ-792-sod Qonuni <https://lex.uz/docs/-6213382>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.01.2025 yildagi PF-11-sod Farmoni - <https://lex.uz/uz/docs/-7353734>

Bundan tashqari tijorat banklari tomonidan quruvchilarga loyihaviy moliyalashtirish orqali ajratiladigan kreditlarning yillik foiz stavkasi “eskrou” hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘lar hajmidan kelib chiqib belgilanadi. Bunda “eskrou” hisobvarag‘ida mablag‘lar ko‘payishi natijasida kredit foiz stavkasini pasaytirib borish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Ulushli shartnomaga asosan qurilgan va qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektdan foydalanish uchun ruxsatnoma berilgandan so‘ng: “eskrou” hisobvarag‘ida deponentlangan mablag‘lar tijorat banki tomonidan quruvchining qurilish uchun ajratilgan kreditini so‘ndirish uchun yo‘naltiriladi va qolgan qismi quruvchiga o‘tkazib beriladi. Quruvchi va ulushdor tomonidan ulushli qurilish obyektini ulushdorga topshirish to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolanadi.

Ulushdorning obyektga bo‘lgan mulk huquqi kadastr organlari tomonidan davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Qurilish-montaj ishlari o‘z vaqtida tugallanmagan va undan foydalanish uchun ruxsatnoma olinmagan taqdirda har bir kechikkan kun uchun alohida qat’iy belgilangan jarimalar joriy qilinadi va shartnomaya yuzasidan muddatlar faqat ulushdorning roziligini olgan holda qo‘sishimcha shartnomaya tuzish orqali uzaytiriladi. Bunda obyekt loyihasmeta hujjatlarida ko‘rsatilgan muddatdan olti oy o‘tgandan keyin foydalanishga topshirilgan taqdirda, ulushdor “eskrou” hisobvarag‘idagi deponentlangan mablag‘larni ulushli shartnomani bir tomonlama bekor qilish orqali qaytarib olishi mumkin.

Shuningdek, ushbu Farmon bilan 2025-yil 1-iyuldan 2025-yil 31-dekabrga qadar “eskrou” hisobvaraqlari orqali hamda hozirda amalda bo‘lgan ulushli ishtirok etish tartibida to‘g‘ridan-to‘g‘ri jalb qilish mexanizmi bo‘yicha parallel ravishda taraflarning tanlovi ga ko‘ra amalga oshirilishi, 2026-yil 1-yanvardan boshlab faqat “eskrou” hisobvaraqlari orqali amalga oshirilishi belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-fevraldaggi PF-26-sonli Farmoniga ko‘ra 2026-yil 1-yanvardan eskrou tizimi doirasida qurilishining kamida 50 foizini sotib olish uchun, kreditlar olish uchun, kvartirali uy-joylardan sotib olish uchun, kreditlar olish uchun, ushbu kreditlar bo‘yicha Davlat byudjetidan subsidiyalar ajratilishi belgilangan¹⁷.

Onlayn savdolarda eskrou. Elektron tijorat va raqamli bozorlarda mijoz ishonchi juda muhim. Ko‘p mijozlar onlayn sotuvchilarga ishonishda ikkilanadi, chunki nomuvofiq mahsulot olish yoki umuman mahsulot olmaslik xavfi mavjud. Bu xavflarni bartaraf etish maqsadida ko‘pchilik onlayn sotuvchilar eskrou hisobvaraqlaridan foydalanadilar. Bu usulga ko‘ra, sotuvchining mablag‘lari faqat mahsulot xaridorga yetkazilib, tekshirilganidan keyingina chiqariladi. Shuningdek, onlayn bozorlar ko‘plab sotuvchilar bilan ishlaydi. Masalan, onlayn market bozorlar o‘z bozoridagi

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.02.2025 yildagi PF-26-son Farmoni- <https://www.lex.uz/uz/docs/7395923>

mahsulotlarning aksariyatini o’zi ishlab chiqarmaydi, balki sotuvchilar va xaridorlar o’rtasida vositachi sifatida harakat qiladi. Bu yerda sotuvdan tushgan mablag’lar to’g’ridan-to’g’ri onlayn market bozorlarga tegishli emas – katta qismi sotuvchilarga o’tkazilishi kerak, faqat ma’lum foiz qismi daromadi bo’lib qoladi. Elektron tijorat ishtirokchilarining deponentlangan pul mablag’lari “eskrou” xizmatini ko’rsatuvchining mulki hisoblanmaydi va ulardan uning har qanday kontragent oldidagi, shu jumladan davlat oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi mumkin emas.

Sotuvchilar bilan ishonchli munosabatlarni ta’minalash uchun aksariyat onlayn bozorlar sotuvdan tushgan mablag’larni avval eskrou hisobvaraqqqa qabul qiladilar va keyin ularni sotuvchiga va bozor komissiyasi sifatida saqlanadigan qismga taqsimlaydilar. Bizningcha, onlayn savdo marketlarida ham ushbi mexanizmning qo’llanilishi maqsadga muvofiq bo’ladi.

Onlayn o’yinlarda eskrou. Onlayn o’yinlarda eskrou butun dunyo bo’ylab tranzaktsiyalarni amalga oshirish usulini o’zgartirmoqda. Ushbu xizmatlar shartlar bajarilgunga qadar mablag’lar yoki aktivlarni ushlab turishning neytral mexanizmini ta’minalaydi. Ular elektron tijorat, ko’chmas mulk va hashamatli tovarlarda mashhur. Qiyinchiliklar tartibga solishning murakkabligi va kiberxavfsizlik tahdidlarini o’z ichiga oladi. Kelajakda o’sish blokcheyn va AI tomonidan boshqariladigan muvofiqlik bilan kutilmoqda.

Dream11, MPL kabi onlayn o’yin platformalari foydalanuvchilarga real pul ishslash imkoniyatini taqdim etadi. Foydalanuvchilar o’yinga kirish uchun qatnash jarimasi (entry fee) to’laydilar, va bu mablag’lar g’olibga mukofot puli sifatida to’lanadi. G’olib aniqlanganiga qadar, jamg’arilgan pul mablag’lari eskrou hisobvaraqdha saqlanadi. Bu esa firibgarlik va moliyaviy xavflarni kamaytirishga yordam beradi.

Onlayn o’yinlar sohasida eskrou mexanizmi quyidagi holatlarda qo’llanilishi mumkin:

1. Ko’plab onlayn o’yinlarda foydalanuvchilar o’yin ichidagi narsalar, masalan, qurollar, kiyimlar yoki boshqa virtual aktivlarni sotib olishadi yoki sotishadi. Eskrou mexanizmi bu jarayonda ishtirok etib, xaridorning mablag’larini saqlaydi va faqat sotuvchi o’yin ichidagi aktivni yetkazib bergandan so’ng mablag’ni sotuvchiga o’tkazadi. Bu usul firibgarlikning oldini olishga yordam beradi.

2. Ba’zi hollarda foydalanuvchilar o’zlarining o’yin hisoblarini sotish yoki sotib olishadi. Eskrou xizmati bu jarayonda ishtirok etib, hisobning xavfsiz va ishonchli tarzda o’tkazilishini ta’minalaydi.

3. Onlayn o’yin turnirlarida ishtirokchilar yoki homiylar tomonidan taqdim etilgan mukofot pullari eskrou hisobida saqlanib, turnir natijalari aniqlangandan so’ng g’oliblarga tarqatiladi. Bu usul mukofotlarning adolatli taqsimlanishini ta’minalaydi.

– bu moliyaviy xizmat bo’lib, u onlayn o’yin turnirlari, mukofot jamg’armalari yoki boshqa raqobatbardosh o’yin tadbirlari uchun mablag’larni xavfsiz saqlashni

nazarda tutadi. Odatda, turnir tashkilotchilari, homiyalar yoki boshqa hissa qo'shuvchilar mukofot puli yoki ishtirok haqlarini betaraf uchinchi tomon tomonidan boshqariladigan eskrou hisobvrog'iga joylashtiradi. Turnir yakunlanganidan so'ng, mablag'lar g'oliblarga yoki turnir qoidalariga muvofiq taqsimlanadi. Bu jarayon barcha ishtirokchilarga mukofot pullarining adolatli taqsimlanishiga ishonch hosil qilish imkonini beradi.

Masalan, agar yirik kibersport turniri 1 million dollarlik mukofot jamg'armasini taklif qilsa, ushbu mablag'lar turnir boshlanishidan oldin eskrou hisobiga joylashtiriladi. Bu esa ishtirokchilar, homiyalar va muxlislarga mukofot pulining xavfsizligini va belgilangan tartibda tarqatilishini kafolatlaydi.

Fond bozorida eskrou. Eskrou fond bozorida aksiyalarni sotish va o'tkazishda ham qo'llanilishi mumkin. Kompaniyalar turli sabablarga ko'ra aksiyalarni eskrou hisobiga qo'yishadi. Agar aksiyalar boshqa kompaniya bilan qo'shilishda to'lovning bir qismi sifatida foydalanilsa, xaridor kompaniyaning bitimi tugaguniga qadar aksiyalarni eskrouga qo'yishadi. Xodimlarga nafaqa sifatida berilgan aksiyalar ma'lum muddatga xodim uchun cheklanishi mumkin. Bunday davrda xodimlar aksiyalarni bozorda sota olmaydilar, shuning uchun aksiyalar eskrouda o'tiradi.

Ba'zan aksiyalar eskrou holatida chiqariladi – bu esa aksiyalar egasiga ma'lum shartlar bajarilguniga qadar ularni topshirmaslikni anglatadi. Masalan, Hindistonda kompaniya aksiyalarni ommaviy sotuvga chiqarganda, agar aksiyalarning 90% dan ortig'i obuna qilinmasa, emissiya haqiqiy deb tan olinmaydi. Agar aksiyalarning 90% dan kam qismi xarid qilinsa, investorlarga ularning pullari qaytariladi. Bu jarayonni kafolatlash uchun kompaniya obunadan tushgan mablag'larni eskrou hisobvaraqaqda saqlashi shart. Shuningdek, aksiyalardan foydalanib ish haqi yoki bonus to'lovlarini amalga oshirishda ham eskrou hisobvaraqlar qo'llaniladi.

Fond bozorida eskrou shartnomasi - bu kompaniya va uning aksiyadorlarining manfaatlarini himoya qilish uchun ishlataladigan huquqiy shartnoma. Ushbu shartnoma kompaniya aksiyalarining ma'lum miqdori kafillik hisobiga o'tkazilishi (eskrou hisobda saqlanishi) lozimligini belgilaydi, ya'ni belgilangan shartlar bajarilmaguncha ularni sotish yoki o'tkazish mumkin emas. Bu potensial firibgarlik harakatlardan xavotirlangan investorlar uchun kafolat yaratadi, shuningdek, har qanday sotuv yoki qo'shilish jarayonida barcha aksiyadorlar teng sharoitda bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Agar siz kompaniyaga investisiya kiritishni rejalashtirayotgan bo'lsangiz, fond bozorida eskrou shartnomasi qanday ishlashini va uning qanday afzallikkлari borligini tushunish muhimdir.

Kredit berishda eskrou. Ko'chmas mulk qurilishi jarayonida: Xaridor (ipoteka oluvchi) tomonidan moliyaviy mablag'lar bankdagi eskrou hisobiga o'tkaziladi. Ushbu mablag'lari qurilish kompaniyasi qurilish ishlari to'liq yakunlab, obyek topshirilish

vatiga yuklanishi mumkin. Bu mexanizm qurilishning o’z vaqtida va sifatli ishlashini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kredit mablag’larining nazorati: Bank tomonidan ajratilgan kredit mablag’lari eskroulangan mahsulotlar va faqat ishlab chiqarish shartlar bajarilganda, masalan, qurilishning aniq tugallanganda, quruvchi yoki sotuvchiga ishlab chiqarish. Bu kredit mablag’larining maqsadli va samarali foydalanishni ta’minlash.

Kredit bitimlarida eskrou to’lovlar ham qarz oluvchi, ham qarz beruvchini himoya qilish uchun ishlatiladi. Qarz oluvchining mablag’lari eskrou hisobvaraqaqda saqlanadi va ular kredit shartlariga muvofiq barcha to’lovlarni amalga oshirganidan keyingina chiqariladi. Qarz beruvchining mablag’lari ham qarz oluvchi o’z majburiyatlarini bajarmagunga qadar eskrou hisobvaraqaqda saqlanishi mumkin. Bu esa tomonlarni himoya qilishga yordam beradi. Masalan, ipoteka kreditlashda “eskrou” moliyaviy kelishuv bo’lib, unda kreditor har oylik ipoteka to’lovingizning bir qismini alohida hisobda saqlaydi va bu mablag’ kelgusida mulk solig’i hamda uy egasi sug’urta to’lovlarini qoplash uchun ishlatiladi. Bu tizim ushbu muhim to’lovlarni o’z vaqtida amalga oshirishni ta’minlaydi, hatto agar qarz oluvchi to’lovni kechiktirsa ham. Aslida, neytral uchinchi tomon ushbu mablag’larni nazorat qiladi va tegishli to’lovlar vaqt kelganda ularni to’laydi.

Kreditorni himoya qilish maqsadida mulk solig’i va sug’urta to’lovlarini o’z vaqtida to’lashni kafolatlaydi, bu esa qarz bo’yicha defolt yoki garovga qo’yilgan mulkka da’vo qilinish xavfini kamaytiradi. Har oylik ipoteka to’loving ma’lum bir qismi eskrou hisobiga o’tkaziladi. Kreditor ushbu mablag’dan mulk solig’i va sug’urta to’lovlari muddati kelganda ularni to’lash uchun foydalanadi. Bu qarz oluvchi uchun katta yillik soliq va sug’urta to’lovlari o’rniga, har oy kichik va boshqariladigan to’lovlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Qo’shib olish va biznes bitimlarida eskrou. Eskrou hisobvaraqlar kompaniyalarning birlashishi (mergers & acquisitions) va boshqa biznes bitimlarida, xususan, kredit savdolarida qo’llaniladi. Birlashish jarayonida, avval bitim mablag’i eskrou hisobvarog’igaa kiritiladi. Shartlar bajarilganidan keyingina mablag’ sotuvchi tomonga o’tkaziladi. Kredit savdolarida ham eskrou mexanizmidan foydalanish mumkin. Masalan, bir kompaniya yetkazib beruvchidan kreditga tovar sotib oladi. Yetkazib beruvchi 30 kun ichida tovarni yetkazib berishga rozi bo’ladi, xaridor esa mablag’ni darhol to’lashga rozi bo’ladi, ammo bu mablag’ eskrou hisobvaraqqqa o’tkaziladi. Yetkazib beruvchi tovarni yetkazganidan va xaridor uning sifatini tekshirganidan keyin, eskrou agenti mablag’ni yetkazib beruvchiga o’tkazadi.

Eskrou tartibi neytral uchinchi tomon tomonidan tashkil etilib, xaridor va sotuvchi ishtirok etadigan bitimda almashiladigan mablag’lar yoki boshqa aktivlarni saqlash uchun mo’ljallangan.

Qo'shib olish va qo'shilish bitimida eskrou hisobi odatda xaridor va sotuvchining moliyaviy va boshqa majburiyatlarini bajarishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

Eskrou tartibi taraflar bir joyda yoki bir vaqtida uchrasha olmagan taqdirda ham bitimlarni xavfsiz amalga oshirishga imkon beradi. Shuningdek, ular turli ijo va yetkazib berish bosqichlaridagi topshiriladigan obyektlar va bitim hujjatlari uchun ombor vazifasini bajaradi. Asosan, eskrou tartibi xaridor va sotuvchini o'zaro himoya qilishga xizmat qilib, bitim taraflarining o'z majburiyatlarini bajarmaslik, yetkazib bermaslik yoki uchrashish imkoniga ega bo'lmaslik xavfini minimallashtiradi.

Eskrou tartibi ayniqsa chegaralararo bitimlar tuzishda juda foydali bo'ladi. Bir taraf ma'lum majburiyatlarni bajara olmaydigan holatlar ko'p uchraydi. Masalan, sotuvchi o'z ulushlari, ko'chmas mulki, maxsus aktivlari (san'at asarlari yoki antikvariatlar) yoki boshqa aktivlarini xaridorga o'tkazishi kerak bo'ladi. Bu jarayonda mahalliy organlarda mulk huquqini ro'yxatdan o'tkazish, ichki reestrlarga o'zgartirish kiritish yoki aksiya sertifikatlarini berish bilan bog'liq kechiktirishlar yuzaga kelishi mumkin. Xaridor esa xaridni amalga oshirish uchun ishonchli, neytral mablag' omborini xohlaydi. Ko'p hollarda har ikki taraf eskrou tartibini bitim shartlarini bajarilishini ta'minlaydigan eng maqbul yechim sifatida tanlaydi.

Agar mulk huquqini o'tkazishda kechiktirish yuzaga kelsa, xaridor, ehtimol, uning ro'yxatdan o'tganini tasdiqlashgacha to'lojni kechiktirishni istaydi. Bunday holatda xaridor va sotuvchi uchinchi tomon eskrou agentni jalg qilish orqali muammoni hal qilishlari mumkin. Eskrou agenti mulk huquqining xaridorga o'tganligini tasdiqlashni ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida mablag'larni sotuvchiga o'tkazish va tarqatish jarayonini boshlaydi.

Xaridorlar eskrou hisoblaridan sotuvchilarni o'zlarida bitimni yakunlash uchun yetarli mablag'lar yoki moliyalashtirish mavjudligiga ishontirish maqsadida "mablag'lar mavjudligi isboti"ni taqdim etish uchun ham foydalanishlari mumkin.

Qo'shib olish va qo'shilish bitimlarida eskrou kelishuvlari ba'zan xarid narxining bir qismini ushlab turish yoki "holdbek" qilish uchun qo'llaniladi — odatda bu 10-25 foizni tashkil etadi. Holdbek miqdorlari kelishilgan holda aniqlanadi va bitimning xususiyati hamda boshqa omillarga bog'liq ravishda o'zgaradi. Ushlab qolning summa kafolat muddati davomida saqlanadi, bu esa xaridorga sotuvchi tomonidan sotuv hujjatlarida berilgan kafolat va tasdiqlar haqiqatga mos kelishini tekshirish imkonini beradi. Sotuvchi, odatda, ushlab qolning summa eskrou agent tomonidan saqlanadigan eskrou hisobga o'tkazilishini talab qiladi. Bu kelishuv kafolat muddati davomida hech qanday kafolat talabi kelib chiqmasa, ushlab qolning summa avtomatik ravishda ozod qilinishiga kafolat beradi. Kafolat muddati turlicha bo'lishi mumkin va bir necha oydan bir necha yilgacha davom etishi mumkin. Ushbu davrda yashirin qarzlar aniqlanishi mumkin, masalan, yillik auditlar, soliq hisobotlari, lisenziyalash arizalari yoki sud

ishlari jarayonida. Agar yashirin qarzlar aniqlansa, xaridorga ozod qilinadigan summa eskrou kelishuvi shartlariga va ayniqsa, trigger hodisalar ro'yxatiga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu huquqiy mexanizmning qo'llanilish sohalarining kengligini inobatga olish, buning natijasida tomonlarga qulayliklar yaratilishi, majburiyatlar ta'minlanishi hisobga olish lozim bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda Eskrou shartnomasi tushunchasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga kiritish, shartnomaning mexanizmlarini to'liq yoritish, tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblasak bo'ladi.

Umumiy qurilishda ishtirok etishda eskrou hisobi Qozog'iston misolida.

Escrou hisoblari har qanday operatsiyalarda muvaffaqiyatli ishlatilishi mumkin, ammo ular birgalikda qurilishda ishtirok etishda alohida rol o'ynashi mumkin.

Tuzilgan aktsiyalarda ishtirok etish shartnomasi (EPA) bo'lsa, rollar quyidagicha taqsimlanadi:

- omonatchi - aksiyador;
- benefitsiar - ishlab chiquvchi;
- eskrou agent - ishlab chiqaruvchiga kredit beradigan bank yoki boshqa moliya instituti.

Tomonlar va bank o'rtaida uch tomonlama shartnomasi tuziladi. Hisob raqamiga kiritilgan mablag'lar dastlab omonatchi-kapital egasiga tegishli bo'lib, shartnomasi shartlari quruvchi tomonidan bajarilgandan so'ng (masalan, binoni foydalanishga topshirish) hisobvaraqtan foydalanish huquqi omonatchidan benefitsiarga o'tadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qozog'istonlik ishlab chiqaruvchilar, hatto "Qozog'iston ipoteka kompaniyasi" OAJning kafolati bilan ham (esda tutingki, FGZhS 2020 yil 27 oktyabrda o'z faoliyatini to'xtatgan), obyektlarni har doim ham o'z vaqtida va sifatli foydalanishga topshirmaydi. Eskrou hisobvarag'i mexanizmi aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qiladi, lekin shu bilan birga ishlab chiquvchidan qurilishga shaxsiy yoki qarz mablag'larini kiritishni talab qiladi, bu esa mumkin bo'lgan ishlab chiquvchilar doirasini cheklaydi.

Hozirda Qozog'istonda DDU bo'yicha hisob-kitoblar uchun eskrou hisobini majburiy joriy etish masalasi ishlab chiqilmoqda.

Agar tashabbus qonunchilik darajasida ma'qullansa, eskrou hisobvarag'idan foydalangan holda DDU operatsiyasi quyidagi bosqichlardan o'tadi:

1. Mulkni xaridor bankni DDU bilan ta'minlaydi va eskrou hisobini ochadi;
2. Ishlab chiqaruvchi bankka huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etadi;
3. Bank, xaridor va ishlab chiqaruvchi o'rtaida mablag'larga bo'lgan huquqlarni o'tkazish shartlari va muddati ko'rsatilgan uch tomonlama shartnomasi imzolanadi.
4. Xaridor oldi-sotdi bitimi tuzilgandan keyin ishlab chiqaruvchiga o'tkazishi kerak bo'lgan summani eskrou hisobvarag'iga to'ldiradi.
5. Sotuvchi va xaridor bank ishtirokisiz oldi-sotdi bitimini amalga oshiradilar.

6. Quruvchi bankka ish tugaganligi to'g'risidagi guvohnoma va binoni foydalanishga topshirish uchun hujjatlarni taqdim etadi.

7. Bank taqdim etilgan hujjatlarni tekshiradi va eskrou hisobvarag'idan foydalanish huquqini xaridordan sotuvchiga o'tkazadi.

8. Ishlab chiquvchi hisobvaraqdan pul mablag'larini olish va o'z hisobiga o'tkazish huquqini oladi. Eskrou hisobi yopiladi¹⁸.

Eskrou hisobvarag'idan foydalanganda aksiyador quyidagi imtiyozlarga ega bo'ladi:

- uyni foydalanishga topshirish kafolati yoki pul mablag'larini qaytarish;
- eskrou hisobini ochish odatda akkreditivga qaraganda arzonroq;
- Siz naqd pulsiz to'lovlar yordamida eskrou hisobvarag'iga pul o'tkazishingiz mumkin, bu naqd to'lov larga qaraganda qulayroq va xavfsizroqdir.

Shunday qilib, qozog'istonliklar tranzaktsiyalarni amalga oshirishda banklar taklif qilayotgan moliyaviy vositalardan ko'proq foydalanishlari kerak. Eskrou hisobi sizga tranzaksiya xatarlarini nolga kamaytirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda eskrou (shartli depozit) mexanizmini rivojlantirish bo'yicha qonunchilikka kiritilishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni aytib o'tish mumkin. Jumladan:

Eskrou mexanizmni tartibga soluvchi maxsus qonun qabul qilish;

Ushbu tizimni O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi yangi tahririga batafsil kiritib o'tish, eskrou hisoblarini onlayn ochish imkoniyatlarini yaratish;

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu huquqiy mexanizmning qo'llanilish sohalarining kengligini inobatga olish, buning natijasida tomonlarga qulayliklar yaratilishi, majburiyatlar ta'minlanishi hisobga olish lozim bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda Eskrou shartnomasi tushunchasini O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga kiritish, shartnomaning mexanizmlarini to'liq yoritish, tomonlarning huquq va majburiyatlarini aniq belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

¹⁸ Как вести учет застройщику по счетам эскроу? Источник: <https://www.1cbit.kz/blog/kak-vesti-uchet-zastroyshchiku-po-schetam-eskrou/>

ONA TILI VA O'QISH DARSLARI JARAYONIDA O'QUVCHILARNING NUTQIY FAOLIAYTINI TAKOMILLASHTIRISHDA TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH YO'LLARI.

Muslima Abdunazarova Abdug'affor qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada ona tili va o'qish darslari jarayonida o'quvchilarning nutqiy faoliyatini takomillashtirishda texnik vositalardan foydalanish yo'llari; innovatsion metodlarni qo'llash; darsni to'g'ri tashkil qilish; kreativ, kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish aks etgan.

Kalit so'zlar: 4K modeli, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik tahlil, tamoyil, platforma, boshlang'ich ta'lif, ko'rgazmalilik, ona tili, o'qish, texnik vositalar, darslik.

Ways to use technical tools to increase pupils' speech activity in native language and reading lessons.

Annotation: This article reflects ways to use technical means to increase students' speech activity in native language and reading lessons; use innovative methods; properly organize the lesson; develop creative and critical thinking skills.

Keywords: 4K model, collaboration, communication, creative thinking, critical analysis, principle, platform, primary education, demonstration, native language, reading, technical tools, textbook.

Yangi o'quv yilidan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari yangi avlod dasturi darsliklari asosida ta'lif oladi. Ushbu qo'llanilayotgan darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning yangi 4K modeli tamoyillari asosida ishlab chiqilganligi va ta'lif jarayoniga tatbiq etilganligidir. O'quvchilar endilikda berilayotgan ma'lumotlarni quruq yodlash yoki shunchaki o'qib yozish bilan kifoyalanib qolmay bugungi zamonaviy davr uchun ham zarur bo'lgan ko'nikma va bilimlarni egallab boradi. 4K modeli asosida yondashuvi o'z nomi bilan 4 ta tamoyilni o'z ichiga oladi:

Kollaboratsiya: Darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi. 1-sinf alifbe darsligida "So'zlarni bo'g'lnlarga bo'lish" mavzusida Alifbe qahramonlari bilan tanishuv mashqi orqali o'quvchilar bilan matnni rollarga bo'lib o'qish mumkin va bu mashqni o'zları bilan o'tkazilsa, o'quvchilar bir birlarining nimalarga qiziqishlaridan xabardor bo'ladilar. 2-3-4 sinf o'qish savodxonligi darsliklarida ham jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirish uchun ko'plab mashqlar berilgan. Ayniqsa, darslikdagi "Jamoa bo'lib ishlang" deb alohida shartli belgining

bo'lishi ham o'quvchilar orasida hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy belgilardan biridir.Ushbu belgi kelgan joyda mashq mazmuni ham aynan guruhlarga bo'linib ishlang mazmunida keladi.Mashqlar orqali o'quvchilar o'zlarining jamoaviy ishlash qobiliyatini o'stiradi.

Kommunikativlik: O'quvchilar o'z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma'lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o'rganadi.Bunda o'quvchilar o'zlarining nutqiy qobiliyatlarini namoyon etadilar.Darsliklarda berilayotgan matnlar va ular yuzasidan beriladigan savollar ko'proq o'quvchini o'ylanishga,o'z ustida ishlashga,nutqiy ko'nikma malakasini oshirishga qaratilgan."Misralar oxiriga ohangdosh so'zlarni topping" "Vatan so'ziga ta'rif bering" "Amerikada daraxtlar nima uchun qurib qoldi?" "She'rni o'qiganingizda ko'z oldingizda nimalar namoyon bo'ldi?" kabi ko'plab savollar o'quvchilar nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Kreativ fikrlash: O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Darsliklarda beriladigan "O'ylab ko'ring" shartli belgisi mashqqa ijodiy yondashish kerakligini anglatadi.Misol uchun,"Berilgan harflarning o'rnini o'zgartirib,bo'limga mos so'znitoping" Shu kabi mashqlar ham o'quvchi ongini ijodiy fikrlashga undaydi

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o'z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar matn yuzasidan berilgan savollar orqali tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.Xususan,"Tabiatda daraxtlarning kamayib ketishiga nimalar sabab bo'lyapti,deb hisoblaysiz?" "Orol dengizining qurishiga nima sabab bo'lgan deb hisoblaysiz?" "Rasmlarni ifodalovchi so'zlarni bir-biriga bog'lab,bo'lim mazmuniga mos gaplar tuzing" kabi mashqlar o'quvchi kritikasining yangi qirralari ochilishiga xizmat qiladi.

O'quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o'rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Yangi innovatsion yondashuvni O'zbekiston maktablarida joriy etishdan oldin xorijiy tajribalar ham o'rganildi. Singapur, Xitoy, Angliya, Finlandiya, Estoniya kabi ta'limi ilg'or mamlakatlar o'quvchilarda 4K tamoyilini o'z ichiga olgan XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratadi.

Ta'lim jarayoning sifatli bo'lishida ko'rish orqali narsa hamda uning tildagi ifodasi haqida aniq tushunchaga ega bo'lsh muhim ahamiyatga ega.

Maktab ta'limi, asosan, bolaning mantiqiy tafakkuriga asoslangan holda ish ko'rishi lozim. Bunda obrazli tafakkur mantiqiy tafakkurning bir qadar past va oddiy shakli ekanligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Shu bilan bir qatorda, obrazli

tafakkur kichik maktab yoshidagi bolalar tafakkurining asosiy shakli hisoblanadi. Shuning uchun ham, obrazli tafakkur boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chizmalar, modellar, atrof-muhitdagi turli xil jismlar yordamida bilimlarni puxta o‘zlashtirish imkonini beradi. Shu asosga ko‘ra, boshlang‘ich ta’lim mazmunida bolalarning tasavvurini va ijodiy tafakkurini o‘stirishga qaratilgan, muayyan maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari ajratilishi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim – bola shaxsi rivojlanishining eng muhim davri hisoblanib, bu davr bola ongi ostida olamni anglash, tasavvur va tafakkur dunyosini qayta kashf etish kabi o‘ta nozik davr sanalganligi uchun ham katta e’tibor talab etadi. Ayni paytda bola o‘z dunyosida “o‘quvchi” shaxsini yaratadi, maktabga, bilim olishga mehr, qiziqish tuyadi va kelgusida yuksak marralarni egallah uchun kuch to’playdi. Bu esa o‘z navbatida bugungi zamonaviy darsliklarga ham g’oyaviy, ham tarbiyaviy, ham ma’rifiy jihatdan mas’uliyatli yondashish kerakligini talab etadi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida ona tili va o‘qish savodxonligi fanining ahamiyati beqiyosligini albatta dars tahlili jarayonida ko‘rishimiz mumkin. Bu ta’lim jarayoni o‘quv fanlarini o‘qitish samaradorligi va sifatini belgilaydi. O‘qish darslari bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga morfologiya bo‘limi haqida tushuncha berish uchun o‘qituvchi ta’limning eng qulay usullardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchi dars jarayonini tashkil qilishda raqqli ta`lim tehnologiyasidan foydalansa o‘quvchilarnih tanqidiy fikrlash ko‘nikmasi o’sib boradi. O’tilgan dars jarayonidagi ma'lumotni tanqidiy baholash, tahlil qilish va sharhash qobiliyatini to‘g’ri, mantiqiy xulosa chiqarish hamda oqilona qaror qabul qilishga yordam beradi. Bunda darslarni samarali tashkil qilishda texnik vositalar va didaktik o‘yinlarning ahamiyati juda katta. Shuning uchun o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar ularning yosh xususiyatlariga muvofiq o‘yin tariqasida uyushtiriladi. Bunda o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan, o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan materiallarni oson o‘zlashtiradi va shu bilan birga atrof-muhit, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko‘rishga, ular to‘g’risida fikrlashga, ulardan to‘g’ri xulosalar chiqarishga va xulosalarini asoslashga o‘rganadilar. O‘quvchilarni fanga qiziqtirishni va bilim, ko‘nikma, malakalarini to‘g’ri egallahlariga erishishni didaktik o‘yinlar orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1-sinf o‘qish savodxonligi darslarida o‘qituvchi o‘zi o‘quvchilar uchun elektron o‘quv qo‘llanmalarini tayyorlab, ulardan dars jarayonida foydalaniishi mumkin. Unda so‘zlarni tovushli-harfli jihatdan tahlil qilish, so‘z bo‘g‘inlarining tuzilishi, ba’zi orfografik yoki orfoepik qoidalar o‘rganilishini turli qiziqarli ko‘rgazmali va ovozli

material tarzida berish mumkin. Yorqin rasmlar, kreativ fikrlashga undaydigan qiziqarli topshiriqlar kichik yoshdagi o‘quvchilarda ona tiliga qiziqishni oshirishga yordam beradi,didaktik o‘yinlar shaklida o‘quv materiali bilan yaqindan tanishish imkoniyatini beradi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Ushbu qo‘llanma bo‘yicha ta’lim jarayonini differensiatsiyalashga turli darajadagi murakkablikdagi topshiriqlarni tanlab olish yordamida erishiladi. Savodxonlikka o‘qitish bo‘yicha tematik rejalarhtirishni ishlab chiqishda rejalarhtirishga tegishli elektron mavzular va bo‘limlarni kiritish mumkin. Dars rejasini ishlab chiqishda frontal, individual va guruhli ishlash uchun kompyuterni qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘lgan dars bosqichlarini ishlab chiqish lozim.

Ona tili bo‘yicha o‘rganiladigan so‘z leksik mazmunini talqin qilishda va birliklarni turlarga ajratishda o‘quvchilarda qiyinchiliklar tug‘diradi. Bular: antonimlar, sinonimlar, omonimlar. Testlar orqali o‘quvchilarning leksik imkoniyatlari rivojlanadi, so‘zning to‘g‘ri va ko‘chma ma’nosini topishga, sinonimlarni to‘g‘ri tanlashga, sinonimlar, antonimlar va omonimlarni farq qilishga o‘rgatadi. Antonimlar bilan ishlashga bag‘ishlangan «Teskari o‘yin» testidan foydalanish o‘quvchilarga darsni tushuntirishga samarali ta’sir etadi.

Asosiysi: test topshiriqlarini bajarishda o‘quvchining ko‘zi, miyasi va qo‘llari ishtirok etadi, o‘yin elementlari esa ularda bajarayotgan ishlariga qiziqishni rivojlantirishga va demak, ta’lim jarayoni jadalligi kerakli darajasini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Testlardan tashqari krossvordlar, sxemalar, jadvallardan foydalaniladi, o‘ quvchilar dars materiallarni mustaqil o‘rganishda bevosita kompyuterda ishlaydilar.

Platformadan dars davomida ham, bo‘sh vaqtida ham foydalanish mumkin. O‘quvchilar uning yordamida o‘zlashtirilgan bilimni mustahkamlash bilan birga, mustaqil tarzda dasturdan oldinlab ketishlari ham mumkin.

O‘quv-metodik komplekslar Android, IOS platformalari va “Matematika” va “Alifbo” mobil ilovalari uchun o‘zbek va rus tillarida ongni o‘siradigan o‘yinlar to‘plamiga ega interfaol o‘quv dasturini ham o‘z ichiga oladi.

E’tiborlisi, 1-3 sinflar uchun taqdim etilgan darsliklarning bir qismi, xususan, tasviriy san’at, ona tili va musiqiy savodxonlik bo‘yicha kitoblar kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanilgan holda ishlab chiqilgan. Bu o‘quvchilarni fanga yanada ko‘proq qiziqtirish hamda bugungi zamonaviy gadjetlarni foydali vositaga aylantirish maqsadida ishlab chiqildi.

Ushbu darsliklarda nafaqat fanlar, balki 21-asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalar ham o‘rgatiladi.

Ayni damda kitoblar yosh psixologiyasini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan. Masalan, birinchi sinfda ta’lim jarayoniga ko‘proq o‘yin orqali yondashiladi, ma’lumotlar asosan ko‘rsatish-vizual tarzda yetkaziladi.

Darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida didaktik o‘yinlarni to’g’ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Didaktik oyinlar uchun didaktik materiallarni tayyorlab qo‘yish, didaktik o‘yin jarayoni uchun vaqtini to’g’ri belgilash hamda to’g’ri nazorat qilish, didaktik o‘yinni yakunlash va xolisona baholash kabilarni aniq rejalashtira olish lozim.

Ko‘rgazmalilik tamoyili ta’lim jarayonida kuzatishdan - hissiy aniq tasavvur hosil qilishga, undan grammatik tushunchalarni atroflicha o‘zlashtirishga qarab boradi. Til o‘rgatish jarayonida buyumlar, jadvallar, rasmlar, xarita va boshqa tasviriy vositalardan, diafilm, kinofilm va audioeshittirishlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilimini har tomonlama puxta bo‘lishiga erishish mumkin. Bu tasviriy vositalar ona tilini o‘rganuvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga hamda ularni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga, lingvistik va nutqiy kompotensiyalarini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Didaktik material bilan ishslash ongli faollikni shakllantiradi, o‘rganilayotgan tilda fikrni mantiqan to’g’ri va keng bayon qilishga, nutqning rang-barang bo‘lishiga ko‘maklashadi. SHu sababli til o‘rgatuvchi turli manbalardan olingan rasmlar yordamida topshiriqli tarqatma materiallar tayyorlashi va mavzuning mohiyatiga qarab ulardan foydalanishi mumkin. Tarqatma materiallar uchun tanlanadigan rasmlarning mazmuni o‘quvchilarning diqqatini torta oladigan bo‘lishi, topshiriq shartiga muvofiq kelishi, mavzuni ochib berishga xizmat qilishi, bilimlarni ko‘nikmaga aylantirishga amaliy yordam ko‘rsatishi lozim. Diafilmlarni namoyish etish orqali berilgan mavzu asosida savollar tuzish va ularga javob hozirlash yoki o‘quvchilarning savol - javoblarini o’tkazish, gap, hikoya matnini tuzish ustida ishlashini uyushtirish mumkin.

O‘qish darslarida ko‘rgazmali qurollardan, tehnik vositalaridan barcha turdagи darslarda va darsning barcha bosqichlarida unumli foydalansa bo‘ladi. O‘quv materialini mustahkamlash va takrorlash jarayonida o‘zlashtirilgan ma’lumotni xotiraga tushiruvchi ko‘rgazmali quroldan foydalanilsa, yangi bilim berishda ko‘proq izlanuvchanlikni talab qiladigan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ammo shuni unutmaslik lozimki, ko‘rgazmali qurollardan unumli foydalanilsagina dars samarali bo‘ladi. Darsning katta qismining ko‘rgazmali qurollardan foydalanishga sarf etilishi yoki undan me’yordan ortiq foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini susaytiradi, toliqtiradi, zeriktiradi, darsning ilmiy jihatini kamaytirib oddiyashuvini, ya’ni fikrning dars mavzuidan va asosiy masaladan chetlashishiga sabab bo‘ladi, oqibatda darsdan kutilgan maqsadga erishib bo‘lmaydi. SHu bilan birga ko‘rgazmali qurollardan foydalanishni bir me'yorda va tartibli, rejalashtirilgan va qat’iy vaqt taqsimoti asosida olib bormaslik mazkur darsda o‘zlashtirishi mo’ljallangan o‘quv materialiga ajratilgan vaqtning yetishmasligiga olib

keladi. Og'zaki nutqni o'stirishda ko'rgazmali quollar va texnik vositalardan samarali foydalanish talab etiladi. Ko'rgazmali quollar yordamida:

- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalar asosida suhbatlar uyushtiriladi;
- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalar yuzasidan savollar tuzilib, ularga og'zaki javoblar hozirlanadi;
- manzarali suratlar va boshqa tasviriy vositalarda tasvirlangan voqealar so'zlab beriladi;
- ular asosida hikoya matni tuziladi va so'zlab beriladi.

Televizor, kompyuter va boshqa turdag'i texnik vositalar yordamida:

- Matn ikki-uch marta eshittirilgach, uning mazmuni so'zlab beriladi;
- matn asosida tuzilgan savollar va ularning javoblari eshittiriladi va o'quvchi tomonidan takrorlash asosida o'rganiladi;

- lug'atlar yodlanadi;
- matnni tinglash orqali ko'chirib yozish, ular yuzasidan turli topshiriqlarni bajarish, jumladan, savollar tuzish va ularga javoblar tayyorlash, so'ngra texnik vosita orqali berilgan topshiriqlar tuzilgan savollar va ularga berilgan javoblar bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agar yuqoridagi mashqlarning bajarilishi televizor yordamida ko'rsatiladigan bo'lsa, o'quvchilarning mashqlarni bajarilish jarayonida ularning imloviy jihatlariga ham e' tibor qaratishlariga imkoniyat yaratiladi. Eshitish sezgilari qatorida ko'rish sezgilarining ham ishtiroy etishi til o'rganishda yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash. 2. Qosimova K. va b. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. –T.: "O'qituvchi", 2009. -215 b.
- 3.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov,. Ona tili va o'qish savodxonligi 3-sinf. –Toshkent, 2022. –144 b. 4.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf. –Toshkent, 2021. –120 b. 5.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Ona tili va o'qish savodxonligi 1-sinf . –Toshkent, 2021. –104 b.

**QADIMGI PARFIYA AHOLISINING KIYINISH MADANIYATI HAQIDAGI
MA`LUMOTLAR**

Setora Xolmirzayeva

O'zMU Tarix fakulteti 2 bosqich magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada Qadimgi Parfiya aholisining kiyimlari va ularning qo'shimcha taqinchoqlari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, ushbu maqolada Qadimgi Parfiya davlatining erkaklar va ayollarining kiyinishi va ularning kiyimlariga tasnif berilgan.

Kirish so'zlar: chiton, gimatiy, parfumeriya idishlari, marjonlar , bilakuzuklar.

Qadimgi Parfiya aholisi o'ziga xos kiyinish uslubi bilan ajralib turgan. Bu davrda Parfiya aholisi kiyimi ijtimoiy mavqega, jinsga va faoliyat turiga qarab farqlangan. Ularning kiyimlari qulaylik, amaliyat va bezak o'rtasidagi muvozanatga asoslangan bo'lib, asosiy e'tibor sifatlari materiallar va murakkab bezaklarga qaratilgan. Erkaklar jangovar hayot tarziga moslashgan qulay tunikalar va shimplar kiygan bo'lsa, ayollar nafis va bezakli uzun ko'yaklar kiyishgan. Matolar tabiiy xom ashyodan tayyorlangan bo'lib, yorqin ranglar va naqshlar bilan boyitilgan. Bezaklar va taqinchoqlar kiyinish madaniyatining muhim qismi bo'lib, ular Parfiya zodagonlarining boyligi va ijtimoiy mavqeini ko'rsatgan. Shuningdek, kiyimlarda Eron, Mesopotamiya va elenistik madaniyatlarning ta'siri sezilib, Parfiya xalqi kiyinishida o'ziga xos milliy va mintaqaviy xususiyatlar shakllangan. Parfiyaliklar movut, zig'ir, ipak va paxta kabi tabiiy matolardan foydalangan. Kiyimlar ko'pincha naqsh va kashtalar bilan bezatilgan. Ularda geometrik shakllar, gullar va hayvonlar tasvirlangan¹⁹. Qadimgi Parfiya aholisi kiyim ranglari odatda yorqin ranglarda bo'lgan. Ular yorqin ranglarni yaxshi ko'rigan: qizil, ko'k, yashil va oltin ranglar keng tarqalgan. Parfiyaliklar turli taqinchoqlarni yaxshi ko'rigan. Ular oltin, kumush va qimmatbaho toshlardan yasalgan marjonlar, bilakuzuklar va uzuklar taqishgan. Bu faqat ayollar emas, erkaklar uchun ham odatiy bo'lgan.

Parfiya, aksariyat Osiyo madaniyatlari singari, erkaklar dunyosi edi. Yustinian parfiyaliklarning yomon fazilatlarini sanab o'tishdan zavqlanadi. Ular mag'rur, xiyonat va zo'ravonlikka moyil bo'lib, doimo muammo tug'diradilar. Shuningdek, biz ular tabiatan sukut saqlashlarini va gapirishga emas, balki harakat qilishga moyil ekanligini bilib olamiz. Ayollar alohida xonalarga qamalgan, qirolik kanizaklari esa soqchilar va amaldorlar bilan o'ralgan. Yustinianning yozishicha, ayollarga o'z eri bilan tushlik qilishlari va jamoat oldida ko'rinishlariga ruxsat berilmaydi. Albatta, so'zlar Palmirada erkaklar va ayollarning tunikalari mo'l-ko'l kashtalar bilan qoplangan. Keng qalin

¹⁹ Геннадий Андреевич Кошеленко <<Родина парфян>> - «Советский художник», Москва 148-149 стр

shimlar ko'chmanchilarning kiyimi bo'lib, otga minish uchun qulay bo`lgan va bu kiyimni kiyib yuruvchi parfiyaliklar asosan harorat past bo`lgan hududlarda yashashgan. Issiqroq joylarda istiqomad qiladigan parfiyaliklar kiyadigan kiyimlari tunika va shimlar nisbatan yupqa matolardan tikilgan bo'lishi mumkin. Ot minish uchun charmdan yoki matodan tikilgan uzun etiksimon kiyim kiyilib, ular murakkab bog'ichlar tizimi bilan mahkamlangan. Parfiya kostyumi yon tomoniga taqilgan xanjar bilan to'ldirilgan. G'arbiy Parfiyada ko'plab erkaklar yunoncha kiyim kiyishgan: tunika (chiton) va plash (gimatum), issiq havoga ko'proq mos keladigan keng kiyimlar, lekin ular dehqonlar yoki hunarmandlar uchun mos emas edi. Parfiya san'atida bu odamlarning tasvirlari deyarli yo'q, ammo Palmirada ular sarong kabi g'alati xalat qo'shilishi mumkin bo'lgan qisqa tunika kiygan²⁰. Mitridat I davridan beri parfiyalik erkaklar soqol qo'yishgan. Sochlari odatda uzun edi va tasvirlarda u to'lqinli iplar yoki bir necha qator jingalaklarda mahorat bilan bezatilgan. Ayollar odatdagidek ehtiyyotkorlik bilan o'ralgan G'arbiy Osiyo madaniyatlarida. Ular to'pig'igacha bo'lgan tunika, to'n va ko'pincha parda kiyib yurishardi. Juda mashhur bosh kiyim metall diadem va baland salladan iborat bo'lib, uning ustiga qalpoq yoki parda kiyiladi. Ularning sochlari odatda yunoncha uslubda o'ttada ajralish bilan bezatilgan. Chiroyli Parfiya ayollari o'zlarining mo'l-ko'l zargarlik buyumlari bilan Edvard davrining eng hayoliy kiyingan go'zallari bilan raqobatlasha olishdi. Erkaklar ham barmoqlariga uzuk taqib yurishgan, kiyimlari va yumshoq poyabzallari tosh va marvaridlar bilan bezatilgan. Biroq, erkaklar tomonidan sirg'a taqish shaharlik emas, balki qishloq odati bo'lib qoldi. Kosmetika kostyuming so'nggi teginishlarini yakunladi. Palmiradagi qabrlar relyefidagi bo'yoq izlari "Palmira go'zalligi" qizil lab bo'yog'i kiyganini, ko'zlarini qora chiziqlar bilan chizganini va yonoqlarini pushti rangga bo'yashini ko'rsatadi. Erkaklar ham kosmetikadan foydalanganlar: Krassni zabit etgan Suren o'zining bo'yagan yuzi va ayollarga xos sochlari bilan rimliklarni hayratda qoldirdi. Pliniyning so'zlariga ko'ra, shohlar va donishmandlar za'faron va palma sharob qo'shilishi bilan gelianthus o'simligi va sher yog'idan iborat bo'lgan iksirni ishlatischgan: bu malham ularning tashqi ko'rinishini yaxshilashi kerak edi. Toj kiyish paytida yigirma yetti ingredientdan iborat yanada murakkab moylash ishlataligan. Hojatxona parfyum bilan to'ldirilgan, Salavkiyada parfyumeriya uchun idishlar topilgan²¹.

Ko'pgina murakkab buyumlar ellistik yunoncha uslubda yasashda davom etdi. Biroq, Parfiya yangi taqdimotlar orasida kumush munchoqli bilaguzuklar, kumush filigrali ish va munchoqli zargarlik buyumlari (Dura-Europesda topilgan) va rangga ko'proq e'tibor qaratildi. Suriyada shisha ustaxonalari bo'yinbog' va bilaguzuklarning

²⁰ Колледж Малькольм <<Парфяне. Последователи пророка Заратустры>> - М: ЗАО Центрополиграф, 2004.- 86 стр

²¹ Колледж Малькольм <<Парфяне. Последователи пророка Заратустры>> - М: ЗАО Центрополиграф, 2004.- 87 стр

moslashuvchan zanjirlariga bog'langan shisha massasidan zargarlik buyumlarini ishlab chiqqargan. Tumorlar juda ko'p topilgan. Tapirlar derbiylar va hirkaniyaliklar orasida yashaydi. Aytishlaricha, tapirlarning odatiga ko'ra, turmushga chiqqan ayollarni ulardan ikki yoki uchta farzand ko'rishlari bilanoq boshqa erlarga berishadi, xuddi bizning davrimizda bo'lgani kabi, Rimliklarning qadimgi odati bo'yicha va xotini uning iltimosiga binoan Katon Marsiyani Hortensiyaga bergen. Katta savdogarlarning saroylari va uylarida Parfiya boylari eng yaxshi sifatli oltin va kumush idishlardan foydalanganlar. Idishlar barglar naqshlari (dafna, akantus va uzum) yoki rozet va raqamlar bilan bezatilgan. Ahamoniylar va Salavkiylar davridan o'tgan shakllarni ko'rish mumkin. Shomidan topilgan sandiqning bezaklari naqshinkor marvarid figuralaridan iborat edi²².

Erkaklar kiyimlarida zargarlik buyumlari kamroq bo'lsa, ayollar kiyimlariga bezak va zargarlik buyumlari qo'shilgan, bu ularga yuqori maqomni ifoda qilishga yordam bergandi. Parfiya jamiyatida erkaklar va ayollar kiyimlari ularning ijtimoiy maqomiga, jamiyatdagi o'rni va diniy hamda madaniy qadriyatlarga farqlangan edi. Erkak kiyimi, ko'proq, harbiy tayyorgarlikni va hokimiyatni ifoda etgan bo'lsa, ayollar kiyimi ko'proq estetik go'zallik va zodagonlikni ko'rsatgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Колледж Мальcolm <<Парфяне. Последователи пророка Заратустры>> - М: ЗАО Центрополиграф, 2004
2. Геннадий Андреевич Кошеленко <<Родина парфян>> - «Советский художник», Москва

²² Геннадий Андреевич Кошеленко <<Родина парфян>> - «Советский художник», Москва, 1977.-57-59 стр
www.bestpublication.net

Fazliddinova Muqaddas Elyor qizi

*Toshkent davlat pedagogika universiteti “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi”
yo’nalishi talabasi*

Anotatsiya Ushbu maqolada tasviriy san’atdagi pop art uslubining mazmun-mohiyati, shakllanish tarixi va uning san’at rivojidagi o’rni tahlil qilinadi. Maqolada mashhur pop art vakillarining ijodiy yondashuvlari, bu uslubning san’at ixlosmandlari ongida uyg‘otgan yangicha qarashlar va uning bugungi san’atdagi davomchiligi haqida so‘z yuritiladi. Pop art uslubining zamonaviy tasviriy san’atga ko’rsatgan ta’siri, shuningdek, uning tanqidiy va ijtimoiy ahamiyati alohida yoritib berilgan.

kalit so’zlar: pop art uslubi, abstrakt san’at, eksperimentlar, reproduksiya, komiks, zamonaviy san’at, vizual san’at, kollaj, postmodernizm.

THE IMPORTANCE OF POP ART IN FINE ART

Annotation This article analyzes the essence of the pop art style in visual arts, the history of its formation, and its role in the development of art. The article discusses the creative approaches of famous pop art representatives, the new views that this style has awakened in the minds of art lovers, and its continuation in today's art. The impact of the pop art style on modern visual arts, as well as its critical and social significance, are highlighted.

keywords: pop art style, abstract art, experiments, reproduction, comics, modern art, visual art, collage, postmodernism

ЗНАЧЕНИЕ ПОП-АРТА В ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация В статье анализируется сущность стиля поп-арт в изобразительном искусстве, история его становления и роль в развитии искусства. В статье рассматриваются творческие подходы известных представителей поп-арта, новые перспективы, которые этот стиль пробудил в умах ценителей искусства, и его продолжение в современном искусстве. Подчеркивается влияние стиля поп-арт на современное визуальное искусство, а также его критическое и социальное значение.

Ключевые Слова: поп-арт, абстрактное искусство, эксперименты, репродукция, комиксы, современное искусство, визуальное искусство, коллаж, постмодернизм.

Pop art - (inglizcha popular art — “ommabop san’at”) G‘arbiy Yevropa va AQSH tasviriy san’atida 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarda paydo bo‘lgan yo‘nalish. Pop art uslubidagi tasvirlar banan, konserva qutisi yoki hayvonlar rasmi bo‘lishidan qat’iy nazar har doim yorqin, rang-barang, ifodali va quvnoq xarakterga ega. Shuning uchun ijro uslubi keng ommaga yoqadi.

Abstrakt san’atning borliqdan, real hayotdan ajralib borishiga qarshi hara-kat ko‘rinishida shakllangan. Pop art vakillari real borliqqa qaytish, keng ko‘lamda ishlab chiqarilayotgan buyumlarning estetik qiymatini ommaviy yo‘llar (reklama, foto, reproduksiya, komiks) vositasida yoritishni asosiy maqsad qilib oldi. Shahar hayotida keng ishlatiladigan buyumlar (uy-ro‘zg‘or anjomlari, o‘rov qutichalari, mashina bo‘laklari)ni xuddi o‘ziga o‘xshatib ishlab, ularning o‘zidan (ko‘pincha kollaj va boshqa usullar yordamida) kompozitsiyalar tuzadi. Pop artda tanlangan buyumlar tasodifiy, bir-biri bilan bog‘liq bo‘lmagan holda birlashtirilishi mumkin. Muhimi bir-biri bilan moye tushmaydigan buyumlarni birlashtirish orqali tomoshabin fikri va tasavvuriga zid hissiyotlarni uyg‘otishdan iborat. Masalan, rassom romkaga tortilgan toza matoga uning diagonali bo‘yicha rangli sharifni bog‘lashi yoki unga dastro‘mol qo‘yib ko‘rgazmada namoyish etishi mumkin. Pop art texnikasi imkoniyatlaridan keng foydalanadi, fotosurat, slaydadan polotno (yuza)ga tushirilgan tasvir konturlarini yorqin bo‘yoqlarda ishlaydi, sanoatda ishlab chiqarilayotgan yorqin rangli buyumlarni o‘z asarlarida ko‘rsatadi, ulardan kompozitsiyalar tuzadi.



Pop-art harakati ommabop va tijorat madaniyatiga e'tibor qaratish, an'anaviy tasviriy san'at tushunchalarini rad etish bilan ajralib turardi. Pop-artni belgilaydigan ba'zi xususiyatlar:

1. O'zlashtirish: Pop-art san'atkorlari ko'pincha reklama, filmlar va komikslar kabi mashhur madaniyatning tasvirlari va g'oyalarini o'zlashtirdilar.
2. Yorqin ranglar: Pop Art o'zining qalin, yorqin rangla"
3. Ironiya va satira: Pop-art ko'pincha istehzo va satiradan foydalanib, zamonaviy jamiyatning bema'nilik va sayozligini ta'kidlab, asosiy madaniyat va iste'molchilikni tanqid qilgan.
4. Takrorlash: Ko'pgina Pop Art asarlarida takrorlanuvchi tasvirlar yoki naqshlar mavjud bo'lib, ular ommaviy ishlab chiqarish va iste'molchilik tuyg'usini yaratadi.
5. Kundalik buyumlar: Pop Art san'atkorlari o'z ishlarida sho'rva qutilari, gazetalar va neon chiroqlar kabi kundalik buyumlar va materiallardan tez-tez foydalanganlar.
6. Ommaviy axborot vositalari: Pop san'ati ommaviy axborot vositalari va uning jamiyatga ta'siri katta ta'sir ko'rsatdi va ko'plab asarlarda taniqli shaxslar, reklamalar va boshqa media ikonalari tasvirlangan.
7. Kollaj: kollaj pop-rassomlar orasida mashhur uslub edi, chunki bu ularga turli xil elementlar va tasvirlarni bitta asarga kiritish imkonini berdi.

8. Pop madaniyatiga oid ma'lumotlar: Pop Art ko'pincha Elvis Presli, Merilin Monro va Mikki Maus kabi 1950 va 1960 yillardagi mashhur madaniyat piktogrammalariga murojaat qilgan.

Umuman olganda, Pop Art urushdan keyingi davrdagi iste'mol madaniyatiga javob edi va u mashhur madaniyat tasvirlarini nishonlash va buzish orqali "yuqori san'at" degan tushunchaga qarshi chiqdi. Uning ta'sirini zamonaviy madaniyatning ko'plab jahbalarida, reklamadan modagacha, musiqagacha ko'rish mumkin.

Mashhur Pop Art rassomlari va asarlari:

Rassom	Millati	Mashhur Asarlari
Andy Warhol	AQSH	"Campbell's Soup Cans","Marilyn Diptych"
Roy Lichtenstein	AQSH	"Whaam!","Drowning Girl"
Richard Hamilton	Britaniya	"Just what is it..."(1956)
Claes Oldenburg	AQSH	"Giant Soft Drum Set"(1967)

Dastlab ko'plab tanqidchilar pop artni san'atning past darajaga tushishi deb hisoblashgan, haddan tashqari soddaligi uchun tanqid qilishgan, faqat reklama usullarini takrorlashda ayblashgan. Ammo keyinchalik bu harakat zamonaviy madaniyatni eng aniq ifodalovchi uslub sifatida tan olingan, postmodernizmning kelishiga yo'l ochgan, san'at bozorini butunlay o'zgartirgan.

Pop art uslubi O'zbekiston san'atida 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa mustaqillik yillarida keng tarqalib, mahalliy madaniyat bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Sovet davrida pop art elementlari 1970–1980-yillarda O'zbekiston rassomlaridan biri Aleksandr Nikolayev ("Usto Mumin") G'arb pop artiga o'xshash uslublarda eksperimentlar qilishgan, lekin bu an'anaviy sovet realizmi cheklovlarini tufayli cheklangan edi . Mustaqillikdan keyingi davr 1990-yillardan boshlab Javlon

Umarbekov, Timur Akhmedov kabi rassomlar o‘z asarlarida pop artning yorqin ranglari va ommaviy madaniyatga murojaat qilish usullaridan foydalana boshladilar .

Shuningdek Tashkent Alley Cats kabi loyihalarda komiks va pop art uslubidagi devor rasmlari ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekistonda pop art uslubi hali to‘liq shakllanmagan bo‘lsa-da, u zamonaviy san’at doirasida asta-sekin rivojlanmoqda. G‘arb san’ati ta’sirida, ammo milliy an’analar bilan uyg‘unlashgan holda, yosh rassomlar bu yo‘nalishda yangi izlanishlar olib bormoqda. Pop art O‘zbekiston san’atida ijtimoiy mavzularni yoritish, xalqona obrazlarni zamonaviy talqinda ko‘rsatish, va san’at orqali jamiyatga o‘ziga xos nigoh bilan qarash imkonini bermoqda. Shu bois, kelajakda bu uslub yanada ommalashishi va o‘ziga xos milliy pop-art maktabi shakllanishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda pop art nafaqat o‘tmishdagi san’at harakati, balki bugungi kunda ham moda, reklama, grafiti va raqamli olamda yangi shakllarda yashamoqda. Uning asosiy tamoyillari – ommaviylik, rang-baranglik va madaniy tanqid – zamonaviy ijodkorlar uchun manba bo‘lib qolayotir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1. Karimov, D.** (2020). Zamonaviy san’at: yo‘nalishlar va rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: San’at nashriyoti.
- 2. Rizaev, S.** (2019). O‘zbek san’atida zamonaviy oqimlar. Toshkent: Ilm ziyo.
- 3. Saidova, N.** (2021). “Milliy an’analar va zamonaviy san’at sintezi”. // San’at va madaniyat jurnali, №2, 45–50-betlar.
- 4. Daminov, A.** (2022). Pop-art san’atida ijtimoiy g‘oyalar ifodasi. – Toshkent: Innovatsion san’at markazi.
- 5. Masharipova, G.** (2020). “O‘zbekiston zamonaviy san’atida G‘arb ta’siri”. // Toshkent san’at instituti ilmiy maqolalar to‘plami, №3, 67–72-betlar.
- 6. Artel Aralash – Rasmiy sahifalari va ko‘rgazma materiallari (2021–2023).** www.artelaralash.uz
- 7. Ilkhom Gallery – Toshkentdagi zamonaviy san’at galereyasi arxivi.** www.ilkhom.uz

Ali Abdreymov¹ Venera Karimvoyeva¹ Arzieva Amangul¹

*¹Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy, 742012,
Nukus shahri, O'zbekiston, **

Annotaciya Tajribada kremniyli p-n-o'tishlarda ko'chkili teshilishda zarbali ionlanish tokning ta'siri yarimo'tkazgichning bir jinsli bo'lмаган qizishi bir jinsli qizdirish bilan farqi aniqlandi. Harorat gradiyenti tok yo'nalishiga bog'liq holda zarbali ionlanish tokini kamaytirishi yoki ko'paytirishi mumkin. Shu bilan birga p-n-o'tishning teshilish kuchlanishini sezilarli darajada o'zgaradi. Olingan natijalar bilan izohlangan bo'lib, unda amalga oshirilgan sharoitlarda p-n-o'tishning fazoviy zaryadi sohasidagi juftlik elektron-kovaklar sonining ortishiga yoki kamayishiga olib keladi

Kalit so'zlar: kremniy, zarbali ionlanish, harorat gradiyenti,mikroplazmalar

Kirish

Tok oqimining asosiy impulsining alohida shakli bu mikroplazma holatlari hisoblanadi. Mikroplazma spontan qo'zg'aladi p-n o'tishdagi fazoviy zaryad sohasining (KZO) bir xil emaslididan mikroplazma kuzatiladi.Qurilmaning qizishi bilan haroratning oshishi natijasida mikroplazma bosimining paydo bo'lishi kuzatiladi.Mikroplazma impulslarining kinetikasini sonli o'rganishda shakli va uzlusizligi yarim o'tkazgich qurilmasining parametrlariga va kuchlanishiga bog'liq. Tajribalardan ma'lum aralashmali yarimo'tkazgichli diod strukturalarda p-n teskari tok oqimimig o'tishining lavinno proboy holatida lokal sohalarda yuqori zichlikka ega bo'lgan tok kuzatilib bu fanda -mikroplazma deb ataladi. Biz mikroplazma ko'rinishini p-n o'tishdagi fazoviy zaryad sohasining kichik bir xil emaslididan (defektlar sababli) lokal sohalarda kuchli elektr maydon ta'sirida mikroplazma hodisasi kuzatiladi. Mikroplazmalarning paydo bo'lishi lavinno proboy o'tish boshlanishida juda past oqimlarda oqim ortishi koeffitsientining o'rtacha qiymati $10^2\text{-}10^3$ dan oshmasa, mikroplazmadagi oqim ortishi koeffitsienti $10^7\text{-}10^9$ ga teng bo'ladi. Kremniy yarimo'tkazgichlarida p-n o'tishida deffektlar va lokal oblastlarda zichlikning keskin o'zgarishi mikroplazmalarni hosil qilishi mumkin[1,2]. Bu holat issiqlik o'tkazuvchanlikka ta'sir ko'rsatadi, va bu ta'sirni Fure usuli yordamida hisoblash mumkin. Fure usulini qo'llash uchun, quyidagi bosqichlarni ko'rib chiqish kerak. Birinchidan issiqlik o'tkazuvchanlikni aniqlash kerak. Kremniyda, bu ko'rsatkich materialning strukturasiga, deffektlar va mikroplazmalar mavjudligiga qarab o'zgarishi mumkin [3-4]. Fure usulida, issiqlik oqimining tarqalishi va issiqlikning material ichida qanday taqsimlanishi tahlil qilinadi. Ikkinchidan Fure tenglamasini qo'llashimiz kerak.

Fure usulida issiqlik o'tkazuvchanlikni hisoblash uchun, odatda Fure tenglamalari va issiqlik oqimining vaqtga bog'liq o'zgarishini modellashta ishlataladi. Bu tenglamalar issiqlik oqimi va materialning fizikaviy xususiyatlari (masalan, issiqlik sig'imi, zichlik, va issiqlik o'tkazuvchanlik) yordamida material ichidagi issiqlik tarqalishini hisoblaydi. Fure tenglamasi odatda quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \alpha \nabla^2 T$$

Bu yerda: T - temperaturaning joylashuvi (harorat); α - issiqlik tarqalish koeffitsienti (kremniy uchun bu termal difuzion koeffitsientidir); ∇^2 - Laplas operatori (bu issiqlikning fazoda qanday taqsimlanishini ifodalaydi). Kremniydan strukturali diodlarning p-n o'tishida deffektlar mavjud bo'lganda, bu materialning issiqlik o'tkazuvchanligini o'zgartirishi mumkin [5]. Diodning p-n o'tishida yuza qatlamida asosan deffekt joylashgan local oblastlatda zaryad tasuvchilarning ortishida tok zichligining ortishi bilan local oblastlarda issiqlikning tarqalishini cheklaydigan maydonlar, materialning issiqlik o'tkazuvchanligini pasaytiradi. Ushbu holatni hisoblashda Fure usulida, mikrostruktura va deffektlarni inobatga olish kerak bo'ladi, bu esa qo'shimcha parametrlarni kiritishni talab qiladi (masalan, deffektlarning zichligi va ularning issiqlik o'tkazuvchanlikka ta'siri). Bunday murakkab tizimlarni hisoblash uchun kompyuter modellashtirish usullari, masalan, sonli tahlil usullari qo'llaniladi. Fure tenglamasining yechimini topish uchun, masalan, differential tenglamalarni sonli usullar yordamida yechish mumkin. Bu usullar material ichidagi issiqlikning tarqalishini hisoblashda foydalidir. Haroratning o'zgarishini va issiqlik oqimining tarqalishini aniq hisoblash uchun materialning xususiyatlarini (zichlik, issiqlik sig'imi, issiqlik o'tkazuvchanlik) to'g'ri o'lchash va ularni Fure usuliga moslashtirish zarur. Fure usulida issiqlik oqimining tarqalishi va issiqlikning material ichidagi qanday taqsimlanishini tahlil qilishda quyidagi bosqichlarni ko'rib chiqish kerak. Kremniyda issiqlik o'tkazuvchanlik k asosan materialning xususiyatlariga bog'liq, lekin deffektlar va mikroplazmalar bu qiymatga ta'sir qiladi. Yani, mikrostruktura yoki defektlar mavjud bo'lsa, issiqlikning tarqalish tezligi o'zgaradi. Issiqlik o'tkazuvchanlik k bilan bog'liq bo'lgan oddiy munosabat quyidagicha ifodalanadi:

$$q = -k \nabla T$$

Bu yerda: q — issiqlik oqimi (J); k — issiqlik o'tkazuvchanlik ($W/m \cdot K$); ∇T — haroratning fazodagi gradienti. Issiqlik oqimi q haroratning gradienti ∇T bilan bog'liq bo'lib, materialning issiqlik o'tkazuvchanligi k ni hisoblashda yordam beradi. Mikroskopik darajada, deffektlar materialning strukturasini buzadi, bu esa issiqlikning tarqalishiga qarshi qarshilikni oshiradi. Bunga ko'ra, issiqlik o'tkazuvchanlikni hisoblashda elektronlar va fononlarning (molekulyar va atomar darajadagi tebranishlar) harakati deffektlar orqali qiyinlashadi, bu esa issiqlikning tarqalishini susaytiradi.

Material ichidagi mikrostrukturalar, ya'ni mikroskopik ko'rinishdagi issiqlik yutilish va tarqalish hududlarining paydo bo'lishi, issiqlik o'tkazuvchanlikni yanada kamaytiradi.

Fure usulidan foydalanib issiqlik o'tkazuvchanlikni aniqlash uchun quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi yaniy kremniy materialining issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti k ni va issiqlik sig'imini aniqlash kerak. Bu parametrlar materialning strukturasi va haroratiga qarab o'zgaradi. Deffektlar va mikrostrukturalar mavjud bo'lsa, ularning issiqlik tarqalishiga ta'sirini modellashtirish zarur. Buni sonli metodlar yordamida, masalan, finite difference method yoki finite element method yordamida amalga oshirish mumkin. Fure tenglamasini sonli usullar yordamida yechish kerak. Bu usullar material ichidagi issiqlik oqimi va haroratning o'zgarishini vaqt bo'yicha tahlil qilishga imkon beradi. Bunday hisoblashlarni aniq qilish uchun kompyuter modellashtirish ishlataladi. Kompyuter dasturlari, yordamida issiqlik tarqalishining simulyatsiyalarini yaratish mumkin. Bu dasturlar ayniqsa, mikrostrukturalar va deffektlar mavjud bo'lganda material ichidagi issiqlik oqimi va haroratning tarqalishini tahlil qilishda juda foydalidir.

Hisoblash bolimi

Aytaylik, $T(x, t)$ $t \geq 0$ vaqt momentida $x \in \Omega$ nuqtadagi temperatura bo'lsin. Shu yerda $\Omega \subset R^n$ - soha, $n = 1, 2, 3$. Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \operatorname{div}(k(x)\nabla T) + f(x, t)$$

bu yerda $k(x) > 0$ - harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, $f(x, t)$ - mikroplazmaning issiqlik manbalari zichligi. Bizga ma'lumki, diffuziya jarayonini ifodalovchi tenglama ham xuddi shunday ko'rinishga ega. Agar $k = \text{const}$ koeffitsiyent x ga bog'liq bo'lmasa, u holda tenglama soddalashadi va tegishli aralash chegaraviy masala quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = k \Delta T + f(x, t), \quad T|_{t=0} \varphi(x), \quad T|_{\partial\Omega=0} \mu(x),$$

Bir o'lchovli holatni ko'rib chiqamiz va $k = a^2$ deb belgilaymiz:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = a^2 \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + f(x, t), \quad x \in [0, l], \quad t \in [0, t_n] \quad (1)$$

O'rghanishni boshlang'ich shartlar berilgan birinchi chegaraviy masaladan boshlaymiz.

$$T(x, 0) = \varphi(x), \quad x \in [0, l], \quad (2)$$

va chegaraviy shartlar

$$T(0, t) = \mu(t), \quad T(l, t) = v(t), \quad 0 \leq t \leq t_n \quad (3)$$

Avval bir jinsli tenglamani $f=0$, ya'ni issiqlik manbalari bo'lmaganda yechamiz. Faraz qilaylik, $\mu=v \equiv 0$, ya'ni kesmaning uchlarida nol harorat saqlanadi.

Fure usuli

(1) – (3) masalaning yechimi to'g'ri to'rtburchakda qidiriladi.

$$T\{(x, t) \mid 0 < x < l, 0 < t < t_n\}$$

Uning chegarasining bir qismini quyidagicha belgilaymiz

$$\Gamma = \{0 \leq x \leq l, t = 0\} \cup \{x = 0, 0 \leq t \leq t_n\} \cup \{x = l, 0 \leq t \leq t_n\}$$

(1) - (3) masalaning yechimi torning tebranish tenglamasini yechishga o‘xshash o‘zgaruvchilarni ajratish usuli bilan quriladi.

1. Birinchi qadam. $U(x,t) = Y(x)Z(t)$ ko‘rinishdagi xususiy yechimlarni izlaymiz. Buni tenglamaga qo‘yamiz va quyidagini hosil qilamiz.

$$Y(x) \cdot Z''(x) = a^2 Y''(x) \cdot Z(t).$$

$a^2 Y(x)Z(t)$ ga bo‘lamiz va quyidagiga ega bo‘lamiz

$$\frac{Z'(t)}{a^2 Z(t)} = \frac{Z''(t)}{Y(t)} = \lambda$$

2. Ikkinci qadam torning tebranish tenglamasi uchun Furye usulining ikkinchi qadamiga to‘g‘ri keladi. Shturm-Liuvill masalasi ko‘rib chiqilmoqda

$$Y''(x) = \lambda Y(x), \quad Y(0) = Y(l) = 0, \quad (4)$$

Quyidagi yechimga ega bo‘lamiz.

$$\lambda = -\mu_k^2, \quad \mu_k = \frac{k \cdot \pi}{l}, \quad Y_k(x) = \sin \mu_k x, \quad k = 1, 2, \dots$$

(4) masalaning barcha xos qiymatlari va xos funksiyalari topildi.

3. Keyingi qadam ikkinchi tartibli emas, balki birinchi tartibli $Z(t)$ uchun tenglamani yechishdan iborat. Har bir μ_k uchun bu tenglama quyidagi ko‘rinishga ega

$$Z'(t) + a^2 \mu_k Z(t) = 0,$$

uning umumiy yechimi

$$Z(t) = C_k e^{-a^2 \mu_k t}$$

$Y(x)Z(t)$ ko‘rinishdagi (1) tenglananing (3) chegaraviy shartni qanoatlantiruvchi barcha yechimlari topildi:

$$T_k(x, t) = C_k e^{-a^2 \mu_k t} \sin \mu_k x$$

4. Ushbu bosqichda (1) - (3) masalaning yechimi quyidagi qator ko‘rinishida qidiriladi:

$$T(x, t) = \sum_{k=1}^{\infty} C_k e^{-a^2 \mu_k^2 t} \sin \mu_k x \quad (5)$$

(2) boshlang‘ich shartdan quyidagini olamiz:

$$\varphi(x) = \sum_{k=1}^{\infty} C_k \sin \mu_k x,$$

bu yerda C_k - $\varphi(x)$ funksiyani (4) masalaning $\{\sin \mu_k x\}$ xos funksiyalari bo‘yicha yoyishdagi Fure koeffitsiyentlari:

$$C_k = \frac{2}{l} \int_0^l \varphi(x) \sin \mu_k x \, dx \quad (6)$$

Fure tenglamasini sonli usulda yechish

Fure tenglamasini sonli usulda yechish uchun, vaqt va fazoni diskretizatsiya qilish kerak. Diskretizatsiya jarayonida, haqiqiy uzlucksiz vaqt va fazo o'zgarishlari sonli nuqtalarga aylantiriladi. Bu jarayonni amalga oshirish uchun, vaqt va fazo uchun kichik o'lchovlar (grid points) kiritiladi. Xatoliklarni kamaytirish uchun, fazoda Δx va vaqtida Δt o'lchovlarining quyidagicha aniqlanishi mumkin: Fazodagi haroratni x_1, x_2, \dots, x_N nuqtalarda hisoblaymiz. Haroratni vaqt bo'yicha t_0, t_1, \dots, t_M nuqtalarda hisoblaymiz. Tenglamaning differensial shaklini sonli shaklga o'tkazishda, $\nabla^2 T$ operatorini diskretizatsiya qilish kerak. Fure tenglamasi uchun, ikkita asosiy differensial formula mavjud:

Fazo bo'yicha differensial operatorni diskretizatsiya qilishda Laplas operatorini ikki xususiyatga asoslanib hisoblash mumkin:

$$\nabla^2 T(x) \approx \frac{T(x + \Delta x) - 2T(x) + T(x - \Delta x)}{\Delta x^2}$$

Vaqt bo'yicha hisoblash uchun oddiy differensial formula qo'llaniladi:

$$\frac{\partial T}{\partial t} \approx \frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\Delta t}$$

Bu yerda: T_i^n - t_n va x_i nuqtasidagi harorat; Δx - fazo bo'yicha diskretizatsiya o'lchami; Δt - vaqt bo'yicha diskretizatsiya o'lchami. Fure tenglamasini sonli tarzda yechish uchun diskretizatsiya qilingan tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\Delta t} = \alpha \left(\frac{T_{i+1}^n - 2T_i^n + T_{i-1}^n}{\Delta x^2} \right)$$

Bu tenglama yordamida haroratning vaqt va fazo bo'yicha o'zgarishini hisoblash mumkin. Haroratning t_{n+1} va t_n vaqtlardagi qiymatlarini topish uchun ushbu tenglama yordamida iteratsiyalar amalga oshiriladi. Fure tenglamasining sonli shaklini yechish uchun **iteratsiya** metodini qo'llaymiz. Har bir vaqt nuqtasi uchun T_i^{n+1} ni hisoblaymiz. Iteratsiya qoidasi:

$$T_i^{n+1} = T_i^n + \frac{\alpha \Delta t}{\Delta x^2} (T_{i+1}^n - 2T_i^n + T_{i-1}^n)$$

Bu yerda: T_i^n - vaqtning n-chi qadamidagi harorat qiymati; T_i^{n+1} - vaqtning n+1-chi qadamidagi harorat qiymati; α - issiqlik tarqalishining koeffitsienti.

Boshlang'ich va chegaraviy shartlarni belgilashda haroratning boshlang'ich taqsimlanishi $T(x,0)$ belgilashda boshlanchish harorat barcha nuqtalarda bir xil deb hisoblaymiz. Shuning hisobda olgan holda chegaraviy shart kiritamiz chegaraviy shartlar: $T(0,t)=T_0$ (boshlangich nuqtadagi harorat); $T(L,t)=T_L$ (oqirgi nuqtadagi harorat). Kremniy materialida issiqlik tarqalish koeffitsienti $\alpha=1\times10^{-4} \text{ m}^2/\text{s}$, fazo bo'yicha tekshirish oraliqlari $\Delta x=0.1\text{mm}$ (1000 ta nuqta), vaqt bo'yicha tekshirish oraliqlari $\Delta t=1\text{ms}$, boshlang'ich harorat taqsimlanishi $T(x,0)=350\text{K}$. Chegaraviy shartlar: $T(0,t)=350\text{K}$, $T(L,t)=300\text{K}$. Haroratni t^{n+1} nuqtasida hisoblash uchun formulasini qo'llanamiz:

$$T_i^{n+1} = T_i^n + \frac{\alpha \Delta t}{\Delta x^2} (T_{i+1}^n - 2T_i^n + T_{i-1}^n)$$

$i=1, 2, \dots, N-1$ (eng birinchi va oxirgi nuqtalar chegaraviy shartlar bilan belgilanadi). Iteratsiya davomida haroratning vaqt bo'yicha o'zgarishini hisoblash uchun barcha nuqtalar uchun haroratni hisoblab va yangi vaqt qadamiga o'tamiz. Vaqt $t=t_0, t_1, \dots, t_M$ bo'yicha hisoblashni davom ettiriramiz. Buni hisoblash uchun **Python dasturidan foydalanamiz**. Quyidagi Python kodi yordamida bu hisoblashni amalga oshirish mumkin:

```
import numpy as np
```

```
import matplotlib.pyplot as plt
```

```
# Parametrlar
```

```
alpha = 1e-4 # Issiqlik tarqalish koeffitsienti (m^2/s)
```

```
L = 0.005 # Material uzunligi (m)
```

```
T_0 = 350 # Boshlang'ich harorat (K)
```

```
T_L = 300 # Chegara harorati (K)
```

```
# Diskretizatsiya qadamlarini aniqlash
```

```
N = 1000 # Nuqtalar soni
```

```
dx = L / (N-1) # Fazodagi diskretizatsiya
```

```
dt = 1 # Vaqt bo'yicha diskretizatsiya (s)
```

```
alpha_dt_dx2 = alpha * dt / dx**2
```

```
# Boshlang'ich shartlarni belgilash
```

```
T = np.ones(N) * T_0 # Boshlang'ich harorat
```

```
T[0] = T_0 # Chegara 1: T(0, t) = 350K
```

```
T[-1] = T_L # Chegara 2: T(L, t) = 300K
```

```
# Vaqt bo'yicha hisoblash
```

```
time_steps = 100 # Vaqt qadamlarining soni
```


```

for n in range(time_steps):
    T_new = T.copy()
    for i in range(1, N-1):
        T_new[i] = T[i] + alpha_dt_dx2 * (T[i+1] - 2*T[i] + T[i-1])
    T = T_new.copy()

# Haroratni grafika orqali chiqarish (har 10 qadamda)
if n % 10 == 0:
    plt.plot(np.linspace(0, L, N), T, label=f't = {n*dt}s')

# Natijalarni chiqarish
plt.xlabel('Position (m)')
plt.ylabel('Temperature (K)')
plt.title('Temperature Distribution over Time')
plt.legend()
plt.show()

```



1-rasm Mikroplaznadagi temperaturaning tarqalishi tasvirlangan

Yakuniy qism

Bu usul yordamida Fure tenglamasini sonli usulda yechish mumkin. Diskretlashatsiya, boshlang'ich va chegaraviy shartlar, va iteratsiya yordamida material ichidagi issiqlik oqimi va haroratning taqsimlanishini tahlil qilish mumkin. Yuqoridagi misolda, haroratning vaqt bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadigan grafikni olish mumkin. Haroratning vaqt bo'yicha taqsimlanishini ko'rsatadigan grafikni olish uchun quyidagi ketma-ketlikni bajarish kerak. Yuqoridagi misolda Python kodini ishlatgan holda, haroratning fazodagi taqsimlanishini vaqt bo'yicha ko'rish mumkin. O'zgaruvchan yarimo'tkazgich temperaturo'rasining ortishi bilan lavinno proboy parametrleri mikroplazma parametrlerining temperaturo'rasiga boglik bo'ladi, sababi mikroplazma kanalidagi elektronlar va kavaklarning zarba ionizatsiyasining koeffitsienti pasayadi. Mikroplazma tufayli oqimning beqaror sohasi 0,1-2V bo'lgani uchun bu diapazonda temperaturaning tarqalishi oralig'ida bir necha yassi emasligi lokal defektlar sababli mikroplazma qo'shilishi va ajratilishining to'sadifiy payda bolishiga olib keladi. Mikroplazmalarning o'z ara ta'siri ular orasidagi katta oraliqlarida ham kuzatilgani eksperimental tarzda tasdiqlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.I.V.Grexov, Yu.N.Serejkin. Yarimo'tkazgichlarda p-n-o'tishning ko'chkili teshilishi (L.,Energiya, 1980).

2.R.V.Konakova,P.Kardash va boshqalar. Prognozirovaniye nadejnosti poluprovodnikovix lavinnyx diodov, pod red.Yu.A.Txorika (Kiyev, Naukova dumka,1986).

3. M. B. Tagayev, A.I.Shkrebtii. Harorat xususiyatlarini o'rganish arsenidgalliyli ko'chkili oraliq dioddarda mikroplazmali teshilish Sbornik nauchnix trudov NGU, g.Nukus, 1987, s. 54-58.

4. A. I. Shkrebtii, M. B. Tagayev, S. I. Glushenko. Buzmasdan ishslash usuli parametrlnarni nazorat qilish va kremniylilarning ishonchligini prognozlash stabilitronlar. -IV-sohaviy seminar. Analiticheskiye metodi issledovaniya materialov i izdeliy mikroelektroniki, g.Zaparoje, 1987, s.30.

5. Tagayev M. B. Vliyaniye vneshnix vozdeystviy na elektricheskiye svoystva prostranstvenno- neodnorodnix diodnix struktur. doktorskaya dissertatsiya, 2001 g. S. 230.

Z.Mamatkulov

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Davlat kadastrlari” kafedrasi mudiri

I.Xaitov

TerDMAU tayanch doktaranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tuproq sho'rlanishining sabablari, oqibatlari va uni baholashda Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalarining o'rni tahlil qilinadi. Tuproq sho'rlanishi qishloq xo'jaligi va ekologiya uchun jiddiy muammo bo'lib, uning natijasida yer unumдорligi pasayadi va hosildorlik kamayadi. GAT texnologiyalarini orqali sho'rlangan hududlarni tezkor aniqlash, monitoring qilish va boshqarish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sho'rlanish muammosiga oid ilmiy manbalar, jumladan, o'zbek olimlarining tadqiqotlari ham tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, GAT texnologiyalaridan foydalanish tuproq sho'rlanishini kamaytirish va hosildorlikni oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Annotation: this article analyzes the causes, consequences of soil salinity and the role of Geographic Information Systems (GAT) technologies in its assessment. Soil salinity is a serious problem for agriculture and ecology, as a result of which land productivity decreases and productivity decreases. Through GAT technologies, the possibilities of rapid detection, monitoring and management of saline areas are considered. Scientific sources on the problem of salinity are also analyzed, including the research of Uzbek scientists. The results show that the use of GAT Technologies is an important tool to reduce soil salinity and increase yields.

Аннотация: В этой статье анализируются причины, последствия засоления почвы и роль технологий географических информационных систем (GAT) в ее оценке. Засоление почвы является серьезной проблемой для сельского хозяйства и экологии, что приводит к снижению плодородия земли и снижению урожайности. Рассматриваются возможности быстрого обнаружения, мониторинга и управления засоленными территориями с помощью технологий GAT. Также будут проанализированы научные источники по проблеме солености, в том числе исследования узбекских ученых. Результаты показывают, что использование технологий GAT является важным инструментом для снижения засоления почвы и повышения урожайности.

Kalit so'zlar: Tuproq sho'rlanishi, GAT texnologiyalari, GIS, masofaviy zondlash, sho'rlanish monitoringi, qishloq xo'jaligi, ekologik ta'sir.

Keywords: soil salinity, GAT technologies, GIS, remote sensing, salinity monitoring, agriculture, environmental impact.

Ключевые слова: засоление почвы, технологии GAT, ГИС, дистанционное зондирование, мониторинг солености, сельское хозяйство, воздействие на окружающую среду.

Kirish. Tuproq sho'rlanishi bugungi kunda qishloq xo'jaligi va ekologiya sohasidagi eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Dunyo bo'ylab sug'oriladigan yerkarning taxminan 20–30% qismi sho'rlanishdan aziyat chekmoqda, bu esa oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Sho'rlanish natijasida tuproq unumdorligi pasayadi, o'simliklarning o'sishi yomonlashadi va natijada qishloq xo'jaligi hosildorligi kamayadi.

Tuproq sho'rlanishi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sho'rlanish asosan iqlim sharoiti, noto'g'ri sug'orish, yer osti suvlarining ko'tarilishi va sanoat chiqindilari natijasida yuzaga keladi[1]. Sho'rlanish jarayonining tuproq unumdorligiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tuzlar miqdorining ortishi bilan tuproqning fizik va kimyoviy xususiyatlari yomonlashadi[2]. Shuningdek, Sultonov Sh.S. (2017) o'z tadqiqotlarida sho'rlanish jarayonining agroekologik jihatlarini o'rganib, sho'rlanishning tuproq unumdorligiga uzoq muddatli ta'sirini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlari sho'rlangan yerkarning rekultivatsiyasi bo'yicha innovatsion yondashuvlarni ilgari surgan[3].

Zamonaviy Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalari tuproq sho'rlanishini kuzatish, tahlil qilish va samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kash etmoqda. Ushbu maqolada sho'rlanishning sabablari, oqibatlari va GAT texnologiyalarining bu muammoni bartaraf etishdagi roli batafsil yoritiladi. Tuproq unumdorligining pasayishi – sho'rlangan tuproqda o'simliklarning o'sishi sustlashadi, bu esa hosildorlikning kamayishiga sabab bo'ladi. Sho'rga chidamli ekinlarni joylashtirish – GAT yordamida sho'rlanish darajasiga mos bo'lgan qishloq xo'jaligi ekinlarini tavsiya qilish mumkin [4]. Bundan tashqari, Turg'unov U.K. (2020) sho'rlanish monitoringida GAT texnologiyalarining samaradorligini baholab, GIS yordamida sho'rlanishning dinamik xaritalarini yaratish usullarini taklif qilgan. Unga ko'ra, GAT texnologiyalaridan foydalanish an'anaviy dala tadqiqotlariga nisbatan ancha tez va iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi[5]. Drenaj tizimlarini takomillashtirish – Sobirov N.K. (2015) sho'rlangan hududlarda yer osti suvlarini kamaytirish va samarali drenaj tizimlarini ishlab chiqish uchun GAT texnologiyalaridan foydalanish metodlarini ishlab chiqqan[6]. GAT texnologiyalarining ahamiyati – Sho'rlangan hududlarni kartografik tahlil qilish va ularga dinamik baho berish uchun GIS va masofaviy zondlash (RS) texnologiyalaridan foydalanish tobora kengayib bormoqda[7].

GIS xaritalash – Sho'rlanishning fazoviy taqsimotini aniqlash uchun maxsus elektron xaritalar yaratish imkonini beradi. Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on

tumanining X.Olimjon massivida 14 ta fermer xo‘jalikdan tashkil topgan Chorvachilik, tutchilik, parrandachilik, baliqchilik, terakchilik ushbu mavjud emas. Mahmudov H. (2022). “Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani tuproqlarining meliorativ holati” Ushbu maqolada Jarqo‘rg‘on tumanining tuproq unumdorligi, sho‘rlanish darajasi va yer melioratsiyasi bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar yoritilgan. Muallif meliorativ chora-tadbirlar va agrotexnik usullar yordamida tuproq sifatini oshirish yo‘llari haqida fikr bildiradi[8]. Qosimov J. (2021). “Jarqo‘rg‘on va Sho‘rchi tumanlarida yer resurslaridan foydalanishning muammolari va istiqbollari” Maqolada tumanlardagi suv resurslari taqsimoti, sug‘oriladigan yerlarning holati va tuproq unumdorligini oshirish bo‘yicha tadbirlar tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot mavzuga doir agro-ekologik muammolarni kompleks yondashuv asosida o‘rganish uchun muhim[9]. Bu massivda tadqiqot ishlari olib borilayotgan fermer xo‘jaliklaridan “Samo yo‘llari Baraka” fermer xo‘jaligida ishlari olib borilmoqda. Bu fermer xo‘jalikda sug‘orilib ekin ekilib kelayotgan 61,68 ming gektardan iborat. Ushbu xo‘jalikda sho‘rlangan yerlar ham mavjud. Bu hududda kuchsiz va o‘rtacha darajada sho‘rlangan hududlari bo‘lib, ushbu hududdan tuproq holatlari o‘rganilib chiqilmoqda. GAT yordamida turli yillarga oid ma’lumotlarni taqqoslab, sho‘rlanish jarayonining rivojlanish dinamikasini baholash mumkin. Tuproq sho‘rlanishiga jiddiy e’tibor qaratilmasa keyinchalik bu yerlar sekinlik bilan botqoqlashib boradi va natija bu yerlar foydalaniladigan yerlardan qatoridan chiqib ketishiga olib keladi. Shu sababli bu joyning iqlim sharoitlarini reylefini inobatga olgan holatda monitoring qilib borish juda muhim masalalardan biri hisoblanadi. Monitoring ishlarini olib borishda oldingi yillardagi ma’lumotlarni hozida olingan ma’lumotlar bilan taqqoslanib boriladi. Olingan natijalar tahlil qilinib, tegishli xulosalar beriladi. Buning uchun o‘rganilayotgan dalalarning tuproq namunalarini olib, ularni agrokimoviy holati va sho‘rlanishi bo‘yicha laboratoriya sharoitida analiz qilinib natijalari olinadi. Bu ma’lumotlarni oldingi yillar bilan solishtirish orqali olib boriladi. Bundan tashqari so‘nggi zamonaviy uslubdagi uskunalar yordamida ham ishlar bajariladi. Keyingi yillarda raqamli texnologiyalar yordamida ham ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bugungi kunda garchi raqamli texnologiyalar yer resurslarini boshqarish sohasiga allaqachon kirib kelgan bo‘lsa ham, dunyo miqyosida yer kadastri va xatlov jarayonlarini to‘liq avtomatlashtirish va bir nechta ma’lumotlar bazalariga integrasiya qilish hali xam ko‘plab muammolarga uchramoqda. Bunga asosiy sabab sifatida yangi texnologiyalarning tez takomillashib borishi va bunga foydalanuvchilarning moslashishi bilan qiyinchiliklari hamda yerlarni xatlovdan o‘tkazishning yagona tizimi yo‘qligi keltiriladi. Bu tizim ham yagona bo‘Imaganligi sababli yerlarni monitoring qilish ishlarida qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Tuproq sho‘rlanish darajasini tahlil qilish – GAT dasturlari orqali sho‘rlanishning vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini kuzatish mumkin. GAT texnologiyalar yordamida yer holatlari monitoring qilib borish tizimini takomillashtirish ishlarini joriy etish

bo'yicha ishlar olib borilmoqda. GAT texnologiyalaridan foydalangan holda sho'rlanish muammosini hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi mumkin: Drenaj tizimlarini optimallashtirish – Tuproqning gidrologik holatini tahlil qilish orqali samarali drenaj tizimlarini loyihalash mumkin.

Sho'rlanish darajasiga mos ekinlarni tanlash – GAT ma'lumotlari asosida sho'rga chidamli ekinlarni ekish uchun eng mos joylar aniqlanadi. Sug'orish rejalarini optimallashtirish – GAT yordamida tuproq namligi va tuz miqdorini baholash orqali eng samarali sug'orish usullari tanlanadi. Rekultivatsiya tadbirlarini rejulashtirish – GAT yordamida sho'rlangan yerlarni meliorativ usullar bilan yaxshilash rejalarini ishlab chiqiladi.

Xulosa

Tuproq sho'rlanishi qishloq xo'jaligi va ekologik muvozanatga jiddiy zarar yetkazadigan muammo hisoblanadi. Uning oldini olish va oqibatlarini kamaytirish uchun Geografik axborot tizimlari (GAT) texnologiyalaridan foydalinish muhim ahamiyatga ega. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari, masofaviy zondlash va GIS xaritalash orqali sho'rlangan hududlarni tezkor aniqlash va ularning rivojlanish dinamikasini kuzatish mumkin. Shuningdek, GAT texnologiyalari sug'orish va drenaj tizimlarini optimallashtirish, sho'rga chidamli ekinlarni tanlash va rekultivatsiya rejalarini ishlab chiqishda samarali vosita hisoblanadi. Kelajakda GAT texnologiyalaridan yanada kengroq foydalinish orqali tuproq sho'rlanishiga qarshi kurashishning yangi usullarini ishlab chiqish va qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Richards, L. A. (1954). Diagnosis and improvement of saline and alkali soils. USDA Agriculture Handbook, 60.
2. Qadir, M., Quillérou, E., Nangia, V., & Murtaza, G. (2018). Economics of salt-induced land degradation and restoration. Natural Resources Forum, 42(3), 141–157.
3. Sultonov Sh.S. (2017). Sho'rlanish jarayonining agroekologik jihatlari va uning tuproq unumdorligiga ta'siri. O'zbekiston agrar fanlari akademiyasi ilmiy jurnali, 2(9), 67–73.
4. Qadir, M., Quillérou, E., Nangia, V., & Murtaza, G. (2018). Economics of salt-induced land degradation and restoration. Natural Resources Forum, 42(3), 141–157.
5. Turg'unov U.K. (2020). GAT texnologiyalarining sho'rlanish monitoringida samaradorligi. Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy jurnali, 5(3), 112–120.

6. Sobirov N.K. (2015). Sho‘rlangan hududlarda samarali drenaj tizimlarini ishlab chiqish uchun GAT texnologiyalarining o‘rni. Tuproqshunoslik va agrokimyo jurnali, 8(3), 91–99.
7. Sharma, R., & Singh, P. (2015). GIS-based assessment of soil salinity in arid regions. *Environmental Monitoring and Assessment*, 187, 112.
8. Surxondaryo viloyatining agroekologik sharoitlari va tuproq sho‘rlanishi muammolari (Nurmatov A., Mahmudov H.).
9. Jarqo‘rg‘on tumanining tuproq meliorativ holati va yer resurslarini boshqarish masalalari (Qosimov J.).

**UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA PEDAGOGIK TA'LIM INNOVATSION
KLASTERINING TUTGAN O'RNI (KIMYO FANI MISOLIDA)**

Abdulaxatova Manzura Akramjonovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti II- kurs talabasi

Respublikamizda kimyo fanini o'qitishda uzviylik hamda uzlusizlikni ta'minlashning tashkiliy-metodik shart-sharoitlarini takomillashtirish, ta'lismuassasalarida kimyo fanini o'qitishni tubdan yaxshilash bo'yicha aniq chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Ta'lismarayonida fan tarmog'ini klaster modeli asosida rivojlantirish ta'lismubektlarini aniq umumiy maqsad atrofida birlashtirishni, ilmiy kuch va salohiyatni oqilona taqsimlashni, ta'lismarayonida fan va ishlab chiqarish integratsiyasini ta'minlash jarayonida kasbiy-texnologik variativlikni rivojlantirish jarayonini amalga oshirishning didaktik modeli va metodik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

